

# “AREAL LINGVISTIKA” FANIDAN MA’RUZA MASHG’ULOTLARINING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

MA’RUZACHI: NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
PROFESSORI, FILOLOGIYA FANLARI DOKTORI  
NIGORA MURODOVA

<b>1- mavzu</b>	<b>AREAL LINGVISTIKA FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI</b>
---------------------	--

## 1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg’ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg’ulot shakli</i>	Kirish-axborotli ma’ruza
<i>Ma’ruza rejasi</i>	1. Arealologiya tushunchasi haqida 2. Tillarning tasnifi 3. O’zbek shevalarining areal o’rganilishi 4. Turkiy areal lingvistika muammolari
<i>Ma’ruza mashg’ulotining maqsadi:</i> a) <i>ta’limiy:</i> o’quv kursi bo’yicha umumiy tushuncha berish. «Areal lingvistika fanining maqsad va vazifalari, o’rganish ob’yekti, boshqa fanlar bilan aloqasi haqida ma’lumot berish; b) <i>tarbiyaviy:</i> magistr larga yangi bilimlar berish orqali ularni vatanparvarlik, milliylik ruhida tarbiyalash; c) <i>rivojlantiruvchi:</i> ijodiy tafakkurni va mantiqiy fikrlash qobiliyatini o’stirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • o’quv kursining maqsadi va vazifalari, o’tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish; • «Areal lingvistika fanining o’rganish ob’yekti, uning maqsad va vazifalari haqida ma’lumot berish;	<i>O’quv faoliyati natijalari:</i> • o’quv kursining maqsadi va vazifalarini, o’tiladigan mavzularni tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida sharhlab beradi; • «Areal lingvistika fanining o’rganish ob’yekti, uning maqsad va vazifalari ko’rsatib beriladi.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Ko’rgazmali ma’ruza, suhbat, aqliy hujum
<i>Ta’lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy

<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O`quv qo`llanma, ma`ruza matni, proyektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og`zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. “AREAL LINGVISTIKA” fanining maqsad va vazifalari mavzusidagi ma'lumotli kirish ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<i>Tayyorgarlik bosqichi.</i>	1.Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2.Kirish ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3.O`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4.O`quv kursini o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.	
<i>1-bosqich</i> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1.O`quv kursining nomini aytadi. Ekranga kursning tuzilmaviy mantiqiy chizmasini chiqaradi, mavzular ro`yxatini beradi va ularga qisqacha ta`rif beradi 1.2. Birinchi mashg`ulot mavzusi, uning maqsadi va o`quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi. 1.3.O`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi 1.4. Savol-javoblar o`tkaziladi.	Tinglaydilar.  Tinglaydilar.  Tinglaydilar.  Savollarga javob beradilar.
<i>2-bosqich</i> Asosiy bosqich (55daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni ko`rsatish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Arealogiya haqida ma`lumot beradi. 2.3. Areal lingvistikaning o`rganish ob`ekti haqida ma`lumot beradi. 2.4.Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollarni beradi: 1. Areal lingvistika bilan dialektologiyaning o`rganish ob`ekti o`rtasidagi farqi nimada?	Asosiy tushunchalarni muhokama qiladilar.  Ma`lumotlar daftarlarga qayd etiladi. Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.

	<p>2. Turkiy tillarning ilk tasnifi kim tomonidan o'rganilgan?</p> <p>3. XIX-XX asrlarda qaysi tilshunos olimlar turkiy tillarni tasnif qilgan?</p> <p>4. Areologik tadqiq metodi nima?</p> <p>5. Tilshunos olim N.Gadjiyevaning turkiy tillarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqoti qanday nomlanadi?</p> <p>6. O'zbek lingvoareologiyasi bo'yicha G.F.Blagovaning tadqiqoti fanday nomlanadi?</p> <p>7. O'zbek tilshunosligida qaysi olimlarning areal yo'nalishidagi tadqiqotlarni bilasiz?</p> <p>8. Til hodisalari yana qanday yo'nalishlarda o'rganiladi?</p>	
<p><b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi.</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko'rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.</p>

### 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

2.6-3 ball - «a'lo»

2.1-2.5 ball - «yaxshi»

1.5-2- ball - «qoniqarli»

0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

## TAYANCH IBORALAR

Areal lingvistika – lisoniy hodisalarning ma’lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o’rganuvchi yo’nalishdir.

Dialektologiya - bir hududdagi turli hodisalarini o’rganish.

Lingvistik geografiya – Tillarning tasnifi jarayonidagi geografik tushunchalar (tillarning tarqalishi va qo’llanish hududlari)

**3-ilova**

## **ADABIYOTLAR**

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O’qituvchi, T.: 1972, 5 b.
2. Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
3. А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
4. N.Murodova O’zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

## **AREALOGIYA TUSHUNCHASI HAQIDA**

### **REJA**

- 1.Areal lingvistika fanining maqsad va vazifalari.
- 2.Tillarning tasnifi.
- 3.O’zbek shevalarining areal o’rganish.

**Arealogiya** (lot. are – maydon, hudud otdan yasalgan sifatning yunoncha logikos – so’z, tushuncha, ta’lim so’zi bilan birikishidan hosil bo’lgan qo’shma so’z) ma’lum bir hududda ma’lum bir hodisalarning (o’simlik, hayvonot, yer qatlami, yer osti va yer usti boyliklari, aholi hamda ularning tili va boshqalar) tarqalish xususiyatlarini o’rganishga oid fan bo’lib, bir necha fanlarda (jumladan, botaniqa, zoologiya, geologiya, etnografiya, filologiya va boshqalar) arealogik yo’nalish shaklida mavjuddir. SHuning uchun muayyan fanlarda bu tushuncha (areal lingvistika (tilshunoslik), areal botaniqa, areal geologiya va boshqalar) o’z aksini topgan.

**Areal lingvistika** lisoniy hodisalarning ma’lum hududlarda tarqalishi va shu asosda tillararo aloqalarni o’rganuvchi yo’nalishdir. Areal lingvistika tushunchasi va atamasi Matteo Julio Bartole (1873-1946) italyalik tilshunos) tomonidan XX asrning 40-yillarida tilshunoslikka kiritilgan bo’lsa-da, ammo arealogik tadqiqotlar o’zining uzoq tarixiga egadir. Faqat XX asr boshlarida tillar bilan bog’liq hududiy masalalarni o’rganuvchi yo’nalish areal lingvistika emas, **lingvistik geografiya** yoki **geografik lingvistika** atamasi ostida mashhur edi. Bu masala prof. A.SHermatovning

Toshkentda «Fan» nashriyoti tomonidan 1981 yilda chop etilgan 40 betlik «Lingvistik geografiya nima» risolasida yoritilgan.

Lingvistik geografiya muammolarining XVIII-XX boshi tilshunoslari, asosan, ikki yo'nalishda ko'proq shug'ullanganlar:

1. Tilshunoslikda keng tarqalgan **shevashunoslik** (dialektologiya);
2. Tillarning tasnifi jarayonidagi **geografik** tushunchalar (tillarning tarqalishi va qo'llanilish hududlari)

Turkiy tillarning tasniflari ham juda ko'p hollarda hududiy (arealogik), geografik tarqalish tushunchalari bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Jumladan, turkiy tillarning ilk tasnifini bergan Mahmud Koshg'ariy turkiy xalqlar va shevalar tasnifini berar ekan ularning tarqalish hududlarini «Rumdan CHingacha» (Kichik Osiyodan Xitoygacha) shaklda geografik (hududiy) chegaralarini ko'rsatadi.

XIX-XX asrlarda turkiy tillarning mukammal tasniflarini bergan akademik V.Radlov, V.Abogorodinskiy, N.A.Baskakov tasniflarida ham hududiy-geografik nomlanishni uchratish mumkin. CHunonchi, V.V.Radlov turkiy tillarning **sharqiy, g'arbiy, O'rta Osiyo** va **janubiy** kabi guruhlarini, akademik F.E.Korsh **shimoliy, g'arbiy, sharqiy, aralash tipli** guruhlarini, akademik M.Samoylovich **janubi-g'arbiy, janubi-sharqiy, shimoli-g'arbiy, shimoli-sharqiy** kabi guruhlarini, N.A.Baskakov esa **g'arbiy xun** va **sharqiy xun** tarmoqlarini ajratadi. Ko'rinib turibdiki, lingvistik tadqiq va tasnif jarayonida geografik (hududiy) tushunchalardan foydalanish ancha uzoq tarix hamda an'anaga ega.

Lingvistik geografiyaning ikkinchi tarmog'i bo'lgan **dialektologiya** (shevashunoslik) mahalliy (hududiy) shevalarni o'rganishga va tasniflashga xizmat qiladi.

Bunda o'z-o'zidan savol tug'iladi: "Lingvistik geografiya tilshunoslik tadqiqotlarida uzoq an'anaga ega bo'lsa, nima uchun XX asrning o'rtalarida **areal lingvistika** tarmog'i rivojlanib, nisbatan tez va keng ommalashdi?" uning sababi shundaki, areal lingvistika dialektologiyadan ham, lingvistik geografiyadan ham farq qiluvchi lingvistik **arealogik tadqiq metodidan** (ATM) foydalanadi va dialektologiyadan ham, lingvistik geografiyadan ham farqli bo'lgan maqsadni ko'zlaydi. ATM haqida navbatdagi ma'ruzamizda to'xtalamiz. Lingvistik geografiya (yoki geografik lingvistika) va dialektologiya hamda areal lingvistika (yoki lingvistik arealogiya) tilshunoslik fanining ayni bir tarmog'ining turlicha nomlanishi emas, balki serqirra ijtimoiy-tarixiy hodisa bo'lgan inson tilining turli tomonlarini turli xil usullar (metodlar) bilan o'rganuvchi tarmoqdir.

Areal lingvistika tadqiq materiali, usullari bilan "O'zbek dialektologiyasi", "Hozirgi o'zbek tili", "Turkiy filologiyaga kirish", "O'zbek tili tarixi" kabi o'quv fanlari uzviy bog'liq holda bu o'quv fanlaridan «qoniqarli» bilimga ega bo'lmay turib, **areal lingvistika** fanining maqsadini anglash, mazmunini uqish va o'zlashtirish hamda undan ilmiy-amaliy maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

O'quv fanining reyting tizimi ushbu ma'ruza matniga ilova qilingan "Areal lingvistika bo'yicha reyting topshiriqlari va baholash mezonlari"da mufassal bayon etilgan.

O'quv fanining o'zbek tilidagi o'quv va ilmiy adabiyotlari hozircha maxsus darslik yoki o'quv qo'llanmasi sifatida mavjud emas. Lekin areal lingvistika va lingvistik atlas tuzish muammolari bo'yicha G'arbiy yevropa, rus tilshunosligida ko'p ishlar qilingan. Bu adabiyotlarning bir qismi namunaviy dasturda keltirilgan. Adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan AQSH lingvistik, antropologik va etnografik veb-saytlaridan bu yo'nalishda katta material olish mumkin.

Turkiyshunoslik bo'yicha diqqatga sazavor va kutubxonalarimizda mavjud bo'lgan tadqiqotlar sirasida N.Gadjiyevaning «Turkiy areal lingvistika muammolari O'rta Osiyo mintaqasida» (Moskva: «Nauka» 1975.304-b) kitobini keltirish mumkin. Bu kitob ushbu o'quv fani bo'yicha darslik yoki o'quv qo'llanmasi o'rni bosa oladi. Xususan, ishning «Areal lingvistik tadqiq metodlari» masalalariga bag'ishlangan uchinchi bobi arealogik tadqiqotlar mohiyati va metodlari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Areal lingvistikaning asosiy tushunchalari A.B.Jo'rayevning «O'zbekzabon mintaqani areal o'rganishning nazariy asoslari» (Toshkent, «Fan» 1991- 220 b) monografiyasidan olish mumkin. Bu monografiyaning «Turkiy tillar areal lingvistikasining ayrim metodologik masalalari»; «Refleksiya». «O'zbek tilshunosligida lingvoareal tadqiqotlarning shakllanishi va rivojlanishining asosiy omili sifatida» deb nomlangan I va II boblari lingvoareal tadqiq maqsadi va usullarini sharhlagan bo's tanishish hamda o'rganish materiali sifatida ahamiyatlidir. Bu monografiyada **refleksiya** (tajalli) deganda o'zbek shevalarining va yozma yodgorliklarini emperik (fahmiy, tavsifiy) o'rganish natijasida qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan bir qatorda ma'lumotlarni yangi maqsadlarga erishish uchun qayta guruhlash hamda tahlil etib baholash tushuniladi. SHuning uchun A.Jo'rayevning tadqiqoti XX asrning 30-80- yillarida o'zbek shevalarining mahalliy-hududiy tavsifi natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni, ATM nuqtai nazaridan qayta baholash va tahlil etishga qaratilgan. Monografiyaning 186-201- betlarida lingvistik arealogiyaning eng asosiy tushunchalaridan iborat bo'lgan atamalarning turli tadqiqotlarda xilma-xil talqini (jumladan, lisoniy areal tushunchasining o'ndan ortiq manbalarda) ilova sifatida berilgan. Ma'ruza matnining 6-ilovasida shu lug'at asosida asosiy arealogik atamalar lug'atini berdik.

Turkiy tillar, jumladan, o'zbek lingvoarealogiyasi bo'yicha G.F.Blagovaning «Turkiy tillarda turlanishning areal-tarixiy tadqiqi» (janubi-sharqiy mintaqada) (Moskva, «Nauka» 1982, 304 b) tadqiqoti diqqatga sazovordir.

O'zbek tilshunosligida Qosim Mamajonov, Yo'ldosh Ibrohimov, Nigora Murodovlarning doktorlik dissertatsiyalari himoya etganliklarini va monografiya, maqolalar e'lon qilganliklarini e'tiborga olish zarur.

**2-  
mavzu**

**AREAL LINGVISTIKA TADQIQ METODI VA  
AREOLOGIYANING TADQIQ MANBAI**

**1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli**

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Kirish-axborotli ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Areal tadqiq usuli va manbai 2. O'zbek dialektologik atlasini tuzish o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolaridan biri. 3. Atlas tuzish tamoyillari 4. O'zbek tilshunosligida areal yo'nalishdagi tadqiqotlar haqida
<i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i> a) <i>ta'limiy:</i> mavzu haqida umumiy ma'lumot berish. «Areal lingvistika ning tadqiq metodi va tadqiq manbai haqida nazariy ma'lumotlar berish; b) <i>tarbiyaviy:</i> yangi bilimlar berish orqali o'zbek tilining milliy qadriyatlarini asrab avaylashga o'rgatish; c) <i>rivojlantiruvchi:</i> bilimlarini boyitish orqali ilm fanga qiziqishni oshirish, ma'naviy olamini boyitish va mustaqil fikrga ega bo'lishlarini ta'minlash	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • areal tadqiq usuli va manbai haqida ma'lumot berish; • Dialektologik atlas tuzish haqida ma'lumot berish; • Atlas tuzish tamoyillarini tushuntirib berish;	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • areal tadqiq usuli va manbai haqida ma'lumot beradi; • Dialektologik atlas tuzish haqida tushuncha beradi; • Atlas tuzish tamoyillari haqida ma'lumot beradi;

• O'zbek tilshunosligida areal yo'nalishdagi tadqiqotlar haqida ma'lumot berish.	• O'zbek tilshunosligida areal yo'nalishdagi tadqiqotlar haqida ma'lumot beradi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. "AREAL LINGVISTIKA" tadqiq metodi va areologiyani tadqiq manbai mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<i>Tayyorgarlik bosqichi.</i>	1.Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2.Ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3.O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4.Ma'ruzani o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
<i>1-bosqich</i> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1.Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini e'lon qiladi 1.2. o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova) 1.3.Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar.  Tinglaydilar.  Magistrlar berilgan savollarga javob beradi.
<i>2-bosqich</i> Asosiy bosqich	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Areal lingvistika tadqiq metodi va tadqiq	Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o'tkazadilar.



(55daqqa)	<p>manbai haqida ma`lumot beradi.</p> <p>2.3.O'zbek tilshunosligida dialektologik atlas tuzishning zarurati haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.4.Atlas tuzish tamoyillari haqida tushuncha beradi.</p> <p>2.5.Areal yo'nalishidagi tadqiqotlar haqida ma'lumot beradi</p> <p>2.6.Yangi mavzu bo'yicha olgan bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>1.Til hodisalarini tahlil qilishda fandanay metodlardan foydalaniladi?</p> <p>2. Areal tadqiq metodi boshqa tadqiq metodlaridan qanday farq qiladi?</p> <p>3.O'zbek dialektologiyasida atlas tuzishning ahamiyati bormi?</p> <p>4. Atlas tuzishning qanday tamoyillar bor?</p> <p>5.O'zbek tilshunosligida areal yo'nalishdagi qaysi tadqiqotlarni bilasiz?</p>	<p>Ma'lumotlar daftarlarga qayd qiladilar.</p> <p>Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b></p> <p>Yakuniy bosqich</p> <p>(10 daqiqa)</p>	<p>3.1.Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3.3.Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

### 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

2.6-3 ball - «a'lo»

2.1-2.5 ball - «yaxshi»

1.5-2- ball - «qoniqarli»

0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

#### TAYANCH IBORALAR

Areal lingvistika tadqiq metodi – turli mintaqalardagi til shevalarida o'xshash hodisalarni aniqlash va ularning qo'llanish maydonini aniq belgilashdan iboratdir.

Areal lingvistikaning tadqiq manbai – ma’lum bir davrda olingan lisoniy hodisaning qarindosh va yondosh tillar amalda bo’lgan turli hududlarni aniqlash hamda bu hududlarni bir arealga, lisoniy hodisaning tarqalish maydoniga birlashtirishdir. Izoglossa – Ayni bir lisoniy hodisaning tarqalish chegaralarini belgilovchi chiziq, hudud chegaralaridir.

**3-ilova**

## **ADABIYOTLAR**

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O’qituvchi, T.: 1972, 5 b.
2. Н.З.Гаджиева. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
3. А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
4. N.Murodova O’zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

## **AREAL LINGVISTIKA TADQIQ METODI VA AREALOGIYANING TADQIQ MANBAI REJA**

1. Areal tadqiq usuli.
2. O’zbek dialektologik atlasini tuzish o’zbek tilshunosligining dolzarb muammolari.
3. Atlas tuzish tamoyillari.

Arelogiyada o’ziga xos tadqiq metodi, ya’ni ish usuli va o’ziga xos tadqiq ob’ekti borligini ko’pgina olimlar inkor etadilar. Ularning fikrini to’la- to’kis asosli deb aytish mumkin emas. Chunki arealogiya tadqiq manbai sifatida adabiy til va shevalarda u yoki bu lisoniy birlikning tadqiqi bilan ish ko’radi. Bu jihatdan uning tadqiq manbai adabiy til va sheva unsurlarining tadqiqi va tavsifi bilan tanishadi. Ikkinchi tomondan arealogik tadqiqotda adabiy til va sheva hodisalari qiyoslanadi. Bu jihatdan arealogiyaning tadqiq manbai qiyosiy tilshunoslik tadqiq manbai va usuli bilan to’qnashadi. Qiyosiy va tavsifiy – sixronik tilshunoslik tadqiq manbai va usuli bilan areal lingvistikaning tadqiq manbai hamda usulida bunday umumiylikning mavjudligi, arealogiyaning o’z tadqiq manbai va usuli (metodi) borligini ko’rsatadi (buning yorqin dalilini to’rtburchak misolida ko’rishimiz mumkin: to’rtburchak, rom, kvadrat, parallelepiped, trapetsiya kabi geometrik shakllar to’rt to’g’ri chiziq va to’rt burchakdan iboratdir. Ammo ular xilma-xil munosabatlar chizmasiga egadir. SHuning uchun ularning har biri alohida bir geometrik shakl (butunlik)lar sistemasidir). Qiyosiy tilshunoslik, tarixiy tilshunoslik, areal lingvistika lisoniy hodisalarning tadqiq va tavsifiga atomistik usul (lisoniy hodisani sistemadan uzilgan holda) bilan yondashadi. (Jumladan, «a» ma’lum bir pozitsiyada «o»ga o’tishi; qaratqich va tushum kelishigi qo’shimchasining shaklan farqlanmasligi yoki o’rin-

payt kelishigi qo'shimchasi o'rnida jo'nalish kelishigi qo'shimchasining qo'llanilishi bir-biriga bog'liq ravishda emas, balki alohida-alohida hodisalar sifatida tadqiq va tavsif etiladi). SHuningdek, qiyosiy tilshunoslikda ko'rganimizdek, alohida-alohida olingan lingvistik hodisalar arealogiyada ham qiyoslanadi. Lekin arealogik tadqiqotda makon tushunchasi ham mavjud. Arealogik makon dialektologik makon tushunchasidan batamom farq qiladi. Dialektologiyada makon tushunchasi tom ma'noda ma'lum bir hudud, mintaqa, geografik hudud bilan mos keladi (masalan: Buxoro shevasi, Toshkent shevasi). Dialektologik tadqiqotda bir makondagi turli xil til birliklarining bir davrda bir butunlikning tarkibiy qismlari sifatida yashashi tadqiq etiladi. Areal lingvistikada bir hodisaning turli hudud va mintaqalarda tarqalishi diqqat markazda turadi. SHuning uchun arealogik makon dialektologik (geografik) makondan tubdan farq qiladi (chunonchi: tushum va qaratqich kelishiklarining shaklan mos kelishi O'zbekistonning qarluq-uyg'ur shevalari uchun xos deb talqin etilsa, bu hodisaning areali sifatida O'rxun-Enasoy, qumuq va yoqut tillari tarqalgan mintaqalar nazarda tutiladi. CHunki bu hodisa mazkur tillarda ancha keng tarqalgan). SHuning uchun areal lingvistikada makon deganda geografik hudud emas, ma'lum bir hodisaning tarqalish hududi (hududlari) tushuniladi. Dialektologiyada hodisa makon orqali (ya'ni, shu mintaqada qanday hodisalar bor) tavsiflansa, areal lingvistikada makon hodisa orqali beriladi (ya'ni, bir hodisaning turli tarqalish makonlari). Boshqacha qilib aytganda, dialektologiyada bir makondagi turli hodisalar (makon – umumiy, hodisalar – xususiy) tadqiq etilsa, arealogiyada bir hodisaning turli makonlari (hodisa – umumiy, hududlar – xususiy) o'rganiladi.

Areal tadqiq usulining qiyosiy, xususan, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikdan farqi shundaki, qiyosiy tilshunoslikda tipologik o'xshash va noo'xshash hodisalar qiyoslanaveradi. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikda esa faqat o'zaro o'xshash hodisalar turli davrlar asosida qiyoslanadi. Areal lingvistikada esa bir hodisaning ma'lum bir davrdagi o'xshashligi tadqiq etiladi (SHu hodisaning turli davrlardagi o'xshashligi tarixiy arealogiyada o'rganiladi). Areal lingvistikaning tadqiq usuli va manbaida bo'lgan bunday farqlar uning tavsifiy, qiyosiy, tarixiy tilshunosliklar bilan bir qatorda til haqidagi fanning o'ziga xos alohida tarmog'i mavqeida ekanligini asoslaydi. SHunday qilib, areal lingvistikaning tadqiq manbai va tadqiq metodini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Areal tadqiqotlarning manbai sifatida ma'lum bir davrda olingan lisoniy hodisa (qonuniyat)ning qarindosh va yondosh tillar amalda bo'lgan turli hududlarni aniqlash hamda bu hududlarni bir arealga, lisoniy hodisaning tarqalish maydoniga birlashtirishdir. Uning tadqiq usuli sifatida turli mintaqalardagi til shevalarida o'xshash hodisa (qonuniyat)larni aniqlash va ularning qo'llanish maydonini aniq belgilashdan iboratdir.

Bundan tashqari areal lingvistikaning oldida ma'lum bir hodisa (qonuniyat)ning tug'ilishini, vujudga kelish markazini, uning turli yo'nalishlarga tarkalishini (irradiatsiyasini) va bu hodisaning turli mintaqalardagi o'ziga xosligini (innovatsiyalarini) belgilash vazifasi ham turadi.

Areal lingvistika asosiy tushunchalari va ish usullaridan biri **izoglossa** (gr. isos o'xshash, bir xil va gr. glossa til hodisasi) ayni bir lisoniy hodisaning tarqalish chegaralarini belgilovchi chiziq, hudud chegaralaridir.

Izoglossalar bilan uzviy bog'liq xaritalash va lisoniy (lingvistik) atlaslar tuzish areal lingvistikani lingvistik geografiya bilan yaqin aloqada ekanligini ko'rsatadi. SHuning uchun ba'zan **areal lingvistika** va **lingvistik geografiya** atamalarini o'zaro tenglashtirish hamda birining o'rnida ikkinchisini qo'llash holatlari uchraydi.

Geografik xaritada yer sathining o'ziga xos xususiyatlari (quruqlik, suvlik, tekislik va boshqalar), ularning chegaralari va o'zaro o'xshashliklari asosida (jumladan, tog'lar och qizildan to'q qizilgacha, suv och ko'kdan to'q ko'kgacha, tekislik och yashildan to'q yashilgacha va boshqalar) maxsus usullar bilan ajratilib ko'rsatiladi. Ayni shunday holatni lingvistik (areal) xaritada ham uchratish mumkin. YA'ni bir xil hodisalar bitta yoki bir xil izoglossalar bilan beriladi. Geografik xaritaga qarab, uni o'qiy oladigan kishi, relef (tog', ko'l, daryo, tekislik va boshqalar)ning Afrika, Osiyo, yevropa yoki Amerikaning qaysi hududlarida joylashganini tushuna olganidek, areal xaritani o'qiy oladigan shaxs o'zini qiziqtirgan lisoniy hodisa (qonuniyat) qaysi hududlarda qay darajada tarqalganligini bemalol uqiy oladi.

Areal lingvistikani tilshunoslikning alohida tarmog'i sifatida vujudga keltirgan ijtimoiy zarurat ham, areal lingvistikaning nihoya maqsadi ham mana shunday xaritalar tuzish va ularni uqa bilish madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Bularning har biri ustida alohida- alohida to'xtalamiz.

Ma'ruzamiz yakunida xulosa qila olamizki, areal lingvistika o'zining tadqiq maqsadi, usuli (metodi) va manbaiga ega bo'lgan tilshunoslikning alohida bir tarmog'idir.

Arealogik tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida nisbatan yangi yo'nalish bo'lganligi va shu kungacha o'zbek lingvistik atlaslari tuzilmaganligi bu fanning ta'lim tizimida o'rganilishini dolzarb masalalardan biriga aylantirdi.

### **Savollar**

1. Areal tadqiq usuki nima?
2. Areal tadqiq manbalariga nimalar kiradi?
3. Lingvistik atlas nima?
4. Lingvistik atlaslar yaratgan olimlarni bilasizmi?

<b>3- mavzu</b>	<b>IZOGLOSSA</b>
---------------------	------------------

#### **1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli**

<i>Mashg'ulot vaqti-</i>	Magistrlar soni: 7 nafar
--------------------------	--------------------------

2 soat	
<b>Mashg'ulot shakli</b>	Axborotli, vizual ma'ruza
<b>Ma'ruza rejasi</b>	1. Dialektografik ishlar. 2. Makon va zamon tushunchasi 3. Fonetik izoglossa 4. Morfologik izoglossa 5. Leksik izoglossa
<b>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</b>	
<p><i>A) ta'limiy:</i> mavzu haqida umumiy ma'lumot berish. «Areal lingvistikada izoglossa hodisalari haqida ma'lumot berish;</p> <p><i>b) tarbiyaviy:</i> magistr'larga yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarini asrash ruhida tarbiyalash;</p> <p><i>c) rivojlantiruvchi:</i> bilimlarni kengaytirish bilan magistr'larda ilm fanga qiziqishni oshirish, ma'naviy olamini boyitish va mustaqil fikrga ega bo'lishlarini ta'minlash</p>	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• izoglossa haqida ma'lumot berish;</li> <li>• Dialektografik ishlar haqida ma'lumot berish;</li> </ul> <p>Makon va zamon tushunchasi haqida ma'lumot berish</p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• izoglossa haqida ma'lumot beradi;</li> <li>• Dialektografik ishlar haqida ma'lumot beradi;</li> <li>• Makon va zamon tushunchasi haqida ma'lumot beradi.</li> </ul>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Ommaviy, jamoaviy
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. Izoglossa mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchilar</b>

<p><b>Tayyorgarlik bosqichi.</b></p>	<p>1. Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash.  2.Ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.  3.O`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.  4.Ma`ruzani o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.</p>	
<p><b>1-bosqich</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)</p>	<p>1.1.Ma`ruza mashg`ulotining mavzusini e`lon qiladi  1.2. o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova)  1.3.Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar.   Tinglaydilar.   Berilgan savollarga javob beradi.</p>
<p><b>2-bosqich</b> Asosiy bosqich (55daqiqa)</p>	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.  2.2. Dialektografik ishlar haqida ma`lumot beradi.  2.3. Makon va zamon tushunchalarini izohlab beradi  2.4. Izoglossa haqida ma`lumot beradi.  2.5. YUqorida aytilgan fikrlar O`zbekiston hududida to`plangan faktik materiallar asosida tushuntiriladi.  2.6.Olgan bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.  1. Qaysi olimlarning dialektografik ishlarini bilasiz?  2. Makon va zamon tushunchasini izohlab bering?  3. Izoglossa nima?</p>	<p>Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o`tkazadilar.   Ma`lumotlar daftarlarga qayd qiladilar.  Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1.Mavzu bo`yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)  3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.  3.3.Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga</p>	<p>Savollar beradilar.   Vazifani yozib oladilar.</p>

	vazifa qilib topshiradi.	
--	--------------------------	--

### 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

2.6-3 ball - «a'lo»

2.1-2.5 ball - «yaxshi»

1.5-2- ball - «qoniqarli»

0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

#### TAYANCH IBORALAR

Izoglossa – o'zaro o'xshash hodisalarining tarqalish nuqtalarini xaritada belgilovchi chiziq av belgi.

Dialektografik ishlar – tavsifiy ishlar

Dialektologik makon- makon umumiy, hodisalar xususiy o'rganilgan.

Areologiyada makon – hodisa umumiy, hududlar xususiy o'rganiladi.

Izoglossa – ayni bir lisoniy hodisaning tarqalish chegaralarini belgilovchi chiziq, hudud chegaralaridir.

### 3-ilova

#### ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O'qituvchi, T.: 1972, 5 b.
2. Н.З.Гаджиева. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
3. А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
4. N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

#### IZOGLOSSA

##### REJA

1. Dialektografik ishlar.
2. Xaritalarda izoglossalarning berilishi.

**Izoglossa** – arealogik tadqiqotning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, o'zaro o'xshash hodisa (qonuniyat)ning tarqalish (qo'llanish) nuqtalarini va bu nuqtalarni

tutashtiruvchi chiziqni hamda hodisaning tarqalish chegaralarini xaritada belgilovchi chiziq yoki belgi.

Izoglossani nima asosida o'tkazish (izoglossa mazmuni, tarqalishi, o'rganilayotgan hodisa yoki qonuniyat) areal tilshunoslikda juda katta ahamiyatga ega. Tavsifiy (dialektografik) ishlarda, ya'ni ma'lum bir hududdagi shevalar tavsiflanganda, odatda, shu shevaning o'lchov mezoni sifatida qabul qilingan etalondan (metahodisadan) yoki boshqa bir shevadan farqlovchi katta-kichik har qanday farq qayd etib boriladi. Tavsifiy ishlarda, ko'p hollarda, bu hodisalardan qay biri qay darajada ahamiyatli ekanligi haqida tasavvurga ega bo'lish qiyin. SHuning uchun ko'p hollarda, masalan: ma'lum bir shevaning o'ziga xos xususiyatlari, sifati dialektologik 200-300 turdagi o'ziga xoslikni qayd etsa, arealog shu hodisalardan eng ahamiyatli ma'lum bir shevaning o'ziga xos antologik xususiyatda aks ettiruvchi 2-3 belgini (hodisa, qonuniyatni) izoglossa mazmuni sifatida tanlaydi va shu hodisaning tarqalish makonini (arealini) aniq belgilashga harakat qiladi. Lisoniy hodisaning (qonuniyatning) tabiatiga muvofiq ravishda izoglossa har xil, jumladan, fonetik (masalan: so'z boshida umumturkiy «a»ning «o»ga onda-sonda yoki to'liq o'tishi yoki adabiy til va shevalarda yarim lablangan «o» tovushining mavjudligi), fonologik (chunonchi: «q» va «k» tovushlarining fonologik farqlanishi, «h» va «x» tovushlarining fonologik farqlanishi), morfemik (masalan: qaratqich kelishigi qo'shimchasini *-ing* shaklida qo'llanishi), morfologik (chunonchi: qaratqich va tushum kelishiklari qo'shimchalarining o'zaro almashinib qo'llanishi), leksik (jumladan, *al* (el), *ilik*, qo'l so'zlarining qullanilishi), sintaktik (chunonchi: *ko'rmoq* fe'lining chiqish kelishigini boshqarishi, yoki jo'nalish kelishigidagi ob'ektni boshqarishi; *minmoq* fe'lining o'timliligi va boshqalar) bo'lishi mumkin. Odatda izoglossa bitta hodisa asosida belgilanadi. Agar ikki hodisa bir-biri bilan (sabab~oqibat munosabati) o'zaro bog'langan bo'lsa, bunda ikki hodisa bitta izoglossa bilan berilishi mumkin (masalan: umumturkiy «a»ning yarim lablangan «o»ga o'tishi va tilda «o» fonemasining mavjudligi). Agar hodisalar orasida sabab~hodisa munosabatlari mavjud bo'lmasa, bunday hodisalar alohida-alohida izoglossalar bilan berilishi lozim (masalan: tilda yarim lablangan «o» fonemasining mavjudligi va umumturkiy «a»ning «o»ga o'tishi. Bunday holatda ushbu tildagi «o»ning umumturkiy «a»dan kelib chiqishi shart emas. Vaholanki, birinchi holatda «o» faqat umumturkiy «a»dan kelib chiqadi. SHuning uchun G.F. Blagova kitobidan olingan karta-sxemada 1M<sup>1</sup>2M bitta izoglossa emas, ikki izoglossa sifatida qaralishi kerak.

SHuning uchun arealogik tadqiqotlar tavsifiy dialektologik tadqiqotlar nihoyasiga yetar davridagi bosqich sanaladi. SHu sababli arealogik tadqiqotlar tavsifiy dialektologik ishlarning navbatdagi bosqichi sanaladi. YA'ni tavsifiy dialektologiya ma'lum bir shevaning chegaralarini va o'ziga xos hodisalarni aniqlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, arealogik tadqiqotlar shevalar orasidagi hududiy chegaralarni olib tashlaydi. CHunki turli mintaqada amalda bo'lgan turli shevalarda qo'llangan bir xil hodisa (qonuniyat) arealogik tadqiqotlarda mintaqaviy-shevaviy mansublikdan qat'i nazar bir arealga birlashtiriladi. CHunonchi: so'z boshida jarangsiz «t» tovushining jarangli «d» fonemasiga o'tishi. Umuman olganda,



jaranglilashish turkiy tillarning o'g'uz guruhiga mansub tarmoqlari uchun xos hodisa sanalsa-da, umuturkiy *t~d* hodisasi, birinchidan, o'g'uz guruhiga kiritiladigan *turk, ozarbayjon, turkman* shevashunoslari bu tillarning juda ko'plarida qadimgi turkiy «t»ni «d»ga o'tmasligini qayd etadi. Ikkinchidan, umumturkiy «t»ning «d»ga o'tish hodisasini o'g'uzlardan ancha uzoq bo'lgan *totor, boshqird, qirg'iz, o'zbek* tilining amalda bo'lgan mintaqalaridagi shevalarida ham uchratish mumkin. SHuning uchun dialektologlarning bergan oddiy tavsiflari ichida o'ta ahamiyatlarini til yoki shevaning eng xarakterli xususiyatlarini izoglossa asosida tanlash va o'rganish talab qiladi. SHuning uchun A.Boltayev, G.Blagovalarning aytib o'tilgan ishlarida o'zbek dialektologik tadqiqotlarida shevaning xususiyatlari sifatida ajratilgan juda ko'p sonli belgilar aksar holatlarda shevaning mohiyatini belgilash uchun ikkinchi darajali belgilar bo'lib, izoglossa vazifasini o'tay oladigan eng asosiy belgilar bu hodisalar ichida yo'qolib ketishini qattiq tanqid qilishadi.

Shevalar orasidagi chegaralarni yo'qotib, ma'lum bir hodisaning tarqalish mintaqalarini aks ettiruvchi izoglossa mazmuni (belgisi) til tizimida ahamiyatli hodisa bo'lishi ma'lum bir guruh (urug', elat, lahja, til...) yoki bir necha xususiyatlarni belgilovchi hodisa (qonuniyat) bo'lmog'i lozim. Hozirgi o'zbek tilshunosligi oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham mana shu bilan belgilanadi; o'zbek shevalari, turkiy tillar orasidagi o'xshashlik va farqlar behad ko'p. Lekin ularning barchasi ham izoglossa mazmuni (asosi, belgisi) vazifasini o'tay olmaydi. O'zbek shevalaridagi jo'qichilar, galdirlar, yo'qchilar deb qipchoq, o'g'uz va qarluq-uyg'ur lahjalarini atigi bitta xususiyati – so'z boshida *y~j, k~g* almashinuvi bilan ajrata olish ham yaqqol ko'rsatib turibdi. Ana shu xususiyat (qonuniyat) («k»ning «g»ga o'tishi kabilar ham) qipchoq, o'g'uz va qarluq-uyg'ur shevalari orasidagi muhim belgi sanalishi mumkin. CHunki bu xususiyatlar leksik farqlar bilan ham uzviy bog'liqdir. SHuning uchun arealogik tadqiqot o'tkazishdan oldin har bir tadqiqotchi har bir izoglossa mazmunini (asos, belgisi)ning til tizimidagi taksonamik (tasnif etish uchun ahamiyatli bo'lgan) ahamiyatini asoslab bermog'i lozim. Tabiiyki, arealogik tadqiqot o'rganilayotgan arealning to'liq tasnifini ham o'z ichiga olishi kerak. CHunonchi, ilovada berilgan, N.Murodovanning doktorolik dissertatsiyasidan olingan, 1-3-xaritalar tadqiqotchining tadqiq etgan areali haqida etnografik ma'lumot beradi. Jumladan, 3-xaritada tadqiq manbai bo'lgan 200 dan ortiq oykonimning aniq joylashuvi va nomlanishi beriladi. 4-ilogada (5-xarita) yettita izoglossaning shu mintaqada tarqalishi ko'rsatilgan. Barcha izoglossalar bitta tushuncha *og'iz suti* qo'shma so'zining ushbu mintaqada qanday berilishiga asoslanadi. Xaritada o'z aksini topgan izoglossalar (*gilagay, dalama, uvuz, dalama/palla, palla/palla, qog'onoq/gilagay, jek/palla*) ichida *gilagay* izoglossasining yetakchiligini ko'rish mumkin. Arealogik xarita namunasi sifatida berilgan 5-xaritadan ko'rinib turibdiki izoglossa albatta chiziq shaklida bo'lishi shart emas. U nuqta ko'rinishida ham, alohida bir mintaqa shaklida ham berilishi mumkin. CHunonchi, 5-xaritada Langar, CHilosh, YAngi yo'l, Xatirchi, Olchinobod, Qoracha, Galabek, Zarafshon hududlarida ajratilgan 50 dan ortiq oykonimlarini bir umumiy zonaga – *gilagay* izoglossasi zonasiga birlashtirish mumkin edi. 5-ilogada (G.Blagova asaridan olingan 7-xarita -chizma) ana shu usuldan foydalanilgan.

Bu xaritani o'qish uchun qisqartmalar:

Arab raqamlari (1-6) qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin, chiqish, vosita kelishiklarining tartib raqamlari;

X – ikki kelishikning shaklan mos kelishi;

A – egalik qo'shimchasi bo'lmagan otlarning tuslanishi;

B – I, II shaxs egalik qo'shimchalariga ega bo'lgan otlarning tuslanishi;

V – III shaxs egalik qo'shimchali otlarning tuslanishi;

M – olmoshlarning tuslanishi;

$a^1, b^1, v^1$  – egaliksiz va egalikli otlarning o'g'uz turlanishi tipi;

$a^{11}, b^{11}, v^{11}$  – egaliksiz va egalikli otlarning qipchoq turlanishi tipi;

$a, b, v$  – egaliksiz va egalikli otlarning qarluq turlanishi tipi;

daraja (<sup>o</sup>) belgisi bilan eskirgan, qadimgi forma shakllari berilgan.

Xaritada har bir belgi, jumladan:  $1M^12M$ ,  $3abv$ ,  $4v5^ov$  bitta izoglossa bo'lib, ilova etilayotgan xaritada bu hodisaning tarqalish hududlari berilgan. CHunonchi,  $1M^12M$  ramzi o'z ichiga ikki izoglossani oladi;  $1M^1$  – olmoshlar turlanishida qaratqich kelishigining o'g'uz shaklida qo'llanishi;  $2M$  – tushum kelishigining olmoshlarda qarluq ko'rinishida qo'llanishi.

Xaritani  $1M^1$  belgisiga ega bo'lgan joylari shu hodisaning qullanilish izoglossasi sanalishi mumkin. Izoglossalar yaxlit (agar hodisa ma'lum bir mintaqada qo'llanilib undan tashqarida uchramasa), uzuq (bir-biridan uzilgan turli mintaqalarda uchrasa), yopiq (ma'lum bir chegaralangan arealdan boshqa joyda uchramasa), ochiq (turli mintaqalarda uchrasa) bo'lishi mumkin.

Ilovada berilgan 4-xaritaga diqqat qilib qaralsa, areal va izoglossalarni xarita shaklida berish shart emasligiga amin bo'lish mumkin. Izoglossa va areal toponimlarini sanab o'tish, ro'yxatda berish usuli bilan ham ifodalash mumkin. Masalan: *uvuz* so'zini *jak* so'zi bilan atovchi mintaqalar 118, 119, 120, 130, 136, 137 nuqtalardir. Lekin xaritalashtirilgan izoglossa va areal haqiqiy lisoniy manzarani – lingvistik lanshaftni beradi. Mohiyatan atama bo'lgan landshaft (*nems.* Landchaft – manzara, ko'rinish) atamasi arealogiyada juda keng qo'llaniladi. Haqiqatan ham 5-xaritaga (4-ilova) diqqat qilib qarasa, xarita izoglossalari uchun asos bo'lgan yettita so'zdan qay birining qaysi hududlarda qo'llanilishi xaritada o'z aksini topgan.

### Savollar

1. Izoglossa nima?
2. Qanday izoglossa hodisalarini bilasiz?
3. Izoglossaga oid tadqiqotlarni bilasizmi

**4-  
mavzu****AREOLOGİYADA MARKAZ, CHEKKA RADIATSIYA  
TUSHUNCHALARI****1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli**

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Sinxronik markaz 2. Diaxronik markaz 3. Sinxronik chekka 4. Diaxronik chekka 5. Irradiatsiya va radiatsiya
<b><i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i></b> <i>A) ta'limiy:</i> mavzu haqida umumiy ma'lumot berish. «Areal lingvistikada til hodisalarining tarqalishini sinxronik, diaxronik tahlil qilishni mavjud xaritalar asosida tushuntirib berish. Irradiatsiya va radiatsiya tushunchalari haqida ma'lumot berish. <i>B) tarbiyaviy:</i> magistr'larga yangi bilimlar berish orqali ularni milliylik ruhida tarbiyalash; <i>V) rivojlantiruvchi:</i> bilimlarni kengaytirish bilan magistr'larni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish va mustaqil fikrga ega bo'lishlarini ta'minlash	
<b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b> • Arealologiyada diaxronik markaz va chekka haqida ma'lumot berish; • sinxronik markaz va chekka haqida ma'lumot berish; • Irradiatsiya va radiatsiya haqida tushuncha berish	<b><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></b> • Diaxronik markaz va chekkani tushuntiradi; • sinxronik markaz va chekkani tushuntiradi; • Irradiatsiya va radiatsiya haqida ma'lumot beradi
<b><i>Ta'lim berish usullari</i></b>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<b><i>Ta'lim berish shakllari</i></b>	Ommaviy, jamoaviy
<b><i>Ta'lim berish vositalari</i></b>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<b><i>Ta'lim berish sharoiti</i></b>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<b><i>Monitoring va baholash</i></b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

**1.2. Arealologiyada markaz, chekka, radiatsiya tushunchalari mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi**



<p><b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko'rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.</p>
---	---	---

### 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

2.6-3 ball - «a'lo»

2.1-2.5 ball - «yaxshi»

1.5-2- ball - «qoniqarli»

0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

#### TAYANCH IBORALAR

Sinxronik markaz – ma'lum bir hodisaning keng tarqalgan va katta hududni o'z ichiga olgan mintaqa tushuniladi.

Diaxronik markaz – ayrim bir xodisaning ma'lum bir hududda shakllanganligi va shu hududdan boshqa o'lkalarga tarqalganligi tushuniladi.

Radiatsiya – ma'lum bir hodisaning mujassamlashishi, bir markazga yig'ilishi.

Irradiatsiya – ma'lum bir hodisaning undan chekkalarga tarqalishi.

### 3-ilova

#### ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O'qituvchi, T.: 1972, 5 b.

2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.

3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.

4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

## HEKKA, RADIATSIYA REJA

1. Sinxronik MARKAZ.
2. Diaxronik markaz.
3. Irradiatsiya va radiatsiya.

## AREALOGIYADA MARKAZ TUSHUNCHALARI

Areal lingvistik tadqiqotlarning o'ziga xos maqsadlaridan biri ayrim lisoniy hodisa (qonuniyat)larning qayerda shakllanganligi, vujudga kelganligini va uning tarqalish yo'llarini aniqlashdir. SHuning uchun arealogiyaning muhim tushunchalaridan biri *markaz* va *chekkadir*. **Markaz** deganda ikki hodisa tushuniladi: birinchidan, ma'lum bir hodisaning keng tarqalgan va nisbatan katta hududni o'z ichiga olgan mintaqa tushuniladi. Bu arealogiyada markaz tushunchasini sinxron tushunishdir. Jumladan, ilovadagi N.Murodova ishining 5-xaritasiga diqqat qilib qarasa, adabiy tildagi *og'iz suti* (sigir, qo'y, echki, biya kabi sog'in jonivorlar tuqqandan so'ng yelinidan olinadigan ilk sut bo'lib, u quyug va seryog' bo'ladi) *gilagay*, *dalama*, *qog'anoq*, *palla/falla*, *uvuz*, *dalama/palla*, *jak/palla* variantlari bilan (Navoiy viloyati o'zbek shevalari xaritasi asosida) Olchin, Qoracha, Galabek, Xatirchi, Olchinobod, Xonaqa, CHilosh, YAngi yo'l, Ijand kabi ulkan mintaqalariga tarqalganligini ko'ramiz. Navoiy viloyati o'zbek shevalarida *gilagay* shaklining qo'llanilish markazi deganda ana shu hududlar tushuniladi. Xaritaga qarab *qog'anoq* izoglossa markazi G'azg'on, Dehibaland, Qizilcha hududlari ekanligini aniqlash mumkin. *Dalama* izoglossasi markazi esa YAngiobod, Konimex, Telman, Arabsaroy, Beshrabort mintaqasidir. Demak, sinxronik areal markaz deganda, ma'lum bir hodisa o'ziga xos yumuq bir izoglossani tashqil etadigan mintaqa tushuniladi.

Sinxronik markaz ayni bir hodisa uchun ikki va undan ortiq ham bo'lishi mumkin. CHunonchi, 5-xarita asosida *dalama/palla* izoglossasining Qiziltepa va Toshobot kabi ikki bir-biridan ancha uzilgan markazlarini ko'rish mumkin.

Arealogiyada sinxronik markaz tushunchasiga sinxronik chekka tushunchasi qarama-qarshi turadi. CHEkka atamasi bilan arealogiyada ma'lum bir hodisaning markazdan boshqa hududlarda onda-sonda uchrashi yoki kam uchrashi xos bo'lgan mintaqa ataladi. Ilovadagi 5-xaritaga diqqat qilsak, *gilagay* izoglossasining o'z markazidan ancha g'arbda joylashgan 118, 119, 120, 136 (Bo'ston, Vang'oz) mintaqalarida uchrashini ham ko'ramiz. Mana shu hudud *gilagay* izoglossasining sinxronik chekka mintaqasi sanalishi mumkin. CHEkka arealogiyada hamisha bir nechta bo'ladi. CHunonchi, *gilagayning* chekka areali sifatida 18, 19, 20, 30, 36, 58, 60, 61 aholi punktlarini ko'rsatish mumkin. YOKi *dalama/palla* sinxronik markazi,

asosan, Qiziltepa mintaqasida joylashgani holda uning chekkalarini Toshobod, G'azg'onda uchratish mumkin.

Arealogiyada sinxronik markaz, chekka tushunchasi bilan bir qatorda diaxronik markaz va chekka tushunchalari ham mavjud. **Diaxronik markaz** deganda ayrim bir hodisaning ma'lum hududda shakllanganligi va shu hududdan boshqa o'lkalarga tarqalganligi tushuniladi. Hodisa shakllangan hudud – markaz, u yerdan tarqalgan mintaqalar chekka sanaladi. Jumladan, turkiy tillarda bir tomondan turkiy, ikkinchi tomondan forsiy va arabiy so'zlar sinonimiyasi – hodisasi (et ~ go'sht, esh ~ do'st ~ yor, kishi ~ odam va h.) O'rta Osiyoning qadimiy markaziy o'lkalari (Mahmud Koshg'ariy ta'biri bilan aytganda, So'g'd, Arg'u) mintaqasida VIII-IX asrlarda shakllandi. Saljuqiylar X-XI asrlarda g'arbga – Kichik Osiyoga (Vizantiyaga) yurish boshlagan paytida bu hodisa So'g'd, Qashqar mintaqasida shakllangan edi va «Qutdg'u bilig»da o'z aksini topgan. Ulug' tilshunos Mahmud Koshg'ariy bu haqda o'zining salbiy munosabatini ochiq-oydin ifodalab, uni qattiq qoralaydi va «*Er tatiqsa, ettunchur*» (odam totlashsa – arab yoki tojiklashsa, tabiati ayniydi) maqolini keltiradi. SHuning uchun turkiy va noturkiy (eroniy va arabiy) sinonimiya markazi ayrim tadqiqotchilar taxmin etganlaridek, saljuqiylar va usmoniylar davlati mintaqasi emas, hozirgi O'zbekistonning markaziy va janubi-sharqiy arealidir. Mahmud Koshg'ariy Koshg'ar sharqi va Tibetda xuddi shunday turkiy ~ chiniy leksik sinonimiya markazini qayd etadi. VIII asrda yashagan To'nyuquq VI-VII asrlarda Oltoy sharqida, Mo'g'uliston g'arbida, Tibet va Xitoyning shimoliy qismida xuddi shunday turkcha ~ xitoycha sinonimiya markazlari shakllanganligi haqida ma'lumot beradi.

Diaxronik markazlar qiyosiy-tarixiy tadqiqot natijalari sinxronik kesmalarda berilgan shakldagina shu kesmalarni qiyoslash asosida aniqlanishi mumkin.

**Diaxronik chekka** deganda, arealogiyada diaxronik markazdan ma'lum bir hodisaning boshqa mintaqalarda tarqalgan joylari tushuniladi. Jumladan, totor va boshqird tillarida turkiy ~ forsiy ~ arabiy sinonimiya shunday chekkalardan biridir.

O'zbek tilida turkcha ~ mo'g'ulcha sinonimiyaning uchrashi *ashchi ~ bakavul, oshpaz ~ bakavul* kabilar diaxronik markaz areali bo'lsa, buning *soqchi ~ qaravul* shakli diaxronik chekka areali sanalishi mumkin.

Turkiy tillar bo'yicha, jumladan, ot va olmoshlarning tarqalishi bo'yicha diaxronik markaz va chekkalarni aniqlash bo'yicha qilingan jiddiy tadqiqotlardan biri G.F.Blagovaning eslatilgan tadqiqotidir. Ayrim o'zbek shevalari uchun xos bo'lgan hodisalar markaz va chekkalarini aniqlash bo'yicha jiddiy izlanishlardan biri A.B.Jo'rayevning yuqorida tilga olingan tadqiqotidir.


Turkologik tadqiqotlarda arealogik izlanishlar hali tetapoya, o'zbek tilshunosligida esa endigina shakllanayotgani sababli turkiy tillar uchun xos bo'lgan hodisalarning (qorluq, o'g'uz, uyg'ur, qipchoq, qirg'iz, bulg'or, yoqut kabi guruhlarni har birining o'ziga xos fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari – izoglossalari) tarixiy markaz va chekkalarini aniqlash, bu markaz va chekkalarning turli davrlardagi mavqei hamda holatini aniqlash ishlari fanimizda endigina boshlanmoqda.

Sinxronik va diaxronik markaz va chekka tushunchalari nisbiy ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Chunki bir chekka uchun markaz bo'lgan mintaqa shu hodisa uchun boshqa bir mintaqaga nisbatan chekka bo'lishi mumkin. Masalan: hozirgi uyg'ur tili uchun (Xitoy xalq Respublikasining SHinjone avtonom respublikasi adabiy tilida) turkcha ~ ruscha leksik sinonimiya arealining markazi sifatida hozirgi o'zbek tili amalda bo'lgan hudud (areal) sanalsa, umuman turkcha ~ ruscha sinonimiya sifatida Planje (Totoriston) chiqadi. SHinjon uchun markaz sanalgan o'zbek adabiy tili Planje uchun chekkadir.

Arealogik markaz va chekka tushunchalari bilan arealogik radiatsiya va irradiatsiya tushunchalari uzviy bog'langan. Yadro fizikasidan olingan bu ikki tushuncha arealogiyada ma'lum bir hodisaning mujassamlashish, bir markazga yig'ilish (radiatsiya) va undan chekkalarga tarqalishi (irradiatsiya) ma'nolarida qo'llaniladi. Radiatsiya zonasi deganda hodisa (qonuniyat) markazi, irradiatsiya zonasi deganda shu markazdan hodisaning boshqa mintaqalarga tarqalishi tushuniladi.

Irradiatsiya (hodisa) ning tarqalish sabablari xilma-xildir: xalqlarning migratsiyasi (bir joydan boshqa joyga ko'chishi), turli xalqlar va tillarning aralashuvi hamda madaniy, iqtisodiy, diniy kabi aloqalarning bo'lishi. Tom ma'noda lingvistik arealogiyaning maqsadi ham u yoki bu hodisaning tarixiy va hozirgi markazlarini aniqlash hamda tarix, etnografiya, arxeologiya va boshqa fanlarning ma'lumotlariga tayangan holda irradiatsiya sabablarini ochib berishni sharhlashdan iboratdir.

Izoglossa markazidan hodisa, yuqorida sanab o'tilgan sabablar vositalarida, nurlanishga monand ravishda tevarak atrofga yoyiladi. 5-xaritaga e'tibor bersak, buning yorqin namunasi ko'rishimiz mumkin. CHunonchi, *gilagay* zonasi markazi Langar – Zarafshon – Qoracha – Olchinobod mintaqasi bo'lsa, u xuddi suv omboridan ikki kanal chiqqani kabi shimoli-g'arbga – Ijand, YAngiyo'l, Olchin, Beshrabort yo'nalishida va janubi-g'arbga Narpay, Uyrot, Karmana, Do'rman tomonga yoyilgan. Xaritada radiatsiyaning markazdan uzoqlashgan sari kuchining kamayib borishini ko'rish mumkin. Jumladan, shimoli-g'arbiy yo'nalishida bu kuch quyidagicha ketgan:



Janubi-g'arbiy nurlanish ikki yo'nalishda borib, Jaloyir, Navoiy zonasini aylanib o'tgan va Do'rmanda birlashgan. SHuning uchun arealogiyada fokus zonasi deganda hodisa konsepsiyasi ko'p bo'lib, boshqa mintaqalarda tarqalgan hudud tushuniladi. Jumladan, A.B.Jo'rayev bir qator o'zbek shevalarida quyida ko'rsatilgan so'zlarning fokus nuqtasi va tarqalish mintaqalarini quyidagicha ko'rsatadi.

Bu jadvaldan shuni aniqlash mumkinki, turkman tili Forob shevasida quyidagi so'zlar Buxoro shevasidan tarqalgan.



**Fokus nuqta  
Buxoro shevalari**

Satil  
Ro'pokcha  
Alvonch  
Nozbo'y  
Norbon  
Avsun  
CHaspak  
Zardoli  
Vassa  
Bachcha  
CHibin  
Tashnav  
Lablabu  
Oftoba  
Javpazak  
Dastsho'y  
Tushbera  
Inak  
Po'stak  
Po'stak

**CHorjo'y o'zbek  
shevalarida**

Satil  
Ro'pokcha  
Alvonch  
Nozbo'y  
Narvan  
Avsin  
CHaspak  
Zardali  
Vassa  
Bachcha  
CHivin  
Tashnov  
Lavlavi  
Oftoba  
Japazak  
Dassho'y  
Tushbera  
Inak  
Ushuk  
Po'stak

**Forob, Turkman  
shevasi**

Satil  
Rupokcha  
Alvonch  
Nazvay  
Narvan  
ovsun  
CHasvak  
Zardali  
Vassa  
Bacha  
CHivin  
Tashnov  
Lavlavi  
Abtava  
Jo'po'zak  
Dassho'y  
Dushverak  
Inak  
Ushuk  
Po'stak

## Savollar

1. Sinxronik markaz va chekka tushunchalarini misollar bilan izohlab bera olasizmi?
2. Diaxronik markaz va chekka tushunchalarini misollar bilan izohlab bera olasizmi?
3. Radiatsiya nima?
4. Irradiatsiya nima?

<b>5- mavzu</b>	<b>LINGVISTIK XARITA</b>
---------------------	--------------------------

### 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mintaqaviy dialektologik tavsif.</li> <li>2. Jahon tilshunosligidagi xaritalar.</li> <li>3. O'zbek shevalari atlas.</li> </ol>
<b><i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i></b>	
<p><i>A) ta'limiy:</i> Lingvistik xaritalar, jahon tilshunosligida yaratilgan xaritalar va bu borada bugungi kunda o'zbek tilshunosligida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar berish.</p> <p><i>B) tarbiyaviy:</i> yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o'rgatish;</p> <p><i>V) rivojlantiruvchi:</i> bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.</p>	
<b><i>Pedagogik vazifalar:</i></b>	<b><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mintaqaviy dialektologik tavsif haqida ma'lumot berish</li> <li>• Jahon tilshunosligida yaratilgan xaritalarni izohlab berish.</li> <li>• O'zbek tilshunosligida o'zbek shevalari atlasini yaratish borasida qilinayotgan tadqiqotlar haqida ma'lumot berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mintaqaviy dialektologik tavsif haqida ma'lumot beradi.</li> <li>• Jahon tilshunosligida yaratilgan xaritalarni izohlab beradi.</li> <li>• O'zbek tilshunosligida o'zbek shevalari atlasini yaratish borasida qilinayotgan tadqiqotlar haqida ma'lumot beradi.</li> </ul>
<b><i>Ta'lim berish usullari</i></b>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum

<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O`quv qo`llanma, ma`ruza matni, proyektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og`zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. Lingvistik xarita mavzusidagi ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<i>Tayyorgarlik bosqichi.</i>	1. Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. O`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma`ruzani o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.	
<i>1-bosqich</i> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ma`ruza mashg`ulotining mavzusini e`lon qiladi 1.2. o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova) 1.3. Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar. Berilgan savollarga javob beradi.
<i>2-bosqich</i> Asosiy bosqich (55daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Mintaqaviy dialektologik tavsif bilan areal lingvistika tahlil usullari orasidagi farqlarni tushuntirib beradi. 2.3. jahon tilshunosligida yaratilgan lingvistik xaritalar haqida ma`lumot beradi. 2.4. O`zbek tilshunosligida bu borada yaratilgan tadqiqotlar haqida ma`lumot beradi. 2.5. Bugungi kunda o`zbek shevalari atlasini yaratish bo`yicha qilinayotgan ishlar haqida ma`lumot beradi.	Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o`tkazadilar.  Ma`lumotlar daftarlarga qayd qiladilar. Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.

	<p>2.6. Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>1. Mintaqaviy dialektologik tahlilini misollar bilan tushuntirib bera olasizmi?</p> <p>2. Areal lingvistikaning qanday tahliliy usuli bor?</p> <p>3. Jahon tilshunosligida qaysi olimlar tomonidan lingvistik atlas yaratilgan?</p> <p>4. Areal lingvistika sohasida qilingan tadqiqotlar haqida ma'lumot bera olasizmi?</p>	
<p><b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko'rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.</p>

### 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

- 2.6-3 ball - «a'lo»
- 2.1-2.5 ball - «yaxshi»
- 1.5-2- ball - «qoniqarli»
- 0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

#### TAYANCH IBORALAR

**Mintaqaviy dialektologik tavsif – shevaviy farqlarni qayd qiladi va tavsiflaydi.**  
 Xaritalashtirish – arealogik tadqiqotlarning ham usuli, ham natijasidir.  
 Lingvistik atlas – til xodisalarini xaritada ko'rsatish, shuningdek shevaviy o'xshash va farqlarni o'zida aks ettiruvchi xaritalar majmuasidir.

### 3-ilova

#### ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O'qituvchi, T.: 1972, 5 b.
2. Н.З.Гаджиева. Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.

3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.

4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

## **LINGVISTIK XARITA REJA**

1. Mintaqaviy dialektologik tavsif.
2. Jahon tilshunosligidagi lingvistik xaritalar.
3. o'zbek shevalari atlas.

Arealogiyadan tavsifiy mintaqaviy dialektologiya nimasi bilan farq qiladi? «Mintaqaviy dilektologik» tavsif bilan «areal lingvistika» tahlil usullari orasidagi asosiy farqi nimada, degan savolga tilshunoslikda lo'ndagina javob mavjud. Arealogiya hodisalarni xaritada ko'rsatadi. Dialektologiya shevaviy farqlarni qayd qiladi va tavsiflaydi. SHuning uchun xaritalashtirish arealogik tadqiqotlarning ham usuli, ham natijasidir. SHuning uchun biz, lingvistik atlas, lingvistik xaritalar tuzish masalasini, bu ma'ruzamizda maxsus tahlil etayotgan bo'lsak-da, lingvistik xaritalar, lingvistik xaritalashtirish haqida 1-ma'ruzamizdan boshlab uzluksiz gapirib kelmoqdamiz. Bu haqda, biz, arealogiyaning dialektologiyadan farqi haqida gapirganda ham, izoglossalar haqida bahs yuritganda ham, izologiya markaz va chekka haqida ma'lumot berganimizda ham to'xtaldik. Buning boisi arealogiyaning istalgan turdagi muammosi xaritalashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lganligidir. Ma'lum bir mintaq (davlat, til) lingvistik atlasini tuzish arealogiyaning so'nggi maqsadidir.

Lingvistik atlas yoki dialektologik atlas deganda, ma'lum bir hudud shevaviy o'xshash va farqlarni o'zida aks ettiruvchi xaritalar majmuasi tushuniladi. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, bunday atlas geografik atlasga o'xshab bir turdagi xaritadan iborat bo'lmaydi. Dialektologik atlas yuzlab, hatto minglab xaritalarni o'z ichiga oladi. YA'ni ma'lum bir umumiy mintaq mana shu yuzlab yoki minglab xaritalarda aynan takrorlanadi. CHunonchi, qo'llanmaga ilova qiling 3-ilovaga e'tibor qiling. Bu ilovada Navoiy viloyatida urug'-qabila, millat oykonimlari (yashash joylari) 208 nuqtasi ko'rsatilgan. Faqat Navoiy viloyati o'zbek shevalarining leksik xususiyatlariga bag'ishlangan N.Murodovanning doktorlik dissertatsiyasida 100 ta xarita ilova etilgan va 4-100 -xaritalarda mana shu 3-ilovada ko'rsatilgan mintaq aynan takrorlanadi. 3-xaritani ilova etilayotgan 5-xarita bilan qiyoslasangiz bunga amin bo'lishingiz mumkin. Buning sababi shundaki, lingvistik atlasning har bir xaritasi alohida bir izoglassa asosida tuziladi. Arealogik tadqiq va umumlashirish uchun qancha ko'p tadqiq va tavsif birliklari olingan bo'lsa, xaritalar soni shuncha ko'p va lingvistik atlas shuncha mukammal bo'ladi. Jahonda eng mashhur va mukammal atlas deb XX asrning boshlarida tuzilgan Jyuljilleron (1854-1926) va Edmon (1848-1926)larning Fransiya lingvistik atlasidir. 1902-1910 yillarda tuzilgan bu atlas e'lon qilingach, tadqiqotchilar u haqda bu asar Fransiyaning lisoniy manzarasini olamga ko'rsatdi,-

deb baholagan edilar. Jyuljilleron atlasidan keyin namunaviy atlaslar sifatida nemis lingvistik atlasini sanaladi (Tuzuvchilar B.Martin, V.Mitska). Jyuljilleron atlasini VII tomdan iborat bo'lib, 1902-1912 yillarda e'lon qilingan bo'lsa, Martin lug'ati 19 tomdan iborat bo'lib, 28 yil davomida (1926-1954) chop etilgan. Qozoq tili lingvistik atlasini – 4 tomdan, Ukraina lingvistik atlasini – 3 jilddan iborat. Rus tili lingvistik atlasini tuzish ustida ishlar XX asrning 30 yillarida avj olgan bo'lsa ham nihoyasiga yetgan emas. Rus tili dialektologik atlasini tuzish uchun rus tili tarqalgan mintaqa besh zonaga bo'lingan edi. Alohida zonalar bo'yicha atlaslar e'lon qilingan bo'lsa ham (chunonchi, «Markaziy viloyatlar» va «Moskvadan sharqda joylashgan rus xalq shevalari» atlasini R.I. Avanesov tahriri ostida. Moskva 1957), shuningdek, ayrim o'lkalar bo'yicha umumlashtiruvchi atlas ham tuzilgan.

Lingvistik atlaslar tuzish ishiga ma'lum bir til yoki mintaqa shevalarining sitatik (barqaror) hududiy mintaqaviy tavsifi yakunlangandan keyingina kirishish mumkin. Chunki shundan keyingina ma'lum bir til shevalarining yoki tillar oilasi yo guruhidan u yoki bu tilning bir-biridan farq qilishiga xizmat qiladigan eng asosiy fonetik, fonologik, leksik, morfologik, sintaktik, dveratsion o'xshashlik va farqlar aniqlanadi. Har bir o'xshashlik va farqning (innovatsiyaning) qaysi hududlarda, qaysi shevalarda qo'llanilishi aniq tavsiflanadi. Shundan keyingina arealogik tadqiqotlarga va lingvistik (dialektologik) xaritachilikka kirishish mumkin.

O'zbek dialektologiyasi XX asr 60-yillarining oxiri 70-yillarning boshlarida xilma-xil dissertatsiyalar (ularning mikdori 50 dan ko'p) va tadqiqotlar natijasida shu nuqtaga ko'tarildi. Lekin tavsifiy-sitatik, mintaqaviy-hududiy dialektologiya natijalari asosida o'zbek fanida arealogik tadqiqotlar rivojlanmasligi sababli, o'zbek dialektologiyasi inqirozga uchradi. 80-90-yillar davomida esa deyarli so'ndi. Buning asosiy sababi dialektologiyaning yangi arealogik taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmaganligidir.

Lingvistik atlas nima beradi va kanday ahamiyatga ega?

Birinchidan, u ma'lum mintaqaning, jumladan, O'zbekistonimizning lisoniy manzarasini yorqin aks ettiradi.

Ikkinchidan, adabiy til me'yorlarini to'g'ri belgilashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, adabiy til xazinasini o'zbek xalqi hayoti va turmush tarzi bilan uzviy bog'liq bo'lgan minglab voqeaning hodisalari nomlarini adabiy tilga olib kirish, shu bilan adabiy til lug'at boyligini keskin oshirishga manba bo'ladi. Chunonchi, kulollarning, asosan, tandirsozlarning *shapshap* va *taptap* deb ataladigan ikki ish quroli bor. Adabiy tilda shu narsani aniq ifodalaydigan so'z yo'q. Yoki Surxondaryo, Qashqadaryo shevalarida voyaga yetgan erkak itni atovchi *arlon* so'zi mavjud. Bu so'z adabiy tilga kiritilsa, adabiy til boyiydi. Vaholanki, istalgan tavsifiy-hududiy dialektologik ishda har bir sheva bo'yicha 500 tagacha shunday so'z qayd etilgan. Lekin bu qaydlar dissertatsiyalarning ilovalarida, bugun topib bo'lmas maqolalarda qolib ketdi. Lingvistik atlas shunday so'z va hodisalarni sistemalashtirgan, ulardan qay biri qay darajada tarqalgan, qaysilari umummilliy boylik darajasida xalqqa yetkazish ma'qul ekanligi haqida aniq axborot beradigan manba bo'lardi. Lingvistik atlas til ta'limini to'g'ri yo'lga

qo'yishda, shevaviy farq va xatolarning oldini olishda, umumilliy me'yoriy adabiy tilni keng ommalashtirishda ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muhtaram Prezidentimiz prof. SH.U.Rahmatullayevga «Buyuk xizmatlari uchun» ordenini topshirish jarayonida domladan nega biz radio va televizorda ,hatto rasmiy yig'ilishlarda shevada gapirishga chek qo'ya olmaganligimiz sabablarini so'radilar. Ustoz aniq bir javob bermay, buni ko'nikma bilan izohladilar. Demak, xalqda ommaviy madaniy ko'nikma sifatida adabiy tildan foydalanish odati shakllanmagan. Demak, uning umumiy madaniy saviyasi hali jahonning ilg'or millatlari va davlatlari saviyasiga ko'tarilgan emas. Zeroki, rus, ingliz, fransuz hatto ispan va arab radio va televidiniyesida – agar maxsus uslubiy, ifodaviy maqsadlarini ko'zlamagan bo'lsa – hech qachon adabiy me'yorlarga xilof bo'lgan shakl, so'zning qo'llanilishi hech qachon yangramaydi.

O'zbek dialektologik atlasini necha xaritada iborat bo'lishi va qaysi hodisalar bo'yicha alohida xaritalar tuzish lozimligi masalasi ham hali yechilgan emas. A.SHerमतovning «Lingvistik geografiya nima?» risolasining 19-45- betlarida bir necha muammo sanab o'tilgan. Lekin ular ichida xaritalashtirish emas, ilmiy tadqiq zarur bo'lgan masalalar ham qorishtirilgan. CHunonchi, singarmonizm qonunining buzilish sabablari 19 -bet. Bunday muammo izoglossa mazmuni bo'la olmaydi. Izoglossa mazmuni bo'lib xizmat qila olishi uchun bu masala quyidagicha qo'yilishi kerak: «-im, -ing, -dim, -ding qo'shimchalarining lab unlili bo'g'indan keyin kelganda lablanishi mavjud». YOki «-imiz, -ingiz qo'shimchalarining lab unlili bo'g'indan keyin kelganda lablanishi mavjud»; «-i, -si, -di qo'shimchalarining lab unlili bo'g'indan keyin kelganda lablanishi mavjud» shaklida muayyan qo'yilishi zarur.

SHuning uchun bugungi o'zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri dialektologik izlanishlarning 70- yillarda to'xtab qolgan taraqqiyot nuqtasidan arealogik izlanishlar darajasiga ko'tarish va bu izlanishlarning samarasi o'laroq o'zbek lingvistik atlasini tuzishga jiddiy kirishishdan iboratdir.

### **Savollar**

1. Dialektologik tavsif bilan areal tavsif o'rtasidagi farqni ayta olasizmi?
2. Lingvistik xarita nima?

O'zbek dialektologiyasida dialectal atlaslar yaratilganmi?

## 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Areal lingvistika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. 2. Turkiy lisoniy atlas. 3. Umumturkiy til hodisalarining areali. 4. Umumturkiy leksik qatlam.
<i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i> A) <i>ta'limiy:</i> Turkiy lisoniy areal to'g'risida ma'lumotlar berish. B) <i>tarbiyaviy:</i> yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o'rgatish; V) <i>rivojlantiruvchi:</i> bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Areal lingvistika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma'lumot berish; • Turkiy lisoniy atlaslar haqida ma'lumotlar berish; • Umumturkiy til hodisalarining areali haqida ma'lumot berish; • Umumturkiy leksik qatlam haqida ma'lumot berish.	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Areal lingvistika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma'lumot beradi. • Turkiy lisoniy atlaslar haqida ma'lumotlar beradi. • Umumturkiy til hodisalarining areali haqida ma'lumot beradi. • Umumturkiy leksik qatlam haqida ma'lumot beradi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. Turkiy lisoniy areal mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>



<p><b>Tayyorgarlik bosqichi.</b></p>	<p>1. Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash.  2. Ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.  3. O`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.  4. Ma`ruzani o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.</p>	
<p><b>1-bosqich</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)</p>	<p>1.1. Ma`ruza mashg`ulotining mavzusini e`lon qiladi  1.2. o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova)  1.3. Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar.  Tinglaydilar.  Berilgan savollarga javob beradi.</p>
<p><b>2-bosqich</b>  Asosiy bosqich (55 daqiqa)</p>	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.  2.2. Areal lingvistika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi haqida ma`lumot berish;  2.3. Turkiy lisoniy atlaslar haqida ma`lumotlar berish;  2.4. Umumturkiy til hodisalarning areali haqida ma`lumot berish;  2.5. Umumturkiy leksik qatlam haqida ma`lumot berish.  2.6. Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.  1. Areal lingvistika fanining qaysi fanlar bilan aloqadorligi bor?  Turkiy lisoniy atlaslar deganda nimani tushunasiz? Umumturkiy lisoniy areal haqida nimalarni bilasiz?  3. Umumturkiy leksik qatlam haqida nimalarni bilasiz?</p>	<p>Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o`tkazadilar.  Ma`lumotlar daftarlarga qayd qiladilar.  Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b>  Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo`yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)  3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.  3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar.  Vazifani yozib oladilar.</p>

## 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

- 2.6-3 ball - «a'lo»
- 2.1-2.5 ball - «yaxshi»
- 1.5-2- ball - «qoniqarli»
- 0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

## 2-ilova

### TAYANCH IBORALAR

Turkiy lisoniy areal – turkiy tillar tarqalgan va amalda bo'lgan hududlar tushuniladi.

Turkiy lisoniy atlas – barcha turkiy tillarning tarqalishini umumlashtiruvchi atlas.  
Umumturkiy leksik qatlam – barcha turkiy tillarning XI asrgacha bo'lgan qatlami.

## 3-ilova

### ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O'qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

### . TURKIY LISONIY AREAL (TLA)

#### REJA

1. Areal lingvistika fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
- 2.Turkiy lisoniy atlas.
- 3.Umumturkiy til hodisalarining areali.

Turkiy lisoniy areal deganda, turkiy tillar tarqalgan va amalda bo'lgan hamda bo'layotgan hududlar tushuniladi. TLA uning hududlari turkiy tillarning dunyo bo'ylab tarqalishi va mingratsiyasi haqida ma'lumotlar sizga «Turkiy filologiyaga kirishi», «O'zbek tili tarixi», «Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi» o'quv fanlari materiallaridan ma'lum. Turkiy xalqlar va tillarning qadimgi davrlardan XIX asrning 2-yarmigacha ko'chirishlari haqida Xitoy, YUnon, Eron, Arab turkiyzabon manbalarining materiallarining umumiy tavsifini va bu haqda jahon olimlarining fikrlarining umumlashmasini akademik V.V.

Bartoldning asaridan olish mumkin (Sochineniye. V tom. Raboty po istorii i filologii tyurkskыx narodov. Red. kol. A.M. Belinskii i drugiye. Moskva «Nauka» 1968 g., st .706 ). Xususan, shu jildga kiritilgan «O'rta Osiy turkiy xalqlari tarixidan 12 ma'ruza» hamda «Turk va mo'g'ul xalqlari tarixi» asarlaridan ma'lumot olish mumkin. Birinchi asar akad. V.Bartoldning Istanbul universitetida 1926 yilda o'qigan 12 ma'ruzasi bo'lsa, ikkinchi asari buyuk olimning Toshkent oliygohlarida 1926-27 o'quv yilida o'qigan ma'ruzasining matnidir. Har ikkala asar dunyoning ko'p tillariga tarjima qilingan. Xususan, ma'ruzalar turk, nemis, fransuz, ingliz tillariga tarjima qilinib, turkiy xalqlarning migratsiyalari va tarixi bo'yicha butun dunyo olimlariga katta ta'sir ko'rsatgan. TLA va turkiy xalqlarning tarqalishi bo'yicha ishlamoqchi bo'lgan har bir turkiyshunos bu ikki asarni o'rganishi zarur. «Turkiy mo'g'ul xalqlari tarixi» asarining 1928 yilda Toshkentda bosilgan stenografik nusxasidan ko'chirma o'zbek tilshunosligi kafedrasida va universitet kutubxonasida mavjud.

O'rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O'zbekiston mintaqasida turkiy xalqlar kelgindi emas, balki qadim qadimgi davrlardan boshlab yashab kelayotgan xalqlardan biri ekanligi haqidagi fikr ham akademik V.V, Bartold tomonidan ilgari surilgan.

Eng qadimgi yozma manbalar, chunonchi, yaratilish tarixi 6-7 ming yillik bilan o'lchanadigan 1-muqaddas kitob «Tavrot» (Bibilya)da turkiy xalqlarning vatani SHimoliy Xitoy, Oltoy va Tibet hududi sanaladi. Turk-mo'g'ul xalqlari manjur xalqlari bilan birgalikda Nuhning kichik o'g'li YOfas avlodiga nisbat beriladi. Tarix qayd eta oladigan davrdan boshlab turkiyzabon areal Oltoy tog'lari markazda bo'lgan holda SHimoliy Xitoy, Mo'g'iliston, yenisey bo'ylari hozirgi Qirg'iziston, O'zbekistonning janubiy qismlari, Qozog'istonning janubiy qismlarini o'z ichiga olgan. Buni ham yodgorliklar, ham arxeologik qazilmalar, ham turli xalqlarning rivoyatlari tasdiqlaydi. Jumladan, qirg'iz xalqining (qirg'izlarning) kelib chiqishi, xususan, qirg'izlarning qadimgi urug'laridan biri bo'lgan Bug'umaral urug'ining paydo bo'lishi haqidagi rivoyat buning yorqin dalilidir. CHingiz Aytmatovning «Oq kema» asarida keltirilgan bu rivoyatga ko'ra qadim-qadimlarda yenisey bo'yida yashagan qirg'iz qabilasi qabila boshlig'i Kulcha botirni ko'mish marosimida – o'sha davr odatlariga xilof ravishda – dushmanlar tomonidan o'rab olinib batamom qirib tashlanadi. Faqat kechasi otanalaridan yashirincha qochib ketgan bir aka-singil qoladilar. Bug'u ularni qutqarib yeniseydan Issiqko'lga olib keladi. Ular shu yerda yashab qoladi. Issiqkul bo'yida yashayotgan qipchoqlar bilan turmush qurib ko'payishadi. Bu rivoyatning ahamiyatli tomoni shundaki, qirg'izlar yenisey bo'yida yashagan davrlarida Issiqko'lga qipchoqlar (turkiylar) yashagan.

Turkiy xalqlarning hozirgi O'zbekiston mintaqasida qadimiy xalqlardan biri ekanligini toponimika ham tasdiqlaydi. SHulardan biri sir/chir/shir tarkibli toponimdir. Sir/chir/shir bu O'rxun-Enisey va boshqa turkiy yodgorliklarida qayd etilgan turkiy xalqlardan birining nomidir. Buxoro shahri (deyarli barcha tarixiy manbalarida qadimiy mahalliy aholisi eroniy xalqlar deb sanaladigan hudud)ning sharqida (shahardan taxminan 5 km uzoqda) Mang'it amirilarining istirohat joyi, yozgi saroyi SHirbudun maskanida joylashgan edi. SHirbudunni xalq

etimologiyasi tojikcha *shir badan* bilan qiyoslab, *sut tan* (shir badan) shaklida talqin etadi. Aslida shirbudun turkcha *shir xalqi* demakdir. Demak, Buxorodan 4 chaqirim narida *sir* urug'iga mansub turkiy xalqlar yashagan bo'lsa, Buxoro hududida turkiy xalqlar VIII-IX asrlarda qarluqlar, uyg'urlar va undan keyin qoraxoniylar (VI-IX asrlar) bosqin natijasida kelgan deb taxmin etish amri mahol. Buxoroni Siyovush qurganligi, Samarqandni Arosiyob qurganligi haqidagi rivoyat ham bu maskanlar turkiyzabon aholi markazlaridan bo'lganligidan dalolat beradi. Zeroki, «SHohnoma»ning guvohlik berishicha, Siyovush o'z shahrini turklar o'lkasida qurgan. Afrosiyob esa eroniy shoh bo'lsa ham, turk Alp Er To'ngadir. Bu esa Buxoro, Samarqand o'lkasida turkiyzabon xalqlarning qadim-qadimdan yashab kelayotganligidan dalolat beradi. Eramizdan oldingi IV-II asrlarda turkiy xalqlarning shimolga – hozirgi Qozog'iston cho'llari, Paloje va undan yevropa – janubiy Ukraina, SHimoliy Kavkaz, Qrim, Zakarpatiya, SHarqiy yevropa, Bolqon va hatto ayrim ilg'or qismlarning Rimgacha borib yetganligi tarixiy manbalardan ma'lum. Ruslarning barcha ertaklarida qadimgi Kiyev hamisha pecheneglar xavfi bilan yashaganligi, Iliya Murmunsning o'g'lini turklar olib tarbiyalagani va Ilya bilan kurashtirgani haqidagi rivoyatlar buning dalilidir. SHuning uchun eramizning X asrlariga kelib turkiy areal yenisey bo'ylari, Oltoy, SHarqiy Sibir, Ural, Paloje, Janubiy Ukraina, Moldaviya, SHimoliy Kavkaz, Zakavkaz, qisman Bolqon mintaqalarini o'z ichiga olardi. IX-X asrlarda saljuqlar boshliq o'g'uzlarning, qarluqlar boshliq qoraxoniylar, uyg'urlar va qipchoqlar tarkibi ko'pchiligini tashkil etadigan g'aznaviylarning yurishlari turkiy areal chegarasini Hindistondan Konstantinopolgacha, Issiqko'ldan Zakavkazegacha, Turkmanistondan yaqin sharq va shimoliy Afrika, Arab o'lklarigacha kengaytirdi. Tarixiy manbalar asosida akademik V.Radlovning fikrlariga ko'ra XI-XIV asrlarda Bog'dod va Misr hukmdorlarining ko'pchiligi etnik kelib chiqishi jihatidan turkiy xalqlardan bo'lgan. XII-XVI asrlarda, dastlab CHingizxon va Botuxon, keyin Amir Temur va usmonlilarning yevropa, YAqin SHarq, Misrga yurish ikki buyuk imperiya – Amir Temur va usmoniy imperiyasining Appenindan (SHimoliy Italiya) Mo'g'ulistongacha, Misrdan Palovniyagacha yoyilishi turkiy arealni SHimoliy Afrikadan hozirgi Fransiya chegaralarigacha, undan Uzoq SHarqqacha, Misrdan Moskvagacha kengaytirdi. Mana shu ulkan mintaqaning barchasida turkiy xalqlar va ularning tillari ta'sirini hozirgi kunda ham ko'rish mumkin.

Mana shu ulkan mintaqani o'z ichiga olgan hududda turkiy xalqlarning qirg'iz, bulg'or, qarluq, uyg'ur, qipchoq, o'g'uz kabi toifalariga mansub turkiy xalqlarning ajdodlari tarqalgan. Tilshunoslikda bu olti toifaning har biri uchun xarakterli bo'lgan fonetik va morfologik o'ziga xosliklar ajratilgan.

SHuni hamisha yodda tutish kerakki, turkiy xalqlar va ularning tillari bir-biriga yaqin bo'lganligi sababli hamisha qadimgi davrlardan XIX asrning oxirlarigacha o'zaro katta qorishuvda bo'lgan. VII asrdan XIX asrgacha bo'lgan davrda turkiy xalqlarning o'zaro qorishuvlari tarixiy manbalarda O'rxun- yenisey yozuvlaridan boshlab Bobiru Abulg'ozixon va rus sayyohlarining hamda geograflarining asrlarigacha qayd etilgan. SHuning uchun yuqorida sanalgan bir toifaga xos xususiyatni ozmi- ko'pmi boshqa toifaga nisbat beriladigan tillarida (shevalarida) uchratish mumkin. SHuning uchun turkiy xalqlarning kelib chiqishi

etnogenezi, ularning migratsiyalarini, o'zaro qo'shilishlarini aniqlash uchun turkologik, areologik tadqiqotlarga juda katta ehtiyoj mavjud. Bunday arealogik tadqiqotlar har bir izoglassaning markazi, turi va irradiatsiyasi aniqlanguncha u yoki bu mintaqada XIX asrdan keyin muqimlashib qolgan. Turkiy xalqning etnogenezi haqida aniq ma'lumot ayta olmaymiz. Turkiy xalqlarning o'zaro aralashuvi juda kuchli bo'lgan. SHuning uchun turkiyshunoslikda arealogik tadqiqotlarga ehtiyoj juda katta. Arealogik tadqiqotlar amalga oshirilib, turkiy areal atlas tuzilgach, har bir turkiy mintaqaning yozma yodgorliklari qayd etolmagan uzoq tarixi haqida so'z yuritish mumkin. Bir hodisani olib ko'raylik. Umumturkiy «q» orqa qator unlilardan oldin kelgan holatda bulg'or tillarida «g'»ga o'tadi. Umumturkiy auslaut bo'g'in oxiridagi «r» bulg'or guruhida «z»ga o'tadi. SHu asosda umumturkiy «qiz» chuvash tilida «xir» shaklida ega bo'ladi. Lekin o'tkazmoq/o'tkarmoq, emizmoq/emirmoq shakllarini o'zbek shevalarida ham uchratamiz. SHuningdek, umumturkiy «y»ning so'z o'rtasida «r» ga o'tishi ham bulg'or tillari guruhiga xos. Masalan: *ayaq - ura*. Lekin sarg'aymoq/sarg'armoq, telbaymoq/telbarmoq, qoraymoq/qararmoq hodisasini o'zbek yozma yodgorliklarida va shevalarida uchratish mumkin. Bunday hodisalar sharhi arealogik tadqiqotlar ma'lum bir taraqqiyot nuqtasiga ko'tarilgandan keyingina tushuntirilishi, ularning sabablari ochilishi mumkin. Bunday muammolar turkiy shevada yuzlab uchraydi. Biz ularning barchasini sanab o'tolmaymiz. Keng qamrovli arealogik tadqiqotlar yana kanday muammolarni o'rtaga qo'yishini tasavvur qila olmaymiz. CHunki bir muammoning yechimi yetti yangi kutilmagan muammoni o'rtaga qo'yadi. Namuna sifatida shunday muammolarning ikkitasi haqida bu o'quv fanimizda to'xtalib o'tamiz. Bular turkiy tillarda «o» lanish va singarmonizm masalalaridir. Bu ikki muammoni tanlashimiz bejiz emas. CHunki turkiy tillar silsilasida o'zbek tilining eng xarakterli xususiyatlari nima, degan savolga turkiy shevalar shu ikki xususiyatni «o»lovchi singarmonizmsiz til ekanligini qayd etadi. Biz «o»lanish va singarmonizmsizlik o'zbek tilining zotiy xizmatimi yoki boshqa narsami, degan savolga javob berishga harakat qilamiz.

### Savollar

1. Areal lingvistika qaysi fanlar bilan aloqador?
2. Nechanchi asrlar umumturkiy leksik qatlamni o'z ichiga oladi
3. Turkiy lisoniy areal tushunchasini izohlay olasizmi?

7-  
mavzu

## “O”LANISH MUAMMOSI

### 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Turkiy tillarda "o"lanish hodisasi 2. Arab va eron tillarida "o"lanish hodisasi 3. O'zbek tilida "o"lanish hodisasi
<b>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</b> A) <i>ta'limiy</i> : "O"lanish hodisasi haqida magistr'larga ma'lumotlar berish. B) <i>tarbiyaviy</i> : yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o'rgatish; V) <i>rivojlantiruvchi</i> : bilimlarni kengaytirish bilan magistr'larni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b> • Turkiy tillarda "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot berish. • Arab va eron tillarida "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot berish. • O'zbek tilida "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot berish.	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b> • Turkiy tillarda "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot beradi. • Arab va eron tillarida "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot beradi. • O'zbek tilida "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot beradi.
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Ommaviy, jamoaviy
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. "O"lanish muammosi mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<b>Tayyorgarlik bosqichi.</b>	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma'ruzani o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	

<p><b>1-bosqich</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)</p>	<p>1.1.Ma’ruza mashg’ulotining mavzusini e’lon qiladi 1.2. o’quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova) 1.3.Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar. Tinglaydilar. Berilgan savollarga javob beradi.</p>
<p><b>2-bosqich</b> Asosiy bosqich (55daqiqa)</p>	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo’yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Turkiy tillardagi “o”lanish hodisasi bilan tanishtiradi. 2.3. “o”lanish hodisasi bilan tanishtiradi. 2.4. Arab va eron tillarida “o”lanish hodisasi haqida ma’lumot beradi. 2.5.O`zbek tilida “o”lanish hodisasi haqida ma’lumot beradi. 2.6. Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi. 1. “o”lanish hodisasi nima? 2. Turkiy tillardagi “o”lanish hodisasini misollar bilan tushuntira olasizmi? 3.Arab va eron tillarida “o”lanish hodisasi qanday yuz bergan? 4.O`zbek tilida “o”lanish hodisasi qanday yuz bergan?</p>	<p>Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o`tkazadilar.  Ma’lumotlar daftarlarga qayd qiladilar. Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo’yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova) 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.</p>

### 1-ilova

**Har bir ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:**

2.6-3 ball - «a’lo»

2.1-2.5 ball - «yaxshi»

1.5-2- ball - «qoniqarli»

0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

## TAYANCH IBORALAR

“O”lanish – umumturkiy keng orqa qator lablanmagan unlining yarim lablangan keng orqa qator unliga o`tishi.

Umumturkiy – barcha turkiy tillarga oid hodisalar.

Turkiy areologiya – ma`lum bir hodisaning qirg`iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq va boshqa turkiy tillarda hududiy tarqalishi.

## ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O`qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O`zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

## «O»LANISH MUAMMOSI REJA

1. Turkiy tillarda “O” lanish hodisasi.
2. Arab va eron tillarida “O” lanish hodisasi.

«O»lanish deganda, umumturkiy keng orqa qator lablanmagan unlining yarim (sal) lablangan keng orqa qator unliga o`tishi, ya`ni lablanmagan unlining ma`lum darajada lablanish hodisasiga aytiladi. CHunonchi: at-ot, ata-ota, baba-bobo. Turkiy tillar orasida umumturkiy «a»ning «o»ga o`tishi bizning tilimizda (o`zbek tilidan) eng keng tarqalgan. Lekin bu «a»ning «o»ga o`tishida qat`iy va buzilmas qoida 3 tadir. Lab-lab «v» va chuqur til orqa «q» dan oldin kelgan «a» muntazam ravishda «o»ga o`tadi. Masalan: oq-aq, sana-sanoq, qayra-qayroq, yara-yaroq; -v qo`shimchasi «a» unlisi bilang tugagan so`zlarga qo`shilganda «a» «o»ga o`tadi: so`ra-so`rov, sayla-saylov; «a» ning «o»ga o`tishi «g`» dan oldin ham uchraydi; yarog`, bog`, tog`, sog`, chog`... SHu uch holatdan tashqari umumturkiy



«a»ning o'zbek tili va shevalarida «o»ga o'tishida qat'iy qonuniyat yo'q. O'zbek adabiy tilida «o» bilan talaffuz etiladigan so'zlar qarluq-uyg'ur shevalarining o'zida «a»li variantga, shevadagi «o»li so'zlar adabiy tilda «a»li shaklda kelishi mumkin: adabiyda *bola* – sheva *bala*, *qora* – *qaro*, *olma* – *alma*, *anor* – *onor*... Shevalarda *oka*, *kotta* adabiy tilda *aka*, *katta* kabilarda «a»ning «o»ga o'tish sabablari turkiyshunoslikda haligacha muammodir. Bir qism tadqiqotchilar «o»lanishni eroniy tillar ta'siri deb baholashsa (chunonchi, ye. Polivanov, A.K. Borovkov), ko'pchilik turkiyshunoslar, jumladan, A.K. Borovkovning o'zi ham, «o»lanish yuqorida ko'rib o'tilganidek, akkomadatsiya – lablangan va chuqur til orqa undoshlarning ta'siri ostida shakllangan, degan taxmini oldinga suradilar. Turkiy arealogiyada, jumladan, N.Z. Gadjiyeva, N.A. Baskakov tadqiqotlarida «o»lanish markazi hozirgi o'zbek tili lisoniy areali sanalsa-da, birinchidan, «o»lanish – «a»ning «o»ga o'tishi – o'zbek shevalarining o'zida yuqorida ko'rib o'tganimizdek bir xil emas. Ikkinchidan, bu hodisa o'zbek tili bilan yondosh bo'lgan qirg'iz, turkman, qozoq, qoraqalpoq tillarining shevalarida ham, o'zbek tili bilan hech qachon bevosita aloqada bo'lmagan ozarbayjon tili, xususan, Boku shevasida, G'arbiy Sibir totor shevalarida, SHimoliy Kavkazdagi karachay, bolqar va qo'miq tillarida, totor tilida, boshqird tilida bundan tashqari paradik ravishda chuvash shevalarida ham uchraydi. SHuning uchun akademik A.N. Kononov ««o»lashish faqat o'zbeklargagina xos emas va hamma o'zbeklar ham «o»lamaydi. Bundan tashqari barcha turkiy «o»lovchilarda «o»lash bir xil emas», -degan fikrni oldinga surgan. Haqiqatan ham, V.V. Reshetov o'zining «Uzbekskiy yazыk» kitobida o'zbek tili shevalarida 3-4 xil «o» tovushi borligini tavsiflagan. Demak, o'zbeklar «o»si ham bir xil emas. SHuningdek, totor, qo'miq, qarachay va boshqa tillardagi «o» ham bir-biriga o'xshash emas. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, turkiy tillarda «a» qaysi holatlarda «o» lanadi va qaysi holatlarda «o» lanmasligini belgilovchi qat'iy qonuniyat mavjud emas. «O» tovushi mavjud bo'lgan tillarda «o» bilan talaffuz etiladigan so'z ikkinchi bir turkiy tilda «a» shaklida uchraydi. Turkiy arealogiyaning hozirgi holatida «o»lanish markazi o'zbekzabon areal sanalishiga qaramay «o»lanish hodisasi o'zbekzabon markazdan Sibir, Paloje, SHimoliy Kavkaz va Zakavkazega tarqalgan, deb arealogiya nuqtai nazaridan xulosa chiqarish mutlaqo noto'g'ridir. CHunki o'zbekzabon arealdan bu mintaqalarga migratsiya ham, kuchli ta'sir ham hech qachon bo'lmagan. Akademik A.N. Kononov ma'lumotiga qaraganda, qadimgi turkiy (ehtimol qarluq toifasiga mansub) xalqlarning katta bir bo'linmasida «a»ning «o»ga o'tish hodisasi qat'iy qonuniyat bo'lgan. Tarixiy yozma yodgorliklarda qayd etilgandan ancha oldin bu qabila (bo'linma) parchalanib turli toifalarga bo'linib ketgan. Nisbatan kattaroq qismi hozirgi o'zbek xalqi tarixiy asosiga, ayrim-ayrim namoyondalari ozmi-ko'pmi boshqa turkiy xalqlarning tarixiy asosidagi tarkibiga kirgan. SHuning uchun «o»lanish siporadik (uzuq yuluq) shaklda xilma-xil sheva va tillarda uchraydi. Hozircha turkiyshunoslikda «o»lanish hodisasi qaysi fokus zonadan («o»lanishni tarqalish markazidan) qaysi yo'nalishlarga yo'nalganligi muammoli bo'lib qolmoqda. CHunki «o»lanishning sixronik markazi, keng tarqalgan mintaqasi o'zbekzabon areal tarixiy markaz vazifasini hech qachon bajarmagan. Tabiiyki, okkomadativ «o» (ya'ni lab va chuqur til orqa undoshlari ta'siri ostida

«a»ning lablanishi) turkiy tillarda mustaqil ravishda har bir tilda (lahjada) alohida-alohida ko'rinishda shakllangan va rivojlangan bo'lishi mumkin. Turkiy sheva va tillarda «o»ning bir xil emasligi, ehtimol shu bilan – «o» tovushining tillarda har bir til uchun o'ziga xos qonuniyat asosida rivojlanganligi bilan izohlanishi mumkin bo'lsa kerak.

«O»ning kelib chiqish manbai sifatida qadimgi turkiy birlamchi cho'ziq «a» manba bo'lgan degan faraz ham mavjuddir. Haqiqatan ham «o»lanish keng tarqalgan o'zbek tilida «o», eksperimental fonetistlar Ahmadjon Mahmud, Sora Otamirzayeva tadqiqotlariga ko'ra, barcha bo'g'inlarda cho'ziq talaffuz qiladi. Cho'ziqlikning kamayishi jihatidan o'zbek tili unlilari quyidagi darajalanish qatorini tashkil etadi: o→o'→e→a→u→i.

Bundan tashqari arab va eron tillaridagi cho'ziq «a» o'zbek tilida muntazam ravishda «o»ga o'tadi: Allah-Oллоh, kitab-kitob, katib-kotib... Lekin arabcha qisqa «a»ni ham o'zbek tilida «o»ga o'tish holatlari oz emas: Allah-Oллоh, avqat-avqot, alov-olov-olav. Lekin bu faraz ham e'tirozga o'rin qoldiradi. Zeroki, «o»lanishning manbaini qadimgi turkiy birlamchi «a» bo'lganda, bu «a» «o»lanish xususiyatga xos bo'lgan til va shevalarning barchasida «o»ga o'tishi lozim edi. Vaholanki, ahvol bunday emas. Jumladan: a:d, a:y kabi qadimgi birlamchi cho'ziq «a»li so'zlar muntazam ravishda «o»lovchi til va shevalarda «o»ga o'tmaydi. Bu hodisani XI asrdayoq Mahmud Koshg'ariy qayd etgan edi. U ikki alif bilan berilgan *az*, *al*, *at* kabi so'zlarni qattiq va qisqa talaffuz qilish ma'qul deb alohida ta'kidlagan. SHuning uchun «o»lanish turkiy tilshunosning ham tarixiy fonetikasi, ham arealogiyasining chigal muammolaridan bir bo'lib qolaveradi.

Endi bir-ikki og'iz so'z turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida «o»lanish hodisasi qo'shni eroniy til ta'sirida yuzaga kelgan, degan talqin yuzasidan. Gap shundaki, «o»lanishni boshqa bir tilning ta'siri deb baholash (o'zbeklarga tojiklarning ta'siri, totor va boshqirdlarga rus «o»lovchilarining ta'siri va x.k.) muammoni kasal boshdan sog'lom tanga to'ntarishdan boshqa narsa emas. CHunki, eroniy tillar ichida tojik tilining o'zi «o»lovchidir. Bu hodisa eronshunoslikda xuddi turkiyshunoslikda bo'lgani kabi o'zbeklarga to'ntariladi. Lekin eron tillaridagi (ularning tiliga o'zlashgan arabiy so'zlardagi) cho'ziq «a»ni (alif mamdudani – maddali alifni) o'zbek tilida «o»ning boshqa unlilardan ko'ra sal cho'ziqligi asosida, arab va fors tillaridagi cho'ziq «a»ning muntazam ravishda «o» bilan berish o'zbek tilida «o»lanishning keng tarqalishiga mos bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin bu o'zbeklarda «o»lanish eroniy va arab tilining ta'siri deb aytishga asos bo'la olmaydi.

### Savollar

1. "o"lanish hodisasi nima?
2. Turkiy tillardagi "o"lanish hodisasi o'xshaydimi
3. Arab va eron tillarida "o"lanish hodisasi qanday?

## 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Fonetik hodisalarining uyg'unligi 2. Hozirgi turkiy til tillarda singarmonizm 3. Qadimgi turkiy yozuvlarda "o"lanish hodisasi.
<i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i> <i>A) ta'limiy:</i> Turkiy tillarda jumladan o'zbek tilida singarmonizm hodisalar haqida batafsil ma'lumotlar berish. <i>B) tarbiyaviy:</i> yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o'rgatish; <i>V) rivojlantiruvchi:</i> bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Fonetik hodisalarning uyg'unligini tushuntirib berish. • Turkiy tillarda singarmonizm haqida ma'lumot berish. • O'zbek tilida singarmonizm haqida ma'lumot berish. • Qadimgi turkiy yozuvlarda "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot berish	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Fonetik hodisalarning uyg'unligini tushuntirib beradi. • Turkiy tillarda singarmonizm haqida ma'lumot beradi. • O'zbek tilida singarmonizm haqida ma'lumot beradi. • Qadimgi turkiy yozuvlarda "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot beradi.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. "Singarmonizm" mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<b>Tayyorgarlik bosqichi.</b>	<p>1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2. Ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.</p> <p>4. Ma'ruzani o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.</p>	
<b>1-bosqich</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini e'lon qiladi</p> <p>1.2. o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova)</p> <p>1.3. Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p> <p>Berilgan savollarga javob beradi.</p>
<b>2-bosqich</b> Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Fonetik hodisalarning uyg'unligi haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.3. Turkiy tillarda singlarmonizm haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.4. O'zbek tilida singlarmonizm haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.5. Qadimgi turkiy yozuvlarda "o"lanish hodisasi haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.6. Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>1. Fonetik hodisalarning uyg'unligi nima? Misollar bilan tushuntirib bering.</p> <p>2. Turkiy tillarda singlarmonizm hodisasi qanday ko'rinishga ega?</p> <p>3. O'zbek tilida singlarmonizm hodisasi mavjudmi?</p> <p>4. Qadimgi turkiy yozuvlarda "o"lanish hodisasi yuz beradi?</p>	<p>Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o'tkazadilar.</p> <p>Ma'lumotlar daftarlarga qayd qiladilar.</p> <p>Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

	baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	
	3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga vazifa qilib topshiradi.	

### 1-ilova

#### Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:

- 2.6-3 ball - «a'lo»
- 2.1-2.5 ball - «yaxshi»
- 1.5-2- ball - «qoniqarli»
- 0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

#### TAYANCH IBORALAR

Singarmonizm – so`zning o`zagidagi unli va undoshlarga qo`shimchalardagi unli undosh fonemalarning kontakt va distant usulida moslashishi, uyg`unlashishi. Turkiy tillarda labial garmoniya qo`shimchalardagi keng (“a”, ”e”) unllarning singarmonizm ta'sirida lablangan (“u”, ”o”) singarmonistik variantlariga ega bo`lishi.

### 3-ilova

#### ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O`qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

#### SINGARMONIZM

##### REJA

1. Fonetik hodisalarning uyg'unligi.
- 2.Hozirgi turkiy tillarda singarmonizm.
- 3.Qadimgi turkiy yozuvlarda “O”lanish hodisasi.

Fonetik hodisalarning mohiyatan progressiv distant assimlyatsiya turiga kiradigan singarmonizm (so`zning o`zgidagi unli va undoshlarga qo`shimchalardagi unli va undosh fonemalarning kontakt va distant usulida moslashishi, uyg`unlashishi) barcha turkiyshunoslarning yakdilona fikriga ko`ra turkiy tillarning zotiy (ontologik, tabiatan xos) fonetik hodisasidir. Turkiy tillarda singarmonizmning unllilar garmoniyasi va undoshlar garmoniyasi kabi ikki asosiy

turi ajratilib, undoshlar garmoniyasi o'z davri til oldi undoshlar garmoniyasi va til orqa undoshlar garmoniyasiga, unlilar garmoniyasi esa palatal-veliyar hamda labial garmonyalarga bo'ysunadi. Turkiy lisoniy olamda tovushlar garmoniyasining yuqorida sanalgan turlarining tarqalishi bir xil emas. Singarmonizmning ta'sir kuchi bo'yicha asosiy turkiy tillarda singarmonizm ta'sirining pasayib borishiga ko'ra quyidagi darajalanish sirasini tuzish mumkin: yoqut tili → qirg'iz tili → xakas tili → oltoy tili → qozoq tili → totor tili → turkman tili → turk tili → ozarbayjon tili → uyg'ur tili → o'zbek tili.

Demak, bu ro'yxatdan ko'rinib turibdiki, zanjir boshida yoqut tili tursa, uning so'ngida o'zbek tili turadi. YOqut tilida juda ko'p morfologik qo'shimchalar (16 singarmonistik variantda) uchraydi. Masalan: *-lar* ko'plik qo'shimchasining *-lar/-ler*, *-nor/-nər* (d'onnor (odamlar)), *tar/ter* (кыргыттар (qizlar)), *-tor/-tər* (xotuttar (hurmatli ayol)), *-lor/lər* (borolor (bo'rilar) kabi variantlari mavjuddir.

Qirg'iz tilida unlilar va undoshlar garmonyasining yuqorida sanalgan har beshala turini ko'rish mumkin. SHunga muvofiq ravishda *-lar* ko'plik qo'shimchasi qirg'iz tilida 12 singarmonistik ko'rinishga ega (*-lar/-ler*, *-dar/-der*, *-tar/-ter*, *-lor/-lər*, *-dor/-dər*, *-tor/-tər*). Tushum kelishi qo'shimchasi bu tilda 12 (*-ni/-ны*, *-ny/-nu*, *-di/-ды*, *-dy/-du*, *-ti/-ты*, *-ty/-tu*) va chiqish kelishigi qo'shimchasi 8 (*-dan/-tan*, *-den/-ten*, *-don/-ton*, *-dən/-tən*); fe'l yasovchi *-la* qo'shimchasi 12 (*-la/-le*, *-da/-de*, *-ta/-te*, *-lo/-lə*, *-lu/-ly*) singarmonistik variantga ega. Zanjirning oxirida turgan o'zbek tili qo'shimchalarda singarmonistik variantlar jarangli undosh bilan boshlanuvchi qo'shimchalarda ikkitadan (yoddi/yotti), g-g' bilan boshlanuvchi qo'shimchalarda 3 tadan (boqqa, elakka, yerga; chiqqan, ekkan, tergan) oshmaydi.

Singarmonizm turkiy tillarda eng qadimgi fonetik hodisadir. U yoqut va qirg'iz tillarida to'liq saqlangan va o'zbek tilida yo'qolganmi? YOki yoqut va qirg'iz tillarida hozirgi holatdagi yuksak taraqqiyot cho'qqisiga ko'tarilib, o'zbek tilida rivojlanmay qolganmi?-degan savolga turkiyshunoslik hali uzil-kesil aniq bir javob bera olmaydi. Agar uzoq yozuv an'anasiga ega bo'lmagan yoqut, qirg'iz, xakas, qozoq kabi tillarda singarmonizm kuchli rivojlanganligini va uzoq yozuvli uyg'ur, o'zbek, turk, ozarbayjon kabi tillarda bu hodisa ancha kam tarqalganligini hisobga olsak, singarmonizm turkiy tillar uchun nisbatan keyingi hodisa sifatida qayd etilishi mumkin. Uzluksiz yozuv an'anasiga ega bo'lgan tillarda jonli tildan ko'ra barqaror xislati ko'proq bo'lgan yozma adabiy til uyg'ur, o'zbek kabi tillarda singarmonizm rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Uzluksiz yozma adabiy til an'anasiga ega bo'lmagan yoqut, qirg'iz kabi tillarida esa jonli so'zlashuv tili erkin rivojlanib singarmonizmni hozirgi taraqqiyot nuqtasiga ko'targan deb ham taxmin etish mumkin. Turkiy tillar tarixiga qancha chuqurlasha borsak, singarmonizm mavqeyining o'tmishda hozirgidan ko'ra (o'zbek tili tarixi mustasno) zaiflashib borayotganligini ko'ramiz. Turk, ozarbayjon, totor tillari tarixi va o'rxun-enesey yozma yodgorliklari tili tarixi buning yorqin dalilidir. Eski turk (usmonli turk) va eski ozarbayjon (ozariy) turkiylarida singarmonizm hozirgi turk va ozarbayjon tillaridan ko'ra (xususan, unlilarning lab garmoniyasi) ancha zaifdir.

Hozirgi turkiy tillarda singarmonizmning holati bo'yicha sharqiy xun tarmog'iga mansub bo'lgan yoqut, xakas, oltoy tillari mintaqasida singarmonizmning markaziy hududi qirg'iz tili o'lkasini (u markazdan migratsiya asosida hosil bo'lgan) bir orol sifatida ko'rish mumkin bo'lardi. Lekin yenesey, Oltoy va G'arbiy Mo'g'iliston mintaqalarida joylashgan qadimgi turkiy yozuvlar VII-VIII asrlar uchun bu mintaqani singarmonizmning tarqalish areali markazi ekanligini inkor etadi. Zeroki, qadimgi turkiy yodgorliklarda bir muncha ustivor garmoniya unlilarning tanglay (palatal-velyal – qattiq va yumshoq tovushlar) garmoniyasidir. U ham yozma yodgorliklarida tez-tiz buzilib turadi. Lab garmoniyasi esa qadimgi turkiy tilda juda kam rivojlangan. SHuning uchun singarmonizm bobida sinxronik arealogik tadqiqotlar juda ko'p hollarda qiyosiy-tarixiy (kompralingvistik) tadqiqotlar xulosasi bilan zid keladi.

Qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar turkiy tillarda labial garmoniya, xususan, qo'shimchalardagi keng «a», «e» unlilarning singarmonizm ta'sirida lablangan «u», «o'» singarmonistik variantlariga ega bo'lishi va kenglik-torlik garmoniyasi hamda undoshlarning garmoniyasi nisbatan keyingi hodisa ekanligi haqida xulosa chikarishni talab qiladi. Buning yorqin dalillaridan biri qirg'iz tilining o'sh shevalarida ko'rinadi. Qirg'iz tilining qator shevalarida kenglik-torlik garmoniyasi umuman yo'q. SHuning uchun lablangan keng «o'» qo'shimchalarda mutlaqo uchramaydi va hamisha tor «u»ga almashinadi. Qirg'iz tilining qator shevalarida tor unlili qo'shimchalarning ham singarmonistik variantlarda kelishi keyingi yopik bo'g'inda kelishi uchraydi. CHunonchi: ko'zum, ko'zung, ko'zi.

Turkiy tillarning qiyosiy tarixini o'rganish tanglay garmoniyasi turkiy tillar uchun qadimgi xususiyat ekanligini ko'rsatib turgan bo'lsada, tanglay garmoniyaning undoshlar asosida voqelanishi, ya'ni tilda qattiq va yumshoq undoshlar fenologik ahamiyatli bo'lib, unlilar undoshlarning qattiqlik va yumshoqligiga moslashganmi yoki aksinchami turkiyshunoslik aniq javob bera olmaydi. Qadimgi turkiy til, xususan, qadimgi turkiy yozuv va unda qattiqlik-yumshoqlik bilan o'ndan ortiq undoshning grafik farqlanishi; qadimgi turkiy yozuvda, ko'p hollarda, unlilarning yozilmasligi; qadimgi turkiy tillarda barqarorlik va ustivorlikka undoshlar ega bo'lganligi; unlilar undoshlarga moslashishi; turkiy toifalararo keng, tor, lablangan, lablanmagan unlilarning keng iste'molda bo'lish darajasiga ko'ra ixtisoslashish (ya'ni bir toifa tilda keng unlilar ikkinchisida tor unlilar, birida lablangan unlilar, ikkinchisida lablanmagan unlilar) keng qo'llanilganidan dalolat beradi. Hozirgi turkiy tillarda o'zaklarda keng va tor unlilarning almashinuvi (chunonchi: yig'lamoq-ig'lamoq, yag'lamoq-ag'lamoq, yig'och-yag'och, il-al (qiyoslangan: ilgari va olg'a), ildam va oldin) shundan darak bersa kerak. «O»lanish hodisasi qaysi bir toifagadir xos bo'lib, qadimgi davrlardayoq parchalanib, juda ko'p turkiy toifalar tarkibiga kirib ketganidek, bu toifalar ham (singarmonizmli toifalar) boshqa toifalarga singib ketgan. Aralashish natijasida so'zlarning fonetik variantlari yuzaga kelgan. Variantlar esa polisemantik sememalarning ayrim birlari bilan birlashishiga imkoniyat bo'lganligi sababli (*almoq~ilmoq* kabi variantlar) mustaqil leksemalarga ajralib ketgan.

O'zbek tilida g'-g, q-k qattiq va yumshoq undoshlari orasida fenologik farqning saqlanganligi bu tilda undoshlardagi qattiqlik va yumshoqlik fonologik farqning to'liq yo'qolishiga monelik

qilgan. Natijada unlilarda qattqlik va yumshoqlik farqlanishining fonologik farq darajasiga ko'tarilishiga, tanglay garmoniyasining shakllanib keng rivojlanishiga to'sqinlik qilgan. Turkiy tillarning qadimgi davrlardan hozirgi davrlargacha bo'lgan taraqqiyoti turkiy tillarda dastlab qattiq va yumshoq undoshlar orasidagi fonologik farq asosida so'z shakllarida undoshlarning tanglay garmoniyasi mavjud bo'lib, unlining old yoki orqa qator bo'lishi yondosh undosh tabiati bilan belgilanganligi; keyinchalik esa qator bo'yicha farqlanish undoshlardan unlilarga o'tganligi turkiy tillarda fonologik farqqa ega bo'lgan 4 juft (a/ə, ы/i, u/γ, o/ə) unli fonologik sistemaning shakllanishi undoshlardagi qattiq-yumshoqlik fonologik farqning yo'qolishiga olib kelgan. O'zbek tilida, ehtimol, eroniy va semik tillar ta'siridan g'-g, q-k undoshlarida fonologik farqning saqlanishi bu hodisaning yakunlanishi va o'zbek tilida singlarmonizm rivojlanishiga monelik qilgan bo'lishi mumkin.

### Savollar

1. Fonetik hodisalarning uyg'unligi nima?
2. O'zbek tilida singlarmonizm singlarmonizm hodisasini misollar bilan izohlab bera olasizmi?
3. Turkiy tillarda singlarmonizm hodisasi qanday ko'rinishga ega?

<b>9- mavzu</b>	<b>AREAL TILSHUNOSLIKNING TUSHUNCHAVIY TERMINLARI</b>
---------------------	---

#### 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar	
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza	
<i>Ma'ruza rejasi</i>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Lingvistik geografiya</li> <li>2. Dialektologiya – tilshunoslikning bir sohasi</li> <li>3. O'zbek tilining dialektologik atlasini yaratish</li> <li>4. Arealogiyada qo'llanuvchi tushunchaviy terminlar.</li> </ol>	
<i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i>		
<p>A) <i>ta'limiy:</i> Areal tilshunoslikning tushunchaviy terminlari haqida ma'lumot berish.</p> <p>B) <i>tarbiyaviy:</i> yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o'rgatish;</p> <p>V) <i>rivojlantiruvchi:</i> bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.</p>		
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>	
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Lingvistik geografiya haqida ma'lumot berish.</li> <li>• Dialektal terminlar haqida ma'lumot berish.</li> <li>• Arealogiyada qo'llanuvchi tushunchaviy terminlar haqida</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Lingvistik geografiya haqida ma'lumot beradi..</li> <li>• Dialektal terminlar haqida ma'lumot beradi.</li> <li>• Arealogiyada qo'llanuvchi tushunchaviy terminlar haqida ma'lumot beradi.</li> </ul>	



ma'lumot berish.	
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. Areal tilshunoslikning tushunchaviy terminlari mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<i>Tayyorgarlik bosqichi.</i>	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma'ruzani o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
<i>1-bosqich</i> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini e'lon qiladi 1.2. o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova) 1.3. Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar. Berilgan savollarga javob beradi.
<i>2-bosqich</i> Asosiy bosqich (55daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Lingvistik geografiya haqida ma'lumot beradi. 2.3. Dialektal terminlar haqida ma'lumot beradi. 2.4. Arealogiyada qo'llanuvchi tushunchaviy terminlar haqida ma'lumot beradi. 2.6. Magistrlar bilimlarini faollashtirish va	Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o'tkazadilar. Ma'lumotlar daftarlarga qayd qiladilar. Magistrlar berilgan savollarga javob

	<p>mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>1. Dialektal terminlarni misollar orqali tushuntira olasizmi?</p> <p>2. Areologiyada qanday terminlar qo`llaniladi?</p> <p>3. Areal tadqiqot deganda nimani tushunasiz?</p> <p>4. Lingvistik geografiya nima?</p>	beradilar.
<p><b>3-bosqich</b></p> <p>Yakuniy bosqich</p> <p>(10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo`yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

### 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:**

- 2.6-3 ball - «a'lo»
- 2.1-2.5 ball - «yaxshi»
- 1.5-2- ball - «qoniqarli»
- 0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

#### TAYANCH IBORALAR

Dialektologiya – shevalarni qiyosiy-tavsifiy o`rganish.

Areal lingvistika – til hodisalarini hududiy o`rganish.

Singarmonizm – so`zning o`zagidagi unli va undoshlarga qo`shimchalardagi unli undosh fonemalarning kontakt va distant usulida moslashishi, uyg`unlashishi.

### 3-ilova

#### ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O`qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

**Mavzu: Areal tilshunoslikning tushunchaviy  
terminlari.  
Reja**

1. Kirish. Lingvistik geografiya
2. Dialektologiya - tilshunoslikning bir sohasi.
3. O'zbek tilining dialektologik atlasini yaratish.
4. Shu sohada qo'llanuvchi tushunchaviy terminlar.
5. O'zbek xalq shevalarini qiyosiy-tarixiy metod asosida o'rganish.

Lingvistik geografiya (lingvo - geografiya) - tilshunoslikning, bir bo'limi bo'lib, u ma'lum territoriyada tarqalgan til hodisalari ( tovushlar, Grammatik formalar, so'zlar) ni aniqlaydi, ularning o'sha joy ( makon)ga o'lgan munosabatini ko'rsatadi, territoriyal til xususiyatlarini xalq tarixi, til tarixi bilan aloqador holda qiyoslab, tushintirib, kartalar orqali ifodalaydi. Uning eng muhim xususiyatlaridan biri ko'rgazmaliligi bo'lib, unda ma'lum til hodisalarining o'rnini va tarqalish chegarasi kartalar yoki atlas vositasida aniq belgilab beriladi. Karta ham, atlas ham lingvistik geografiyaning ifoda vositasi bo'lib, uning asosiy maqsadi tilning taraqqiyot qonuniyatlarini va yo'llarini, konkret dialektlarning paydo bo'lishi va hozir mavjudligining sabablarini, shuningdek, dialekt xususiyatlarining milliy tilga bo'lgan munosabati va o'zaro aloqasi masalalarini tushuntirib berishdir. Nihoyat, lingvistik geografiya bir qator umumlingvistik muammolarini, ya'ni tilda lahja, dialekt, shevalar mavjud bo'lsa, ularning xususiyatlari va bu xususiyatlar nimalari bilan chegaralanishi, dialektlarning umummilliy tilga bo'lgan munosabati va shu kabi masalalarni hal qilmog' kerak.

**Dialektologiya.** Dialektologiya (grekcha *dialektos* – sheva so'zidan) tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, u biror tilning mavjud dialektlarini, ya'ni mahalliy lahja va shevalarini o'rgatadi. O'zbek dialektologiyasi fani O'zbekiston teritoriyasidagi va qardosh respublikalardagi ( Qozoqiston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'istondagi) O'zbek tilining turli dialekt, lahja va shevalarni tekshiradi.

Ob'ektni o'rganish jihatidan dialektologiya ikki turlidir:

- 1) Tasviriy dialektologiya yoki Dialektografiya
- 2) Tarixiy dialektologiya.

Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya mahalliy lahja va shevalarga hos fonetik va leksik – grammatik xususiyatlarini qayd qilish bilan chegaralanadi. Tarixiy dialektologiya esa, tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shu xususiyatlarning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli davralarda o'zgarishi, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevaning tashkil topishida boshqa tillarning ishtirokini aniqlash kabilarni ham o'rganadi, lahja va shevalarni lingvo – geografik usullar bilan o'rganish ham birinchi navbatda tarixiy maqsadlarni ko'zda tutadi.

Shevalarni o'rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda allaqachon yo'q bo'lib ketgan yoki

ma'lum darajada o'zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim gramatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. Bu jihatdan dialektologiya til tarhini o'rganish uchun juda ahamiyatlidir.

Shuningdek, o'zbek dialektologiyasi ham o'zbek tili tarhini o'rganish, uning ayrim noaniq masalalarini yoritish uchun asosiy manbadir. Qadimiy o'zbek yozma yodgorliklarining biz uchun noaniq xususiyatlarini o'rganish bilan (shu sheva materiallari yordamida) aniqlashimiz, to'ldirishimiz mumkin. Dialektlarni o'rganish ham ilmiy, ham praktik ahamiyatga ega. Shevalarni o'rganish, o'zbek adabiy tilining fonetik, leksik – gramatik normalarni belgilash uchun, shuningdek, o'zbek orfoografiya va orfoepiyasini stabilashtirish uchun ham katta yordam beradi.

Shevalarni o'rganish xalq tarihi, etiografiyasi uchun ham muhimdir. Masalan, shevalarni o'rganish orqali o'tmishdagi urg'u – qabilalarning joylashish teritoriyalarini aniqlash, toponimlar gidrominlarva shu kabi nomlar vositasida xalq tarhini ayrim kartinalarini yaratmoq mumkin bo'ladi.

Dialektologiya fanining ob'ekti mahalliy dialect, lahja va shevalar bo'lib maqsadi va vazifasi quyidagilardan iborat.

- 1)ayrim sheva dialiktlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish.
- 2)Milliy tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o'rnini va shu milliy tilga asos bo'lgan shevalarni aniqlash.;
- 3)Shevalarning o'zaro munosabatini, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo'lgan munosabatlarini belgilash.
- 4)O'hshash xususiyatlariga ko'ra shevalarning tarqalish chegaralarini aniqlash;
- 5)Umumiy o'hshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma'lum teritoriyada tarqalish kartalarini tuzish va shevalarni klassifikatsiya (**tasnif**) qilish.

<b>10- mavzu</b>	<b>XALQ SHEVALARI VA ADABIY TIL MUNOSABATLARINI AREAL SATHDA O'RGANISH</b>
----------------------	--

### 1.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.Xalq shevalari va uning xususiyatlari 2. O'zbek xalq shevalarining tasnifi. 3. Xalq shevalari va adabiy til munosabatlari

<b>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</b>	
A) <i>ta'limiy</i> : Shevalar va adabiy til munosabatlarini areal o'rganish haqida ma'lumot berish.	
B) <i>tarbiyaviy</i> : yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o'rgatish;	
V) <i>rivojlantiruvchi</i> : bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Xalq shevalari va uning xususiyatlari haqida ma'umot berish.</li> <li>• O'zbek shevalarining tasnifi</li> <li>• Xalq shevalari va adabiy til munosabatlari haqida ma'lumot berish.</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Xalq shevalari va uning xususiyatlari haqida ma'umot beradi.</li> <li>• O'zbek shevalarining tasnifi haqida ma'lumot beradi.</li> <li>• Xalq shevalari va adabiy til munosabatlari haqida ma'lumot beradi.</li> </ul>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Ommaviy, jamoaviy
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. Xalq shevalari va adabiy til munosabatlarini areal sathda o'rganish mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchilar</b>
<b>Tayyorgarlik bosqichi.</b>	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma'ruzani o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
<b>1-bosqich</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini e'lon qiladi 1.2. o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova) 1.3. Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar. Berilgan savollarga javob beradi.

<p><b>2-bosqich</b> Asosiy bosqich (55daqqa)</p>	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. Xalq shevalari va uning xususiyatlari haqida tushuncha beradi.</p> <p>2.3. O'zbek xalq shevalarining tasnifi haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.4. Xalq shevalari va adabiy til haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.5. O'rganilgan bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash uchun savollar beradi.</p> <p>2.6. Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>1. Turkiy tillar tasnifini bilasizmi? 2. Xalq shevalarining o'ziga xos xususiyatlari qanday ko'rinishga ega? 3. Xalq shevalari va adabiy til munosabatlarini qanday tushunasiz?</p>	<p>Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o'tkazadilar.</p> <p>Ma'lumotlar daftarlarga qayd qiladilar.</p> <p>Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko'rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

### 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

2.6-3 ball - «a'lo»

2.1-2.5 ball - «yaxshi»

1.5-2- ball - «qoniqarli»

0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

#### TAYANCH IBORALAR

Umumturkiy – barcha turkiy tillarga oid hodisalar.

Turkiy arealogiya – ma'lum bir hodisaning qirg'iz, qozoq, turkman, qoraqalpoq va boshqa turkiy tillarda hududiy tarqalishi.

### 3-ilova

## ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O'qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

### **Mavzu: Xalq shevalari va adabiy til munosabatlarini areal sathda o'rganish**

#### **REJA**

- 1.Xalq shevalari va uning xususiyatlari
- 2.O'zbek xalq shevalarining tasnifi
- 3.Xalq shevalari va adabiy til munosabatlari

Areal lotincha area “maydon”, “kenglik” so'zidan olingan. Areal lingvistika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishini va tillararo munosabatni lingvistik geografiya metodlari asosida o'rganadi.

Areal lingvistikaning asosiy vazifasi til xususiyatlarining hududiy bo'linishini tavsiflash va izoglossalarni talqin qilishdan iboratdir. Natijada dialektlar, tillar va areal jamoalar o'rtasida o'zaro ta'sir maydonlari aniqlanadi.

Areal lingvistika atamasi tilshunoslikka M.J.Bartoli va Dj.Viddassi tomonidan 1943 yilda olib kirildi. Uning asosiy tamoyillari 1925 yildayoq M.Bartoli tomonidan olg'a surilgan.

Areal lingvistika lingvistik geografiya va dialektologiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Uning markaziy tushunchasi til yoki dialekt arelidir. Boshqacha aytganda, ayrim lingvistik hodisalarning tarqalish va ularning yig'indisidir. Shuningdek, arel atamasi ayrim tillar va tillar guruhining tarqalish chegarasini ifodalash uchun ham qo'llaniladi.

Areal lingvistikani yana bir markaziy tushunchasi izoglossadir.

Tilning barcha sathlari uchun bu tushuncha xarakterli bo'lib, sathlaro yana aniq atamalar bilan farqlanadi: fonetik izoglossalar uchun izofonlar, leksik izoglossalar uchun izolekslar, semantik taraqqiyot uchun izosemlar va boshqalar.

Izoglossalar bog'liq va konvergent izoglossalarga bo'linadi. Bularning birinchisi bir genetik umumiylikka ega bo'lgan tillarda rivojlanadi va ularni tiklash uchun qiyosiy-genetik tadqiqotlar usulidan foydalaniladi.

Konvertgent izoglossalar esa uzoq davrlar bir hududda yaqin aloqada bo'lish natijasida areal umumiylikning vujudga kelishi asosida hosil bo'ladi. Bunday izoglossalar tipologik tahlil usullari asosida aniqlanadi.

Areal lingvistikaning shakllanishida dialektologik va lingvistik atlaslar katta xizmat qildi.

Areal lingvistikaning paydo bo'lishi va rivojlanishida A.Meye, Bartoli, B.A.Terrachini, Dj.Bonfante, B.Pizani singari olimlarning hizmati alohida ajralib turadi. Ular ushbu yo'nalishning nazariy asoslarini, tushunchaviy apparatini belgilab berdilar.

Turkiy tillarni arel nuqtai nazardan o'rganishda N.Z.Gadjiyeva, A.B.Jo'raev singari olimlarning xizmatlari katta. Ayniqsa A.B.Jo'raevning o'zbek tilini areal o'rganishning nazariy asoslarini belgilab berishdagi xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbek tili turkiy tillar tasnifiga ko'ra turkiy tillarning uch gruppasiga kiritilgan. Sababi o'zbek tili o'zining fonetik tuzilishi, grammatik qurilishi va lug'at tizimiga ko'ra turli turkiy tillar bilan umumiy xususiyatlariga va, shuningdek, u tilardan farq qiladigan o'ziga xos xususiyatlarga ham egadir.

O'zbek tili tizimidagi ayrim lahjalar, chunonchi, o'g'uz lahjasi o'z xususiyatlariga ko'ra turkiy tillarning janubiy- g'arbiy guruhiga kirsa, qipchoq lahjasi esa, shimoliy-g'arbiy guruhiga kiradi. Bu lahjalarning ham o'zlari kiradigan guruhlar bilan no'xshash tomonlari mavjud.

O'zbek tilining shahar shevalariga asoslangan hozirgi zamon adabiy tili esa, janubiy-sharqiy guruhga kiradi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida miqdor va sifat jihatidan farq qiladigan 6 unli tovush bor. Boshqa turkiy tillar esa 9 va undan ortiq unliga ega bo'lishlari bilan o'zbek adabiy tilidan farq qiladi. Shuningdek, bu tillar unilarning uyg'unlashishi yoki uyg'unlashmasligi jihatidan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, lab ohangining to'la saqlanishi jihatidan qirg'iz tiliga birorta turkiy til teng kela olmaganidek, singarmonizmning zaifligi jihatidan o'zbek adabiy tiliga ham birorta turkiy til mos kela olmaydi.

O'zbek tilining undoshlar tizimi ham boshqa turkiy tillarga, asosan, mos kelsada, ayrim no'xshashliklarga ham ega. O'zbek tilida so'z boshida keladigan y tovushi shimoliy-g'arbiy guruhga kiruvchi tillarda **dj** va **j** tovushi bilan beriladi.

O'zbek tilida so'z boshida keladigan **t** tovushi janubiy-sharqiy guruhga kiruvchi turkiy tillarda **d** tovushi bilan beriladi.

O'zbek tili va boshqa turkiy tillar o'rtasidagi o'xshashlik va no'xshashliklar ularning lug'at tarkibidasham ko'rinadi. O'zbek tili lug'at tarkibiga kiruvchi so'zlar boshqa turkiy tillar lug'at fondiga kiruvchi eng muhim hayotiy tushunchalarni ifodalovchi so'lar bilan o'xshashdir. Ammo ba'zi so'zlar ayrim turkiy tillarning o'z fonetik xususiyatlariga ko'ra boshqacharoq talaffuz qilinishi mumkin. Bunday fonetik xodisalardan qattiq nazar o'zbek va boshqa turkiy tillar lug'at tarkibida umumiy o'xshashlik saqlangan.



Ayrim leksik no o'xshashliklar turkiy tillarning o'ziga xos leksik xususiyatlaridan kelib chiqib, bu tillarni ozaro leksik jixatdan farqlaydi. O'zbek tilining barcha sheva va laxchalarida turkiy qabila tillariga xos xususiyatlar bilan birga turkiy bo'lmagan tillarda so'zlashuvchi etnik elementlarning ta'siri ham bor.

Turkiy tillarning genetikasi, til xususiyati jixatidan o'zaro munosabati masalasiga olimlar juda qadimdan qiziqib kelganlar. Turkiy tillarni birinchi bolib tasnif qilgan olim M.Qoshg'ariydir. turkiy tillar tasnifi bilan qiziqish XIX asr oxiri va XX asrlardan qaytadan boshlandi va ko'pdan-ko'p tasniflar vujudga keldi. Bu tasnif metodlari oldiga qo'ygan vazifalari maqsadlari ham turlichadir. Ulardan ba'zilar murakkab puxta o'rganilgan va ishlangan tasniflar bo'lsa, ayrimlari u yoki bu jixatdan kamchilikdan xoli emasdir.

Akademik V.V.Radlov tasnifi: V.V.Radlov o'zining "Shimoliy Turkiston tillarining fonetikasi" degan asarida, asosan, turkiy tillarni tasnif qiladi.

Turkiy tillarni shunday guruhlashtiradi:

1.Sharqiy guruh .

Bu guruhga kirgan tillarning xarakterli xususiyatlari quyidagicha:

1)[o] unlisi o'zidan so'ng tor unliga juda kuchli ta'sir ko'rsatadi.

2)So'z o'zaklarining boshida jarangsiz undoshlarning mavjud bo'lishi: bash, pash> kabi.

3)Jarangsiz Sh, t undoshlaridan keyin unli tovush bilan boshlanadigan qo'shimchalar qo'shib kelganda, bu undoshlar jaranglashadi: Masalan oyrot tilida tish-i:-tji, tu-dar.

4)So'z oxirida kelgan jarangsiz portlovchi p, q, k undoshlari unidan oldin jaranglashadi.

5)[l] tovushi qattiq va yumshoqlikda farqlanadi.

1.G'rbiy guruh (garbiy Sibir tatarlarining tili , qirg'iz, qozoq, boshqirt tillari)

2.O'rta Osiyo guruhi (Yorkent, Chigatoy tili, shimoliy o'zbek shevasi, Qoqon shevasi, Zarafshon vodiqidagi o'zbek shevalari, Buxoro va Xiva shevasi).

3.Janubiy ghuruh (turkman, ozarbayjon, turk va qirim tatarlari tili) deb to'rt guruhga bo'ladi.

Shunday qilib V.V.Radlov birinchi bo'lib o'zbek shevalarini tasnif qilgan olm xisoblanadi. Uning tasnifiga ko'ra o'zbek shevalari 6 guruhga bo'linadi.

1.Chig'toy

2.shimoliy o'zbek

3.Qo'qon

4.Zrafshon vodiysi

5.Buxoro

6.Xiva

V.V.Radlov o'zining tasnifida o'zbek shevalarini guruhlarga bo'lib ko'rsatgan bo'lsa ham, ularning xos xarakterli xususiyatlari, bir-biridan farqi haqida ma'lumot bermaydi.

### **B.A.Bogoroditskiy tasnifi**

B.A.Bogoroditskiy 1921-yilda hozirgi turkiy tillarni geografik joylashuvi va fonetik xususiyatlarini hisobga olib 7guruhga bo'lgan. Keyinchalik 1934-yilda u o'zining ushbu tasnifiga aniqliklar kiritib uni to'ldirib quyidagicha taqdim etdi.

1. Shimoliy sharqiy guruh: Yoqut, karagas, tuva tillar
2. Xakas va abakang guruhi: Xakas tili, Abakan lahchasi, Sagay, Koybal, Kachin, qizil shevalari, Minusing tatarlar tili
3. Oltoy guruhi. Bunga oltyo tili o'z shevalari bilan kiritilgan.
4. G'arbiy Sibir guruhi: Chulim, Ishim, Tyumen tatarlari tili.
5. Volga bo'yi va ural guruhi: tatar va boshqird tillar.
6. O'rta Osiyo guruhi: Uygur, qozoq, qirg'iz, o'zbek, qoraqolpoq tillari.
7. Janubiy g'arbiy guruh: Turkman, ozarbayjon, qumuq, gagauz, turk tillari va chuvash tili, qorachoy til va bolqar tillari.

### **F.Ye.Korsh tasnifi**

F.Ye.Korsh o'zining "Klassifikatsiya tyurkskix plemen po yazikam" asarida turkiy tillarni fonetik xususiyatlaridan tashqari, morfologik xususiyatlarini ham hisobga olib quyidagicha tasnif qilgan.

1. Shimoliy guruh: Qirg'iz, qozoq, qumiq, nog'oy, qorachoy oltoy, Volga tatarlari shimoliy kavkaz tatarlarining tili.
2. Garbiy guruh: Ozarbayjon, turkman, turk, gagouz, qirim tatarlari.
3. Sharqiy guruh: Orxon enasoy yodgorliklari yozuvi tili, eski uygur tili, chigatoy, qipchoq kabi o'lik tillar va jonli tillardan qaragaz va xakas tillari.
4. Aralash guruh: Bu guruhga yoqut va chuvash tillari va O'rta Osiyodagi ba'zi tillar kiradi. Bu tillarning har biri o'ziga xos tasnif belgilariga egadir.

### **A.N.Samoylovich tasnifi**

A.N.Samoylovich o'z tasnifida turkiy tillarning mavjud V.V.Radlov va F.Ye.Korsh tasnifini birlashtirib quyidagicha 5 guruhga bo'ladi.

1. Janubiy-g'arbiy yoki o'guz guruhi. Bu guruhga turkman, ozarbayjon, turk, gagouz tillari va qirim tatarlarining ba'zi dialektlari hamda o'zbek tilining o'guz laxjasi kiradi.
2. Janubiy sharqiy yoki chig'atoy guruhi. Bu guruhga hozirgi uyg'ur tili, o'zbek tili va uning bir qator shahar dialektlari, qumandinning tili o'lik chig'atoy tili kiradi.
3. Shimoliy-farbiy yoki qipchoq guruhi. Bunga tatar, boshqird, oyrot, qirg'iz, qozoq, qoraqolpoq, o'zbek tilining ayrim qipchoq shevalari, qumuq qorachoy shevalari kiradi.
4. Shimoliy sharqiy yoki Sibir guruhi. Bu guruhga qadimgi o'hun, uyg'ur, qorliq yozuvi yodgorliklari, xakas, char, yoquyd tillari kiradi.
5. Chuvash yoki bulg'or guruhi. O'lik bulg'or va hozirgi chuvash tillari kiradi.

### **N.A.Baskarkov tasnifi**

N.A.Baskarkov turkiy tillarning tasnifini yaratishda faqat xar bir turkiy tilning fonetik, gramatik leksik xususiyatinigina xisobga olib qo'ymasdan xar bir turkiy xalqning tarixiy shakllanishi jarayoni, uning etnik genizisiga ham aloxida etibor beradi.

- 1.Fonetik xususiyatlar asos qilib olingan tasniflar.
- 2.Fonetik morfologik xususiyatlar asos qilib olingan tasniflar.
- 3.Til xususiyatlaridan tashqari genetik aloqalar ham xisobga olingan tasniflar.
- 4.Turki tillarda gapiruvchi xalqlarning geografik joylashuvi asos qilinib olingan tasniflar.

### **Ser Ali Lapin tasnifi**

V.V.Radlovdan ancha keyin, o'tgan asrning 90-yillarida Ser Ali Lapinning "Sart so'zinig kelib chiqishi va ma'nosi haqida" degan ishida o'zbek adabiy tili bilan bir qatorda 4ta o'zbek dialekti borligi to'g'risida ma'lumot beradi.

- 1.Sirdaryo viloyati dialekti
- 2.Farg'ona viloyati dialekti
- 3.Amudaryo bo'limi va Xiva xonligi dialekti
- 4.Samarqand viloyati va Buhoro xonligi dialekti

Ser Ali Lapin tasnifida ham o'zbek dialektlarining fonetik tizimi, grammatik qurilishi va leksik boyligi haqida hech qanday ma'lumot keltirilmaydi. Uning bu tasnifi o'z davriga nisbatan ma'lum qimmatga ega bo'lgan.

Ma'lumki, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili hozirgi bosqichga qadar uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ular urug'-urug', qabila- qabila bo'lib xayot kechirganlardan so'ng asta sekin elat xalq bo'lib tashkil topdi. M.Qo'shqariydan keyin o'zbek shevalarini V.V.Radlov, Ser Ali Lapin, V.Nalifkin kabi olimlarning ishlari bunga misol bo'ladi. XX-asrning boshlariga kelib ayniqsa 1917-yildan so'ngi davrda professorlar, I.I.Zarubin, K.K.Yudaxin, Ye.D.Palivanov, A.D.Borovqov, Ryesyetov kabilarning o'zbek shevalarining o'rganish va uni guruhlashtirishda xizmatlari katta.

### **I.I.Zarubin tasnifi**

Professor I.I.Zarubin o'zbek shevalarining 4 guruhga bo'lib tasnif qiladi.

- 1.Xiva.
- 2.Farg'ona
- 3.Tashkent
- 4.Samarqand, Buxoro shevasi

I.I.Zarubinning bu tasnifida o'zbek shevalari orasida katta o'rin tutgan hozirgi O'zbekistonning anchagina xududiga tarqalgan qipchoq j-lovchi shevalar va shimoliy o'zbek shevalari xisobga olinmagan.

### **K.K.Yudaxin tasnifi**

K.K.Yudaxin o'zbek shevalari tasnifining 2 varianmtini tafsiya etadi: U o'zining dastlabki variantida o'zbek shevalarining tojiktili bilan bo'lgan munosabati va singarmonizmni saqlash darajasiga qarab 4 guruhga ajratadi.

- 1.Asli turkiy tovush tarkibi va singormanizmni saqlagan o'zbek shevalari.
- 2.O'z tovush tarkibini qisman o'zgartirgan singarmonizmni yo'qotgan shevalar.
- 3.Eron tillari oilasiga mansub unlilar turkibini saqlagan shevalar.
- 4.O'zbek vatolik tillarida so'zlashadigan tojik shevalari.

Keyinchalik, K.K.Yudaxin o'zbek shevalarini o'ziga xos xususiyatlari bilan mufassal tanishib, avvalgi tasnifiga tegishli aniqliklar kiritdi va o'zbek shevalarini besh guruxga bo'ldi: Toshkent, Farg'ona, Qipchoq, Xiva va shimoliy o'zbek shevalari.

#### **E.D. Polivanov tasnifi.**

E.D. Polivanov tomonidan bir qator o'zbek shevalari va dialektlari o'rganib chiqildi va shu asosida shevalarning mukammal tasnifi berildi.

E.D. Polivanov o'z tasnifida tildagi ikki holatni ko'zda tutdi:1) metisatsiya; 2) gibrizatsiya.U shevalarda uchraydigan barcha fonetik o'zgarishlarni hisobga olib,o'zbek shevalarini bir necha guruxga bo'ldi.Eronlashish nuqtai nazaridan,ya'ni ba'zi o'zbek shevalarining tiklanish prosesida tojik tilining ishtirokini hisobga olib shevalarni quyidagicha guruhlishtirdi.

1. Eronlashmagan shevalar.
2. Eronlashgan shevalar.

Eronlashmagan shevalarga o'zbek-qipchoq lahchasidagi va Farg'onaning singarmonizmli qishloq shevalarini kiritadi.

Toshkent,Qo'qon-Marg'ilon,Andijon-Shahrixon tilidagi shevalarda eronlashish elementlarining mavjudligini qayd qilsa,Buhoro,Samarqand, Xo'jand, O'rtepa tilidagi shevalarning maksimal eronlashgan, ya'ni tojik vokalizmini o'zida to'la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi.

Eronlashgan va eronlashmagan shevalar o'rtasida eronlashishning kuchsizlanishi, gibridizatsiya prosesida turkiy elementlarning kuchsizlanishiga ko'ra eronlashgan shevalarning 4 tipga ajratdi.

1. Samarqand-Buhoro shevalari. 2-tip.Toshkent tipidagi shevalar. 3-tip. Qo'qon-Marg'ilon tipidagi shevalar. 4-tip. Anjan-Shahrixon tipidagi shevalar va shu tipga uyg'urlashgan yoki umlautli shevalar ham kiritilgan.E.D.Polivanov tasnifida yana 2 tip shevaga ajratilgan.Bular 6-tip.Shimoliy o'zbek shahar shevalari tipi.7-tip.Shimoliy o'zbek qishloq shevalari tipi.

E.D.Polivanov tasnifiga ko'ra 2-dialekt <<o'g'uz lahchasi>> bo'lib,o'z ichiga 2 tip shevani oladi.1-tip.Janubiy Xorazm guruh shevalari; shu guruhga Sho'raxon shevasi alohida bir tip sifatida kiritilgan. 2-tip. Shimoliy o'guz guruh shevalari. Shu guruhga Forish tumanidagi Bog'dod shevasi ham kiritilgan.

<<Qipchoq lahchasi>> 3-dialekt bo'lib,bu 7 tip shevani o'z ichiga oladi. 1-tip. O'rta Xorazm va Shimoliy Xorazm;

- 2-tip. O-lovchi tip;
- 3-tip. Qurama shevalari;Ohangaron vodiysidagi qurama shevalari.

4-tip. Shimoliy o'zbek shevalari; Turkistondagi So'zoq, Chalaqo'rg'on qishloq shevalari

5-tip. O'rta o'zbek; qirq shevalari va Janubiy o'zbek-laqay shevalari va Afg'onistondagi qipchoq o'zbeklari ham shu guruhga kiradi.

E.D.Polivanov o'zining bir qator ishlarida o'zbek shevalarining tasnifi hali mukammal emasligini qayd qilib, o'zbek tilshunosligi shevalarning detallashtiruvchi tasnifga zarur deb ko'rsatadi.

E.D.Polivanovning ayrim nazariy xulosalari to'g'ri emas, chunki u o'z tasnifida va boshqa tadqiqot ishlarida o'zbek shevalaridagi taraqqiyotni faqat faktorga bog'lab tekshiradi. O'zbek tili va uning shevalarida ro'y bergan o'zgarishlar tilning asrlar mobaynida o'z ichki taraqqiyot jarayonining natijasi ekanligini ko'rmaydi. Lekin uning yozib olgan daliliy materiallari, ayrim til hodisalariga bergan sharhlar juda aniq va hech qanday etiroz tug'dirmaydi. Bu jihatdan E.D.Polivanovning o'zbek shevalarini o'rganishga bag'ishlangan ko'p ishlari o'zining sifati va ilmiyligi bilan ajralib turadi.

Uning ishlari hozirgi kunda ham o'zbek shevalarini o'rganishga katta yordam bermoqda.

### **G'ozim Olim Yunusov tasnifi**

Professor G'ozim Olim Yunusov o'zi to'plagan juda boy daliliy materiallarga suyangan holda 1936-yili, E.D.Polivanov tasnifidan keyin 1936-yilda nashr etilgan << o'zbek lahchalarining tasnifida bir tajriba >> nomli asrida o'zbek shevalarini 3 katta guruhga bo'lib tasnif qildi va shu asosda tasnif holatini ham berdi.

1. O'zbek qipchoq lahchasi.

2. Turk-Barlos lahchasi.

3. Xiva-Urganch yoki o'g'uz lahchasi.

**1. O'zbek –qipchoq lahchasi.** Bu lahchaga O'zbekistonning ohangaron, Mirzacho'l, Samarqand, Zarafshon, Buhoro, Farg'ona vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa hududlarda yashovchi j-lashgan shevalarning hammasi kiradi. O'zbek-Qipchoq lahchasi 4 shevaga: Qirq, Jaloyir-laqay, Qipchoq, Gurlan.

**2. Turk-Barlos lahchasi.** Bunga hamma shahar va shahar tipidagi shevalarni: Toshkent, Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon shaharlari va bu shaharlarning atrofida yashovchi o'zbek shevalari kiritiladi. Bu lahcha vakillari Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Zarafshon vodiysining yuqori qismi, Chimkent, Sayram, O'sh, O'zgan shaharlari va uning atroflarida yashovchi o'zbeklar shevalari ham shu lahchaga kiritilgan.

G'ozim Olim bu lahchaning asosiy til hususiyatlarini hisobga olib 4 guruxga bo'ladi.

1. **Sayran-Chimkent shevasi.** Bu lahchaga Xiva, Honqa, G'azovod, Shohobod, Kat, Toshovuz, Eski Urganch, Yangi Urganch, Hozorasp, To'rtko'l da yashovchi o'zbek shevalarini o'z ichiga oladi. Bu shevaning o'ziga hos hususiyatlari alohida berilmagan.

2. **Toshkent-hos shevasi.** Bu shevaning asosiy hususiyatlari: tushum kelishigi qo'shimchasi –t bilan tugagan so'zlardan keyin –ti:tti. Shuningdek, bu qo'shimcha so'z oxirida assimilyatsiyaga uchrab, oldidagi undoshga moslashadi: biz-bizzi, istak

fe'li yasovchi –luk: kelayluk.Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi – v tt,bo'lishsiz kemaydi.

Shart fe'lining ko'pligi –vuz, -mz, 2-shaxs –yz:blsayz. 1 shaxs o'tgan zamon fe'lining ko'pligi –mza, -mz, -vuza, -vuz. 2 shaxs –ъ: з orqali yasaladi.

3.**Andijon shevasi.**Bu shevaning asosiy hususiyati tushum kelishigi qo'shimchasi –нъ, -ни dan tashqari –тъ, -ти, -дъ, -ди tarzida keladi.Hozirgi zamon davom fe'li –йап, йеп,orqali yasaladi: келейепмен.

4.**Namangan shevasi.**Bu shevaning asosiy hususiyati hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi –ут: келутъман,келмутъман.

Bu tasnif ham o'zbek dialektologiyasi tarixida ancha yaxshi ishlangan.Tasniflardan biri bo'lib hisoblanadi.Lekin bu tasnifda o'zbek shevalarining asosiy hususiyatlari to'la qamrab olinmagan,shevalarning lingvistik farqlarini ko'rsatuvchi belgilar berilmagan.Shuning uchun ham bu tasnifni olimlar o'z vaqtida tanqid qilgan.

### **A.K.Borovkov tasnifi**

A.K.Borovkov o'zbek xalq shevalarini o'rganishda o'z hissasini qo'shib,xizmat qilgan olimlardan biri hisoblanadi.U o'zbek shevalarini 2 marta tasnif qilgan.A.K.Borovkovning 1-tasnifi 1940-yil <<О новым ўзбекском алфавите>>degan maqolasida e'lon qilingan.

A.K.Borovkov bu tasnifida o'zbek xalq shevalarini fonetik tomondan 2 guruxga bo'lib ko'rsatadi.

1) O lashgan shevalar.

2) A lashgan shevalar.

O-lashgan gurux shevasiga shahar shevalari va ular atrofidagi tuman shevalarini kiritdi.

A-lashgan gurux shevalariga esa singormonizmni saqlagan shevalar kiritildi.Bu o'zbek shevalari –й-lash va ж-lash xususiyatlarga ko'ra 2 ga ajratiladi:

1) й –lovchi shevalar;

2) ж –lovchi shevalar;

O'zbek dialekt shevalarini guruxlashtirishda A.K. Borovkovning bu tasnifi haligacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.Lekin unda ham ba'zi kamchiliklar yo'q emas.

A.K. Borovkovning 2- tasnifi 1953-yili O'z.FA axborotlarining 5-sonida e'lon qilingan.Bu tasnif 1- tasnifga nisbatan beqiyos darajada yaxshi tuzilgan.Chunki bunday o'zbek xalq shevalarining tarixiy taraqqiyotini fonetik, leksik, morfologik hususiyatlari hisobga olingan.

Ana shularga ko'ra o'zbek xalq shevalarini 4 katta guruxga bo'lib ko'rsatgan:

1. **O'rta o'zbek dialekti.**

2. **Shimoliy o'zbek shevasi.**

3. **Shayboniy-o'zbek yoki j-lovchi dialekt.**

4. **Janubiy Xorazm dialekti.**

5. **Aloxida gurux shevalari.**

### **V.V. Reshetov tasnifi**

V.V. Reshetov o'zbek shevalarining tarixiy lingivistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qardosh tillar munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalarining tasnif sistemasini tuzdi.

O'zbek tili 3 turkiy komponentining birikishi natijasida vujudga kelgan:

1. Qorluq- chigil- uyg'ur lahchasi hozirgi qardosh uyg'ur tiliga yaqin bo'lib tojik tili bilan yaqin etnolingvistik munosabatda bo'lgan.

2. Qipchoq lahchasi qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin.

3. O'g'uz lahchasi qardosh turkman tili bilan yaqin.

**O'zbek tilining qorluq-chigil-uyg'ur lahchasi.** Bu lahchaga Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Qarshi, Termiz, Jizzax, Kattaqo'rg'on kabi shahar va shahar tipidagi boshqa shevalar kiritiladi.

V.V. Reshetov tasnifida qarluq-chigil-uyg'ur lahchasi quyidagi guruhga bo'lingan.

-Farg'ona guruhi: Namangan dialekti; Andijon-Shahrihon dialekti; O'sh-O'zgan dialekti; Marg'ilon-Qo'qon dialekti.

-Toshkent guruhi: Toshkent dialekti; Jizzax dialekti.

-Qarshi guruhi: Qarshi dialekti; Samarqand-Buxoro dialekti.

-Shimoliy o'zbek guruhi: Iqon-Qorabuloq dialekti; Turkiston-Chimkent dialekti.

O'zbek tilida so'zlashuvchi kollektiv joylashgan territoriyaga nazar tashlab shevalar bo'yicha fonemalarning munosabatini son jihatdan qarab chiqsak bir qancha shevalarning yagona bir markazga – adabiy til talaffuz normalariga asos bo'ladigan markazga qarab yo'nalishini ko'ramiz. Respublikamizning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazi bo'lgan Toshkent shu yo'nalishlarning asosiy punktidir. Chunonchi :

1. Toshkent – Andijon,
2. Toshkent-Buxoro,
3. Toshkent-Urganch (Xorazm),
4. Toshkent – Turkiston.

Yagona markazdan uzoqlashgan sari birinchi, uchinchi va to'rtinchi yo'nalishlarda (oxirgisi Qozog'iston territoriyasida joylashgan) unli fonemalar soni ko'paya boradi, uchinchi yo'nalishda esa o'zbek shaxar shevalariga xos bo'lgan unli fonemalarning tipik sostavi asosan saqlanadi, ammo unli fonemalarning sifat jihatdan xarakteristikasi birmuncha boshqacharoq tus oladi. Bu yo'nalishlarning bo'linishini shartli tushunmoq kerak, chunki ko'rsatilgan to'rtta yo'nalishning har biri, o'z navbatida, bir qator cheklanishlarga ega, bu dialektoliya kursida alohida tekshiriladi.

#### **Adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi fonetik munosabatlar.**

Adabiy tilining shakillanishida bevosita ishtirok qilgan bazi o'zbek shevalarining unilari o'ziga xos qator xususiyatlarga ega. Toshkent- Farg'ona tipidagi shahar shevalari xamda shaxar shevalarining talaffuz va leksik-giramatik xususiyatlariga o'xshash bo'lgan qishloq shevalari adabiy tilining shakillanishida yetakchi ro'li o'ynaydi O'zbek tili taraqqiyotning barcha davralarida vujudga kelgan eng pro'gresib xususiyatlarini o'zida aks ettirganligi sababli shaxar shevalari yetakchi sheva xisoblanadi. Aksincha, J-lovchi shevalar qonservatib xarakterga ega bo'lib bu shevalar voqalizmida qipchoq laxjasining tiradision xususiyatlari qatti ravishda saqlangan. Bu ikki qutub sheva (y-lovchi va j-lovchi

shevalar) orasida fonetik va morfologik xususiyatlari jixatidan adabiy til va jonli shevalarning o'zaro munosabatlari natijasida vujudga kelgan ko'pgina murakkab hodisalarini o'zida mujasamlashtirgan sheva ham bor ekanligini ko'rishimiz mumkin Yuqorida ko'rsatilgandek, o'zbek xalq shevalari tovush sostavi va fonetik xususiyatlarga ko'ra ikki katta guruppaga bo'linadi. Bulardan biri j-lovchi shevalar bo'lib bular o'zbek adabiy tilida so'z boshida keladiga (y) o'rniga (dj) fonemasini ishlatadi. Masalan yo'l o'rnida djol yomon o'rniga djaman, yo'q o'rniga djok .

J-lovchi shevalar o'zbek adabiy tilidan boshqa fonetik xususiyatlari bilan ham farq qiladi. Masalan arfografik o'rnida til orqa [a] tovushi ishlatiladi.

Masalan ad –arf . ota – J-lovchi [ata], ad-arf. bola [bole] – lovchi [bala].

Faqat bazi j-lovchi shevalargina o-lash xususiyatiga ega. Bundaay shevalar qatoriga Samarqand oblasidagi qazoq-nayman shevasi Toshkent oblazidagi qurama shevalarining bazilari va boshqa shevalar kiradi. Shuningdek, j-lovchi shevalar singarmazimli bo'lishi bilan xarakterlanadi.

J-lovchi shevalarda o'zbek adabiy tili narmalaridan chetga chiqish hollari ko'plab uchraydi.

Ko'zoq tiliga yaqin bo'lgan [dj] o'rniga [j] ishlatiladigan shevalar ham j-lovchi shevalar qatoriga kiradi.

O'zbek shevalarining ikkinchi guruppasini o-lovchi va a-lovchi gurippachalariga bo'linuvchi y-lovchi shevalar tashkil qiladi a-lovchi shevalar singarmalizmlidir.

Y-lovchi gruppaning a-lovchi shevalarida (shimoliy o'zbek Turkiston , Iqon, Qorabuloq, Mankent va Xorazm shevalari) qadimgi turki cho'ziq unlilar mustaqil fonema sifatida ishlatiladi.

3. O'zbek xalq shevalarida unli fonemalarning soni. O'zbek xalq shevalari o'z sastavi jihatidan murakkabdir. O'zbek tili dialektlari kompleksi tarkibiga qorluq-chigil-ung'ur qipcho va o'g'uz lahchalari kiradi. Bu lahjalarining xar biri o'z navbatida vokalizmi jihatidan fanetik no'o'xshashliklarga ega bo'lgan shevalarga bo'linadi.

Qorluq-chigit-uyg'ur lahjasidagi shevalarda 9-10 ta unli fonema bor. O'g'uz lahjasidagi shevalar esa tovush jihatdan ancha murakkab, chunki ularda bazi unli fonemalar sifat jixatidangina emas, balki miqdor jixatdan ham keskin farq qiladi.

Bu lahjadagi shevalarning o'ziga xos xususiyati shundagi, bularda mano farqlovchi yani malum simantik funksiyaga ega bo'lgan va mustaqil fonema xisoblanadigan aloxida cho'ziq unli tovushlar mavjut. O'g'uz lahjasidagi shevalarning vakolizm sistemasi mutloq cho'ziq va mutloq qisqa fonemalardan tashkil togan bo'lib, bu fonemalarning soni bazi shevalarda 18 taga qadar boradi.

O'zbek adabiy tiliga asos bo'lga shevalarda unli fonemalar soni 6-7 tadan oshmaydi.

Toshkent va Samarqand shevalarining voqalizm sisremasi 6 fonemalik bo'lib bu fonemalarning bazilari sifat jixatdan farq qiladi.

Toshkent tip shevalarda –ъ. e.e. c.o.y.

Samarqand tip shevalarda – ь,e,a,o,c,y,



Bu vokalizim (Samarqant shevalariga xos xususiyatlar saqlangan xolda) Buxorova Qarshi shevalariga xam taluqlidir. Xuddi shunday xususiyatni Leninobod(eski xo'jand) va Chust shevalarida ham ko'rish mumkun.

Qo'qon va Marg'ilon shevalarida sifat jihatdan farq qiladigan, ammo miqdor jihatdan farqlanmaydigan 7 fonema [ɤ,y,e,o,e,a] mavjud. Bu shevalarning unlilar sistemasida Toshkent va Samarqand unlilari sistemasidan farq qiladigan orqa qator quyi ko'tarilish [a] unli fonemasi saqlangan. Shunday qilib, bu shevalarda Toshkent shevasidagi [e,c], Samarqand , Buxoro, Qarshi, Xo'jand, Chust shevalaridagi [a,c] va adabiy tildagi a va o kabi ikki unli fonema o'rniga uch keng unli fonema [a, e, c] borligini ko'ramiz. Bu shevalarda [a] fonemasi quyi ko'tarilishdagi unli fonemalar o'rtasida oraliq donema holatini saqlab qolgan. Ammo bu uch fonemaning so'zlardagi tarqalishi Qo'qon va Marg'ilon shevalarida bir xil emas.

Territoriya jihatidan Marg'ilonga yaqin bo'lgan Vodil qishlog'ining shevasi, shuningdek, Jizzax shevasi va Toshkent viloyating atrof shevalari Toshkent shahar shevasining unlilar sistemasiga o'xshaydi.

Andijon, Shahrihon shevalarida Farg'ona vodiysining bir qator qishloq shevalarida (Masalan: Saroy) Turkiston shevasi o'zbek tilining Qoraqalpoq dialekti, Samarqand, Surxandaryo, Qashqadaryo oblostarining j-lovchi o'zbek shevalarida, shu jumladan, Toshkent oblast Oxangaron vodiysining qurama shevalarida vokalizmi sostavida 9,10 ta fonema mavjud.

### **O'zbek shevalarida unlilarning lablanish-lablanmaslik hodisalari.**

Toshkent tipidagi shevalar vokalizmida, shuningdek, o'zbek adabiy tili vokalizmida unlilarning lablanish holati asta sekin kamayib, aksincha, tilning tanglayiga tomon ko'tarilish darajasiga ko'ra yuqori ko'tarilish unlilarning o'rta ko'tarilish unlilariga va, nihoyat , keng unli fonemalariga o'tishi sta sekin kuchayib bormoqda.

Yuqori ko'tarilish unlilari i va u [ɪ va Y] ni asosiy farqi ularning lablanishi va lablanmasligidadir. Holbuki, tilning gorizantal yo'nalishiga ko'ra bu ikki fonema [ɪ, Y] va adabiy tildagi i va u o'zing kombinator variantlariga ega, bu kombinator variantlar adabiy talaffuzda ham o'z aksini topgan. Masalan: *qirq, qiz, qish* kabi so'zlardagi *ad.-orf i* tovushi til orqa [ɪ] (*qɪrɪq, qɪz, qɪsh*) kabi talafuz qilinadi. Aksincha *kul, gul, kuya, kuchuk* kabi so'zlar talafuzda *ad.-orf u* tovushi oldingi qator [Y] kabi talafuz qilinadi. Aksincha (*kYl, gYl, kYya, kYchYk*) va i, u unlilarning pozitsiyasiga ko'ra til oldi va til orqa bo'lib turiushi aniq seziladi.

Yuqoridagidek kombinator variantlar o'rta ko'tarilish unlilari [e,o] dan faqat [o] //ad-orf. o' unlisidagina ko'riladi. Solishtiring: **qol, qol.**

Nihoyat quyi ko'tarilish unlilarida lablanish yoki lablanmaslik nisbatan tilning gorizantal yo'nalishiga ko'ra farqlanish ustun. Shu sababli o'zbek adabiy tili vokalizmiga ham, Toshkent tipidagi shevalar vokalizmida ham [c] fonemasining lablanishi fakultativ xarakterdadir.

Farg'ona shevalarining bazilari (hususan Marg'ilon va unga yondosh shevalar) vokalizmidagi farq yuqorida ko'rsatilgandek, quyi ko'tarilish unlilarida

uchraydi [Marg' **e, a, c**]//Toshk. **e,c**// ad.-orf. **a, o**]. Marg'ilon shevasida uchraydigan [**a,c**] keng unilari alohida fonema bo'lib, bir-biridan labning ishtiroki bilan farqlanadi.

Ko'rinadiki 9,10 ta unli fonemaga ega bo'lgan o'zbek shevalarida umumnorma sifatida labning ishtiroki va tilning gorizantal yo'nalishiga ko'ra ajralish pirinsipining qoldig'I ma'lum darajada saqlangan. [**e-o** va **o-o**] (yuqori-o'rta ko'tarilish); [**i-i, i-Y-y**] (Yuqori ko'tarilish) va [e-a, a-c] (quyi ko'tarilish) kabi juft unilarni qiyos qiling.

### **O'zbek shevalarida unilarning miqdori (cho'ziq-qisqaligi)**

O'zbek xalq shevalari vokalizmiga to'laroq xarakteristika berish uchun unilarning miqdori jixatdan ikki fonologik qatorga bo'linishiga, mutlaq cho'ziq unli tovushlarning mutlaq qisqa unli tovushlardan farqlanishiga to'xtab o'tmoq lozim. Bunda onda-sonda uchraydigan va ma'lum fonetik sharoitda vujudga keladigan, yani semantik (ma'no farqlovchi ) funksiyaga ega bo'lmagan ikkinchi darajali (ikkilamchi ) choziq unilar emas, balki cho'ziqlikning aloxida turi, mutloq cho'ziqlik (birlamchi cho'ziqlik) xususiyatiga ega bo'lgan unilarning o'ziga mos keladiga qisqa unidan farq qilishi nazarda tutiladi.

O'zbek dialogic kartasida bir-biriga territoriya jihatidan qarama- qarshi joylashgan ikki shevada-“Shimoliy o'zbek” gruppasiga mansub bo'lgan Qorabuloq,Iqon shevalariga hamda Janubiy Xorazm shevalarida cho'ziq unilarning mustaqil fonema sifatida saqlanganligini ko'ramiz.

Quyi-O'rta ko'tarilshdagi unilar kategoriyasidan faqat ikkitasigina miqdor va sifat jihatdan farq qiladi. Singarmonik Farg'ona shevalarida farqi bularda quyi ko'tarilishidagi ochiq unli [c] fonemasi mavjud emas, shu hususiyatga ko'ra Qorabuloq shevasi O'zbek adabiy tilidan ham farq qiladi, ya'ni quyi ko'tarilish unilarning sifat jihatdan harakteristikasiga ko'ra Qorabuloq shevasi yondosh Iqon shevasi kabi “a” lashgan shevalar gruppasiga taluqlidir. Iqon shevasining vokalizmini tubandagi jadval yaqqol ko'rsatadi:

	<i>Oldingi qator</i>	<i>Orqa qator</i>
<i>Qisqa</i>	<i>i, e, v, Y, o</i>	<i>i, a, y, o</i>
<i>Cho'ziq</i>	<i>i:, e:, v:, Y:, o:</i>	<i>i:, a:, y:, o:</i>

Demak, Iqon shevasining unilar sistemasi 18 ta fonemadan iborat bo'lib, tipik o'zbek vokalizmi sostevidan miqdor va sifat jihatdan ya'ni bir-biriga zid bo'lgan tubandagidek juft unilarning mavjud bo'lishi bilan farq qiladi:

- tY:sh (tY:sh kord Ym) // ad-ard. tush (tush ko'rdim);
- tY:sh>tish, tishdim //ad-ard. tushdim;
- a:d (a:ding kYmdY)//ad-arf. ot (oting kim);
- at (ating boshi)//ad-arf. ot (otning boshi);
- ba:r //ba: (o:chaqta o:d ba:na, yo:qna?)//ad-arf. bor (o'choqda o't bormi, yo'qmi?);
- bor [borayabma(n)] //ad-arf bor (boryabman ).

yana qisqa cho'ziq unlilarga misollar: Korabuloq .a,t [//a:d] //ad-arf.ot (ism nom ), a:di (dadamning) a:di (dadamning a:di Toshmat) //ad-arf. ot (otamning oti Toshmat);

<b>11- mavzu</b>	<b>O`ZBEK TILI MASSIVINI DIALEKT ZONALASHTIRISH</b>
----------------------	---

### 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. O`zbek shevalarining dialektal bo`linishi 2. Qarluq-chigil uyg`ur lahjasi 3. Qipchoq – lahjasi 4. O`g`uz lahjasi
<i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i> A) ta`limiy: O`zbek tili massivini dialekt zonalashtirish metodikasi haqida ma'lumot berish; B) tarbiyaviy: yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o`rgatish; V) rivojlantiruvchi: bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • O`zbek shevalarining dialektal bo`linishi haqida ma'lumot berish • O`zbek tili lahjalari haqida ma'lumot berish • Dialekt zonalar haqida ma'lumot berish	<i>O`quv faoliyati natijalari:</i> • O`zbek shevalarining dialektal bo`linishi haqida ma'lumot beradi • O`zbek tili lahjalari haqida ma'lumot beradi • Dialekt zonalar haqida ma'lumot beradi
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko`rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O`quv qo`llanma, ma'ruza matni, proyektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og`zaki nazorat: savol-javob

### 1.2. O`zbek tili massivini dialekt zonalashtirish metodikasi mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>
---------------------------	-------------------------

<i>vaqti</i>	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<b>Tayyorgarlik bosqichi.</b>	<p>1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash.</p> <p>2. Ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash.</p> <p>3. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.</p> <p>4. Ma'ruzani o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.</p>	
<b>1-bosqich</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini e'lon qiladi</p> <p>1.2. o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova)</p> <p>1.3. Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar.</p> <p>Tinglaydilar.</p> <p>Berilgan savollarga javob beradi.</p>
<b>2-bosqich</b> Asosiy bosqich (55 daqiqa)	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi.</p> <p>2.2. O'zbek shevalarining dialektal bo'linishi haqida ma'lumot beradi</p> <p>2.3. O'zbek tili lahjalari haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.4. Dialektal zonalar haqida ma'lumot beradi.</p> <p>2.5. O'rganilgan bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash uchun savollar beradi.</p> <p>2.6. Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>1. Dialektal bo'linish nima?</p> <p>2. O'zbek shevalari qanday lahjalarga bo'linadi?</p> <p>3. Xaritalarda dialektal bo'linish qanday belgilanadi?</p>	<p>Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o'tkazadilar.</p> <p>Ma'lumotlar daftarlarga qayd qiladilar.</p> <p>Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko'rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

## 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha  
qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

- 2.6-3 ball - «a'lo»
- 2.1-2.5 ball - «yaxshi»
- 1.5-2- ball - «qoniqarli»
- 0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

## 2-ilova

### **TAYANCH IBORALAR**

Sheva forscha ravish, tarz degan ma'nolarni bildirib fanda o'ziga xos leksik fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilining kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. Dialekt so'zi yunoncha bo'lib, sheva degan ma'noni anglatib aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni bildiradi. Lahja arabcha so'z bo'lib u ham ravish ravish tarz sheva ma'nolarini bildiradi.

## 3-ilova

### **ADABIYOTLAR**

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O'qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

**MAVZU: O`ZBEK TILI MASSIVINI DIALEKT ZONALASHTIRISH .**

### **REJA**

- 1.O`zbek shevalarining dialektal bo`linishi.
- 2.O`zbek-qipchoq laxjasi.
- 3.Turk-barlos laxjasi.
- 4.Xiva-Urganch laxjasi.
- 5.O`rta o`zbek dialekti.

O`zbek milliy tili ko`p dialektli tillardan hisoblanadi. Bu hol uning o`ziga hos murakkab tarihiy rivojlanish sharoiti va o`zbek millatining o`tmishdagi hilma hil etnik guruhi bilan izohlanadi.

O`zbek milliy yilining uchta katta ichki manbai – uchta dialektlar guruhi bor.

Bular:

\*Qarluq – chigil – uyg`ur laxjasi

\*Qipchoq laxjasi

\*O`g`uz laxjasi

Bularning har biri o`z navbatida bir qancha dialect va shevalarga bo`linadi.

O`zbek tilining ko`p dialektli murakkab til ekanligini nazarda tutib,  
E.D.Polivanov

“O`zbek (o`zbek dialektlarining bir butun yig`indisi sifatida) yagona tizimning , hech qachon amalda bo`lmagan o`zbek bobo tilining dialektologik parchalanishi yo`li bilan emas , balki til tizimlarining birlashuvi yo`li bilan paydo bo`lgan” , deb yozgan edi.

O`zbek tilining dialekt va shevalari uzoq o`tmishda o`zbek halqining tarixiy sharoiti bilan bog`liq ravishda o`zaro umumiy halq tili bol`ib birika borgan va uning ajralmas qismiga hamda quyi formasiga aylanib qolgan.Lekin o`zbek tilining laxjalari va ayrim shevalari orasidagi ko`pgina farqlar xozirgi vaqtgacha ham saqlanib kelmoqda.

Hozir biz o`zbek shevalari va ularning o`ziga hos ayrim hususiyatlarini, fonetik va morfologik hususiyatlarga ko`ra bir birlari bilan yaqinlashgan va ayni vaqtda bir birlaridan farq qiladigan dialektal guruhlar haqida tassavvurga egamiz. Lekin shunga qaramasdan, o`zbek shevalarining haligacha muayyan bir tasnifi mavjud emas.

O`zbek shevalari turkolog va dialektologlar tomonidan turlicha tasnif qilinadi.Bu sohada professor I.I.Zarubin,prof.E.D.Polivanov, prof.K.K.Yudahin, prof.G`ozi Olim, prof.A.K.Borovkov, prof.V.V.Reshetovlarning tasnifi diqqatga sazovordir(quida mazkur tilshunoslarning tasniflari hronologik tartibda berildi)

Prof.I.I.Zarubin tasnifi.

Prof.I.I.Zarubin o`zbek shevalarini 4-guruhga bo`ldi: Hiva, Farg`ona, Toshkent va Samarqand-Buhoro shevalari. Prof.I.I.Zarubinning bu tasnifda o`zbek shevalari orasida katta o`rin tutgan hozirgi O`zbekistonning anchagina teretoriyasiga tarqalgan. Qipchoq(J – lovchi) shevalari va shimoliy o`zbek shevalari hisobga olinmay qolgan.

Prof.K.K.Yudahin tasnifi.

Prof.K.K.Yudahin o`zbek shevalari tasnifini ikki variantini tavsiya etdi.

U boshlang`ich (birinchi) variantida o`zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singormanizmni saqlash darajasiga qarab , o`zbek shevalarini 4-guruhga ajratdi. Keyinchalik prof.K.K.Yudahin o`zbek shevalarining o`ziga hos hususiyatlari bilan mufassalroq tanishib, avvalgi tasnifga tegishli aniqliklar kiritdi va o`zbek shevalarini besh guruhga bo`ldi:

\*Toshkent;

\*Farg`ona;

- \*Qipchoq;
- \*Xiva(Xiva o'guz);
- \*Shimoliy o'zbek shevalari;

Prof.E.D.Polivanov tasnifi.

Prof.E.D.Polivanov bir qator o'zbek shevalarini o'rganib, o'zbek tili sheva va dialektlari orasidagi

eng mayday farqlarni ham ko'rsatuvchi tasnifni berdi. Prof.E.D.Polivanov o'z tasnifida tildagi ikki holatni ko'zda tutdi:

- 1.Metisatsiya(qardosh tillaribig chatishuvi);
- 2.Gibridizatsiya(turli sistemadagi tillarning chatishuvi);

U shevalarda uchraydigan barcha fonetik o'zgarishlarni hisobga olib, o'zbek shevalarini bir necha guruhga bo'ldi.Eronlashish nuqtai nazaridan, ya'ni ba'zi o'zbek shevalarining tiklanish jarayonida tojik btilining ishtirokini hisobga olib shevalarni quidagicha guruhladi:

- 1.Eronlashmagan shevalar
- 2.Eronlashgan shevalar.

Toshkent, Qo'qon-Marg'ilon, Andijon-Shahrixon tipidagi shevalarda eronlashish elementlarining mavjudligini qayd qilsa, Buhoro, Samarqand, Ho'jand, O'ratepa tipidagi shevalarni maksimal eronlashgan, ya'ni tojik vokalizmini o'zida to'la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi.Eronlashmagan shevalarga Farg'onaning singarmonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo'lguzar, Mankent), o'zbek-qipchoq(j-lovchi) laxjasidagi shevalarni kiritadi.

Eronlashgan va eronlashmagan shevalar o'rtasida eronlashishning kuchsizlanishi, gibridizatsiya jarayonida turkiy elementlarning kuchsizlanishiga ko'ra eronlashfan shevalarni 4-guruhga ajratdi. Bular:

- \*Samarqand-Buhoro shevalari
- \*Toshkent guruhidagi shevalar
- \*Qo'qon-Marg'ilon guruhidagi shevalar
- \*Andijon-Shaxrihon guruhidagi shevalar
- \*4-a guruhiga uyg'urlashgan yoki umlautli shevalar kiradi.

Prof.E.D.Polivanov tasnifida yana ikki guruh sheva ajratilgan:

- 1.Shimoliy o'zbek shaxar shevalari guruhi;
- 2.Shimoliy o'zbek qishloq shevalari guruhi;

Yuqorida sanab o'tilgan shevalarning hammasi ham prof.E.D.Polivanovning ko'rsatishicha "chig'atoy" laxjasini tashkil qiladi.

Prof.E.D.Polivanov tasnifiga ko'ra ikkinchi dialekt "o'guz" laxjasi bo'lib, o'z ichiga ikki guruh shevani oladi.

Bular:

1.Janubiy Xorazm guruhi shevalari(Xiva, Urganch, Shovot, G'azavot, Xazorasp, Yangiariq, Xonqa shevalari).Shu guruhga Sho'raxon shevasi alohida bir guruh sifatida kiritilgan.

2.Shimoliy o'guz guruhi shevalari (Iqon-Qorabuloq shevalari).BU guruhga Forish tumanidagi Bog'dod shevasi alohida guruh sifatida kiritilgan.

Uchinchi dialekt "qipchoq" laxjasi bo'lib 7-guruh shevani o'z ichiga oladi.

Bular:

3.O`rta Xorazm(Xorazm shevalarining ko`p qismi;Gurlan, Bog`ot tumanlari va shabboz shevalari) va shimoliy Xorazm(Ho`jeyli, Qipchoq, Qo`ng`iroq tumanlari, Mang`it tumaning b`zi qishloq shevalari)

4.O-lovchi tip(Qozoq-Nayman, Farg`ona-Qoraqalpoq shevalari)

5.Qurama shevalari(Ohangaron vodiysidagi qurama shevalari)

6.Shimoliy o`zbek shevalari(Turkistondagi So`zoq, Chalaqo`rg`on, qishloq shevalari)

7.O`rta O`zbek(Qirq shevalari va boshqalar janubiy o`zbek shevalari), laqay shevalari va h.k.Afg`onistondagi qipchoq-o`zbek shevalari ham shu turga kiradi.

Prof.E.D.Polivanov o`zining bir qator ishlarida o`zbek shevalarining tasniflanishi hali mukammal emasligini qayd qilib, o`zbek tilshunosligi shevalarini detallashtiruvchi tasnifga muhtoj deb ko`rsatdi.

Prof.E.D.Polivanovning ayrim nazariy hulosalari to`g`ri emas. Chunki u o`z tasnifida va boshqa ilmiy tadqiqod ishlarida o`zbek shevalaridagi taraqqiyotni faqat tashqi omillarga bog`lab tekshiradi.

O`zbek tili va uning shevalarida ro`y bergan o`zgarishlar tilning davrlar mobaynida o`z ichki taraqqiyot protsessining natijasi ekanini ko`rmaydi. Lekin uning yozib olgan faktik materiallari, ayrim til hodisalariga bergan sharxlari juda aniq va xech qanday e`tiroz tug`dirmaydi.Bu jihatdan prof.E.D.Polivanovning o`zbek shevalarini o`rganishga bag`ishlagan ko`pishlari o`zining sifati va chuqurligi bilan ajralib turadi.Uning ishlari xozirgi kunda xam o`zbek shevalarini o`rganish ishiga katta yordam beradi.

Prof.G`ozi Olim tasnifi. Prof.G`ozi Olim o`zi to`plagan juda boy faktik materialga ko`ra 1936-yili,E.D.Polivanovning tasnifidan keyin, o`zbek shevalarini tasnifladi. Prof.G`ozi Olim Prof.E.D.Polivanovning ma`noga ta`sir qilmaydigan fonetik hodisalarini, tashqi ta`sirni o`z tasnifiga asos qilib olganini tanqid qilib, juft unlilarning ma`no farqlash hususiyatiga , laxja va sheva vakillari orasida tushinilmaydigan leksik, morfologik, fonetik hususiyatlarga ko`ra tasniflashni ilgari surdi.

Prof.G`ozi Olim o`zbek shevalarini avvalo uch laxjaga ajratdi:

\*O`zbek-Qipchoq laxjasi;

\*Turk-barlos laxjasi;

\*Xiva-Urganch laxjasi;

Bu laxjalar o`z navbatida shevalarga ajratiladi. O`zbek-Qipchoq laxjasi 4-shevalik (qirq, jaloyir-lokay, qipchoq,gurlan), Turk-barlos laxjasi ham 4-shevaga (Sayram-Chimkent, Toshkent-Hos, Andijon, Namangan), Xiva-Urganch laxjasi esa 2-shevaga(Xiva, Qorluq) ajratiladi.

Bu tasnifga asos qilib olingan belgilar va laxjalarga kiruvchi shevalarni joylashishi quidadagicha:

**I. O`ZBEK-QIPCHOQ LAXJASI.** Bu laxjaga O`zbekistonning Ohangaron vodiysida, Mirzacho`lda, Samarqand, Zarafshon, Buxoro atroflarida , Qashqadaryo, Surxondaryoda yashovchi o`zbeklar kiradi.Bu lahja vakillari Xorazmda, Andijon, Namangan, Qo`qon rayonlarida ham



uchraydi. Qoraqolpog'istonning Qipchoq, Chimboy, Qo'ng'iroq tumanlarida ham bor, hamda Tojikistonda va Afg'onistonning shimolida yashovchi o'zbeklar ham shu jumlagi kiradi. Bu laxjaning asosiy fonetik va morfologik hususiyatlari:

й>дж: йер-джер, йол-джол;

к>ғ: ақ-ағар, ақ-ағъ, кулақ-кулағъ;

к>г: ек-егип, кок-коги;

п>б: топ-тоби, қап-қабъ;

ғ>в: туғ-тув, тағ-тав;

г,ғ>й: тегди-тийди, егди-ийди, сьғдь-сьйдь, йьғьн-джьйьн.

So'z ohirida q, g' trushib qoladi: Sar-tar.

Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi: qattiq o'zakda :-g'a,

-qa, yumshoq o'zakda : -ge, -ke, :bala-balag'a, at-atqa, it-itke.

Jo'naliyosh kelishigi qo'shimchasi m, n, ng bilan tugagan so'zlardan keyin qattiq o'zakda -a, yumshoq o'zakda -ye : tam-tama, yenem-yeneme, tang-tanga, tiling-tilinge. Va h.k.

Prof. G'ozil olim o'zbek qipchoq laxjasini fonetik va morfologik hususiyatlariga ko'ra to'rt shevaga bo'ladi:

\*Qirq shevasi. Bu shevada qisqa I o'rnida uzun i(i:) uchraydi, maslan, i:t. Jo'nalish kelishigidagi kishilik olmoshi: mag'an, sag'an, ug'an.

\*Jaloyir-laqay shevasi. Bu shevada so'zlarning ikkinchi bo'g'inida ham e tovushi kelishi mumkin: Kegen, Bergen kabi. Jo'nalish kelishigidagi kishilik olmoshi menge, senge.

\*Qipchoq shevasi. Bu shevaga lab garmoniyasi 3-bo'g'inda ham saqlanadi: YйYге. Ko'plik affiksi:-

\*nar, -ner, -lar, -ler bilan birga -tar, -ter, -dar, -der ham ishlatiladi.

\*Gurlan shevasi. Bu shevaga o'zbek-qipchoq laxjasining hamma hususiyatlarini saqlagan,

ammo, ayrim so'zlarda so'zboshida dj ni yo'qotayotgan o'zbek shevalari kiradi. Bu shevada bala so'zining ko'pligi bag'alar bo'ladi.

**II. TURK-BARLOS LAXJASI.** Bu laxjaga Toshkent, Qo'qon, Namangan, Andijon, Marg'ilon shaharlarida va bu shaharlarning atrofida yashovchi o'zbeklar kiritiladi. Bu laxja vakillari oz bo'lsada, Samarqand, Buhoro, Qashqadaryo, Zarafshon vodiysida uchraydi. Shuningdek, Chimkent, Sayram, Osh, O'zgan shaharlarida yasovchi o'zbeklar ham shu laxjaga kiradi.

Prof. G'ozil Olim bu laxjani to'rtga bo'ladi:

1. Sayram-Chimkent shevasi. Bu shevaning o'ziga hos hususiyatlari alohida berilmagan.

2. Toshkent-Hos shevasi. Bu shevaning asosiy hususiyatlari: Tushum kelishik qo'shimchasi t bilan tugagan so'zlardan keyin -ti. Shuningdek bu qo'shimcha oldidagi undoshga moslashadi: biz-

bizzi. Istak fe'li yasovchi : -luk: keliyluk. Hozirgi zamon davom fe'li qo'shimchasi : vot :ke(l)votti.

3.Andijon shevasi. Bu shevaning asosiy hususiyatlari: tushum kelishigi qo`shimchasi –n’ –

ni. Bundan tashqari –t’, -ti, -d’, -di tarzida ham qo`llaniladi. Hozirgi zamon davom fe`li –yap, -yep qo`shimchasi orqali yasaladi: keleyepmen.

4.Namangan shevasi. Bu shevaning asosiy hususiyatlari: Hozirgi zamon davom fe`li qo`shimchasi –ut: keluttiman, bo`lishsizi kelmuttiman.

**III. HIVA-URGANCH LAXJASI.** Bu laxjaga Xiva, Xonqa, G`azovot, Shohobod, Kat, Toshovuz, Eski Urganch, Yangi Urganch, Hazorasp, To`rtko`lda yashovchi o`zbek shevalari kiradi. Bu laxja vakillari Amudaryoning so`l qirg`og`ida yashovchi o`zbeklar orasida ham uchraydi. Bu lahjaning ba`zi dialectal hususiyatlari: jo`nalish kelishik qo`shimchasi unlilar bilan tugagan qattiq o`zakda –g`a, yumshoq o`zakda –e kabi ishlatiladi. I va II shaxs kishilik olmoshlari (men, sen) yumshoq bo`lsa –da kelishik qo`shimchasini olganda qattiqlashadi: manga, sanga.Kelasi zamon fe`li yasovchi affiks –djaq,-djak,

Istak fe`li yasovchi –l` ,li(keleyli, ilil), qistash bildiruvchi buyruq fe`li: bersenge- alsanga kabi .

Xiva – Urganch laxjasini prof.G`ozi Olim ikkiga bo`ladi:

\*Xiva shevasi;

\*Qarluq shevasi;

*Xiva shevasi.* Bu shevaning asosiy hususiyatlari:singormanizmning saqlanishi, cho`ziq unlilarga ega bo`lishi, -q o`rnida -k undoshining kelishidir.

*Qarluq shevasi.* Bu shevaning o`ziga xos xususiyatlari alohida berilmagan.

Prof. G`ozi Olim tasnifi o`zbek shevalarining hususiyatlarini to`la qamrabn olmagan. Shuning uchun ham ajratilgan laxja va shevalar qaysi hususiyatlariga ko`ra guruhlashtirilgani sezilmay qoladi. Chunki, ayrim ajratilgan shevalarning lingvistik farqlarini ko`rsatuvchi belgilar berilmagan.(o`zbek-qipchoq laxjasi va unga kirgan shevalarni mustasno qilganda).

Yuqorida bayon etilgan prof. E.D.Polivanov va prof.G`ozi olimning tasniflari o`z vaqtida prof.I.A.Batmanov tomonidan tanqid qilindi.

**O`RTA O`ZBEK DIALEKTI.** Bu dialektga 2-guruh sheva kiradi:

\*O`rta o`zbek shevasi;

\*Shimoliy o`zbek shevasi;

*O`rta o`zbek shevasi* (Toshkent, Buhoro, Farg`ona turkumidagi shevalar)

*Shimoliy o`zbek shevasi*(Chimkent, Sayram, Janbul, Marki shevalari va janubiy Qozog`istonning ba`zi bir o`zbek shevalari )

Birinchi guruh shevalarida 6 yoki 7 unli fonema bo`lib, so`zlarning birinchi yoki keyingi bo`g`inlarida ochiq [ ] fonemasi ishlatiladi. Unlilarning uyg`unlashishi (unlilar garmoniyasi) ko`rinmaydi.

Bular singormanizmni yo`qotgan shevalardir.

Ikkinchi guruh shevalari esa unlilar tarkibida 8 fonema bo`lib [ ] unlisi yo`q. Bu unli o`rnida asl turkiy orqa qator [a] unlisi ishlatiladi. Unlilarning uyg`unlashishi ba`zi bir shevalarda ko`proq, bazi bir shevalarda esa kamroq saqlangan.Prof.A.K.Borovkov birinchi guruh shevalarning harakterli hususiyatlarini quidagicha ko`rsatadi:

1. Toshkent tipidagi shevalarda (Toshkent, Xonobod, Xos, Taqachi, Yangiyo'l, Chinoz kabi)

ohiri yopiq bo`gin bo`lgan ikki bo`g'inli so`zlarning har ikki bo`g'inida ham [ ] unlisi keladi.

Bu guruh shevalarida  $X_1$  va  $X_2$  o`zaro farqlanmaydi. H tovushi til orqa X bilan birikib ketgan. Shuningdek arab tilidan kirgan bo`g'iz tovushi ayn chuqur til orqa sirg'aluvchi tovushi -g' bilan ifodalanadi. Ot o`zak negizlarining ohirgi undoshi va qaratqich tushum kelishigi qo`shimchalarini bosh undoshi assimilatsiyaga uchraydi.

2. Samarqand- Buxoro turidagi shevalarda ko`pincha birinchi bo`g'inda [ ] emas [a] uchraydi. Ohirgi yopiq bog'in bilan tugagan ikki bo`g'inli o`zak-negizlarda lab-tish -v va -f uchraydi. Qaratqich va tushum kelishigi qo`shimchasi bitta jo`nalish va o`rin payt kelishigining affikisi ham` bitta -ga/ -ge, -ka/ -ke kabi.

Xozirgi zamon davom fe`li formasi -op (kelopti) kabi .

3. Farg'ona guruhidagi shevalarda [ ] odatda birinchi bo`g'inda uchraydi:

bohar, onar kabi. Hozirgi zamon davom fe`li formasi -yep (kelyepti) va boshqalar. Bu guruh shevalarining lug`at tarkibida ham ma`lumdarajada ham farq bor.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki , o`zbek tili O`zbek tilining dialekt va shevalari uzoq o`tmishda o`zbek halqining tarixiy sharoiti bilan bog`liq ravishda o`zaro umummiy halq tili bo`lib birika borgan va uning ajralmas qismiga hamda quyi formasiga aylangan. Shuningdek, bu dialektning turli turlarga va lahjalarga ajralganligi bu tilning murakkab, lekin mazmunliligidan dalolat beradi. Biz bu tilni o`rganar ekanmiz, o`zbek tilining dialekti, shevalari, laxjalari va boshqa unsurlarini ham e`tiborga olish zarur. Chunki har bir laxjaning, shevaning o`ziga hos hususiyati, ko`rinishlari mavjud. Masalan, Xiva shevasini asosiy hususiyatlari bu singormanizmning saqlanishi, cho`ziq unililarga ega bo`lishi, -q o`rnida -k undoshining kelishidir.

O`rta o`zbek shevalasida 6 yoki 7 unli fonema bo`lib, so`zlarning birinchi yoki keyingi bo`g'inlarida ochiq [ ] fonemasi ishlatiladi.

Samarqand- Buxoro turidagi shevalarda esa ko`pincha birinchi bo`g'inda [ ] emas [a] uchraydi.

Ohirgi yopiq bog'in bilan tugagan ikki bo`g'inli o`zak-negizlarda lab-tish -v va -f uchraydi.

Toshkent tipidagi shevalarda esa ohiri yopiq bo`gin bo`lgan ikki bo`g'inli so`zlarning har ikki bo`g'inida ham [ ] unlisi keladi.

Bundan ko`rinib turibdiki, har bir shevaning o`ziga hos hususiyatlari, sir-asrorlari mavjud. Shunday ekan hulosa qilib shunday deyish mumkinki, bu tilni o`rganish o`quvchidan ancha bilim va ko`nikma talab qiladi, men bu ishni bajarib, o`zbek tili haqida etarli bilim va ko`nikmalarga ega bo`ldim va bu bilimlarimni kelajakda o`z faoliyatimda qo`llayman.

Zahiriddin Muhammad Bobur  
nomli Andijon davlat

<b>12- mavzu</b>	<b>O'ZBEK TILI MASSIVINI DIALEKT ZONALASHTIRISH KONSEPSIYASI</b>
----------------------	--

### 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 7 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Turkiy tillar tarixini o'rganishda areal lingvistikaning ahamiyati 2. Areal lingvistika va dialektologiyaning o'rganish obyektlari 3. Shevalarni dialektal zonalashtirishni o'ziga xos xususiyatlari
<i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i> <i>A) ta'limiy:</i> O'zbek tili massivini dialekt zonalashtirish konsepsiyasi haqida ma'lumot berish; <i>B) tarbiyaviy:</i> yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o'rgatish; <i>V) rivojlantiruvchi:</i> bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> • Turkiy tillar tarixini o'rganishda arel lingvistikaning o'rnini haqida ma'lumot berish • Areal lingvistika va dialektologiyaning o'rganish obyektlari haqida ma'lumot berish • Shevalarni dialektal zonalashtirishni o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i> • Turkiy tillar tarixini o'rganishda arel lingvistikaning o'rnini haqida ma'lumot beradi • Areal lingvistika va dialektologiyaning o'rganish obyektlari haqida ma'lumot beradi • Shevalarni dialektal zonalashtirishni o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya

<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki nazorat: savol-javob
-------------------------------	------------------------------

## 1.2. O'zbek tili massivini dialekt zonalashtirish konsepsiyasi mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>Ta'lim beruvchi</i>	<i>Ta'lim oluvchilar</i>
<i>Tayyorgarlik bosqichi.</i>	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma'ruzani o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	
<i>1-bosqich</i> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ma'ruza mashg'ulotining mavzusini e'lon qiladi 1.2. o'quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova) 1.3. Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar. Berilgan savollarga javob beradi.
<i>2-bosqich</i> Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo'yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Turkiy tillar tarixini o'rganishda areal lingvistikaning o'rnini haqida ma'lumot beradi 2.3. Areal lingvistika va dialektologiyaning o'rganish obyektlari haqida ma'lumot beradi 2.4. Shevalarni dialektal zonalashtirishni o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi 2.5. O'rganilgan bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash uchun savollar beradi. 2.6. Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi. 1. Turkiy tillar tarixi haqida nimalar bilasiz? 2. Areal lingvistikaning obyektlari haqida qanday fikrlar ayta olasiz? 3. Shevalarni dialektal zonalashtirishda nimalar e'tiborga olinadi?	Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o'tkazadilar.  Ma'lumotlar daftarlarga qayd qiladilar. Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.
<i>3-bosqich</i> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova) 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning	Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.

	baholash mezonlari bilan tanishtiradi.	
	3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga vazifa qilib topshiradi.	

**1-ilova**

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

2.6-3 ball - «a'lo»

2.1-2.5 ball - «yaxshi»

1.5-2- ball - «qoniqarli»

0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

**2-ilova**

## **TAYANCH IBORALAR**

Areal lingvistika – shevalarni hududiy o`rganadigan tilshunoslikning yangi yo`nalishidir.

Sheva forscha ravish, tarz degan ma'nolarni bildirib fanda o`ziga xos leksik fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan milliy (xalq) tilining kichik territoriyaga oid qismini anglatadi. Dialekt so`zi yunoncha bo`lib, sheva degan ma'noni anglatib aksariyat til xususiyatlari o`xshash bo`lgan shevalarni bildiradi.

Lahja arabcha so`z bo`lib u ham ravish ravish tarz sheva ma'nolarini bildiradi.

**3-ilova**

## **ADABIYOTLAR**

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O`qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

## **Mavzu : O`ZBEK TILI MASSIVINI DIALEKT ZONALASHTIRISH KONSEPSIYASI**

### **Reja**

1. Turkiy tillar tarixini o`rganishda areal lingvistikaning ahamiyati.
2. Areal lingvistika va dialektologiya.

Lingvistik geografiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib ,u ma`lum territoriyada tarqalgan til hodisalari ( tovushlar , gramatik formalar , so'zlar)ni aniqlaydi ularning o'sha joyga bo'lgan munosabatini ko'rsatadi , territorial til xususiyatlarini xalq tarixi , til tarixi bilan aloqador holda qiyoslab tushuntirib

kartalar orqali ifodalaydi . Lingvistik geografiya ham territorial dialektlarni o'rganadi . Uning eng muhim hususiyatlaridan biri ko'rgazmaliligi bo'lib , unda ma'lum til hodisalarining o'rni va tarqalish chegarasi kartalar yoki atlas vositasida aniq belgilab beriladi .Karta ham atlas ham lingvistik geografiyaning ifoda vositasi bo'lib uning asosiy maqsadi tilning taraqqiyot qonuniyatlari va yo'llarini , konkret dialektlarning paydi bo'lishi va hozir mavjudligining sabablarini , dialekt hususiyatlarining milliy tilga bo'lgan munosabati va o'zaro aloqasi masalalarini tushuntirib berishdir .Lingvistik geografiya XIX asrning o'rtalarida dialektologik kuzatishlar rivojlangan , dialektologlar dialektlar va ularning hususiyatlari to'g'risida yetarli faktik materiallar to'plagan joylarda paydo bo'ldi .Lingvistik geografiya yuzasidan olib borilgan birinchi tajribalar tilni bu yangi metod orqali o'rganish qanchalik natijali ekanini ko'rsatdi . Tilshunoslikdagi bu yangi yo'nalishning rivojida dialektologik fikrning taraqqiyotiga juda katta tasir ko'rsatgan Yevropa lingvo geograflarining belgili hismatlari bor . Lingvistik geografiyaning asoschilari :

fransiyada Jan Jileron , germaniyada Georg Venker, F. Vrede , P Mayerlar , rusiyada I.I Sreznevskiy kabilardir .Maskur olimlarning asarlari tufayli lingvistik geografiyaning asosiy o'rni predmeti va vazifasi belgilandi .Ko'rishimiz mumkinki tilshunoslik geografiya bilan ham uzviy aloqada bo'ladi chunki davrlar o'tishi bilan ma'lum bir tilda so'zlashuvchi etnik guruhlar turli joylarga tarqalib o'troqlashadilar . Demak tillarning ham tarqalish o'rinlari mavjud ularning tarqalish joylarini kartalashtirish imkoni bor .Shunday ekan tilshunoslik bilan geografiya o'rtadida qanday munosabat bo'lishi tabiiy . Bunday munosabat ayniqsa muayyan lingvistik hodisalarning tarqalish zonalarini belgilashda , lingvistik va deolektik asarlar tuzishda yorqin namoyon bo'ladi .Tilshunoslik bilan geografiyaning anashunday munosabatiga etibor qaratilishi natijasida lingvistik geografiya yoki lingvo geografiya va areal lingvistika maydonga keldi . Areal lotincha area maydon kenglik so'zidan olingan . Areal lingvistika tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib lingvistik hodisalarning muayyan kenglikda tarqalishini va tillaro munosabatini lingvistik geografiya metodlari asosida o'rganadi .Areal lingvistikaning asosiy vazifa til hususiyatlarini hududiy bo'linishini tavsiflash va izoglossalarni talqin qilishdan iboratdir natijada dialektlar , tillar va areal jamoalar ( til itifoqlari) o'rtasida o'zaro ta'sir maydonlari ( areallari ) aniqlanadi . Areal lingvistika atamasi tilshunoslikka M.J.Bartoli va DJ. Viddasi tomonidan 1943 yilda olib kirildi . Uning tamoyillari 1925 yildayoq M. Bartoli tomonidan olg'a surilgan. Areal lingvistika lingvistik geografiya va dialoktologiya bilan chambarchas bog'liqdir . Uning markaziy tushinchasi til yoki dialekt aeralidir. Boshqacha aytganda, ayrim lingvistik hodisalarning tarqalish chegarasi va ularning yig'indisidir. Shuningdek, areal atamasi ayrim tillar va tillar guruhining tarqalish chegarasini ifodalash uchun ham qo'llaniladi . Masalan Turkiy areal , hind ovropa areali va boshqalar . Areal lingvistikaning markaziy tushunchasi izoglossadir . Tilning barcha sathlari uchun bu tushincha harakterli bo'lib , sathlararo yana konkretoq atamalar bilan farqladani ; fonetik izoglossalar uchun izofonlar , leksik izoglossalar uchun izolekslar , semantic taraqqiyot uchun izosemlar va boshqalar . Izoglossalar bo'g'liq va konvergent izoglossalarga bo'linadi . Bularning birinchisi

bir genetik umumiylikka ega bo'lgan tillarda rivojlanadi va ularning tiklash uchun qiyosiy-genetik tadqiqotlar usulidan foydalaniladi. Konvergent izoglossalar esa uzoq davrlar bir xududda yaqin aloqada bo'lish natijasida areal umumiylikning vujudga kelishi asosida hosil bo'ladi. bunday izoglossalar tipologik tahlil usllari asosida aniqlanadi. Areal lingvistikaning shaklnashida dialektologik atlaslar katta xizmat qildi.

Areal lingvistikaning paydo bo'lishi va rivojlanishida A.Meye, Bartoli B.A.Terrachini, Dj.Bonfante,B.Pizani singari olimlarning xizmatlari alohida ajralib turadi. Ular ushbu yo'nalishning nazariy asosini, tushunchaviy apparatini belgilab berdilar.

Turkiy tillarni areal nuqtayi nazardan o'rganishda N.Z.Gadjiyeva, A.B.Jo'rayev singari olimlarning xizmatlari katta. Ayniqsa A.B.Jo'rayevning o'zbek tilini areal o'rganishning nazariy asoslarini belgilab berishdagi xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbek maxalliy shevalarini o'rganishda "CHig'atoy gurungi " olg'a surgan g'oya katta xizmat qildi. Bunga ko'ra tilimizning adabiyligi arabiyligida emas o'zidadir ,shuni turgizmak tilimiz qoidalarini tatarcha yoxud usmonlicha emas ,tilimizning o'zidan olmoq kerak edi. Shuning uchun xalq og'zida yurgan so'zlarni ,xalq adabiyoti bo'lg'on ertaklar ,maqollar yig'ib tekshirmak lozim degan qarorga keladi.Natijada jonli xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga bog'lanadi.Ana shunday harakat tufayli G'zi Olim YUnusov ning "Alpomish" dostoni ,"Alla", to'g'risida bir-ikki og'iz so'z kabi maqolalari, "O'zbek urug'larida qotag'nlar va ularning tili" O'zbek lahjalarining tasnifidan bir tajriba" singari risolalari e'lon qilindi. Shuningdek mahalliy o'zbek shevalarini o'rganish va o'zbek dialektologiyasining fan sifatida shakllanishida E.D.Polivanov alohida o'rin egallaydi. Uning bir necha tillarni bilishi ,eshitish qobiliyatining o'ta kuchliligi har bir tilning lahja shevalaridagi farqli nuqtalarni bir eshitishda ilg'ab olish imkoniyatini berdi. Ulkan nazariy bilimga egaligi esa to'plangan materiallardan katta nazariy umumlasmalar chiqarish imkoniyatini yaratdi. Uning "Toshkent dialektining tovush tarkibi"(1922),"Toshkent dialektining fonetuk yozuv namunalari"(1924), "shovot tumani Qiyot -qo'ng'iroq qishlog'i shevasi"(1934), "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili", (1935) kabi asarlari o'zbek dialektologiyasining shaklanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, I.K.Yudaxin , A.K. Borovkov , V.V. Reshetovlar F.O. Yunusovlar va E.D.Polivanov asos solgan shevashunoslik ilmining rivoji uchun o'z hissalarini qo'shdilar. K.K.Yudaxinning "Qorabuloq shevasining ayrim xususiyatlari" (1927), "Chig'toy tili fonetik tarkibi hadidagi masalalar yuzasidan materiallar "(1929), A.K. Borovkovning "Umlautli yoki uyg'urlashgan o'zbek shevalari tavsifiga doir "(1946), "O'zbek shevalari tasnifi masalalari "(1953), kabi asarlari o'zbek shevalari ni tasnif va tadqiq etishda azniqsa V.V.Reshetov va Sh. SHOabdurahmonovlarning xiymatlari katta boldi . V.V.Reshetov " O'zbek tilining Marg'lon shevasi", (1941), "O'zbek tilining Namangan shevasi haqida" (1953) , kabi maqolalari , "Toshkent viloyati qurama shevalari. Fonetik va morfologig sistema."(1952), monografiyasi ,SH.Shoabdurahmonovning "O'zbek adabiy tili va xalq shevalari" ,kitoblari o'zbek dialektologiyasining rivoji va uning fan sifatida



o'qitilishida katta voqe bo'ldi. 2-jildli "O'zbek dialektologiyasidan materiallar" , asarining maydonga kelishi ,F.Abdullayevning "Xorazm shevasi", "Xorazm shevalari fonetikasi " , M.Mirzayevning buxoro o'zbek shevalari ,S.Ibragimovning Andijon shevasi tadqiqotiga bag'ishlangan asarlari ,X.Doniyorovning "j-lashgan dialektlarni o'zbek adabiy tiliga qiyosan o'rganish tajribasi", A. Shermatovning Qashqadaryo shevalariga , B.Jo'rayevning Shaxrisabz shevalariga ,A.Ishayevning mang'it shevalariga , N.Rajabovning o'zbek xalq shevalarida fe'lning morfologig tuzilishiga ,

M.Yunusovning Qo'qon shevalariga ,Q. Muhammadjonovning Janubiy Qozog'iston o'zbek shevalariga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek shevalariga bag'ishlangan o'zbek dialektologiyasini yuqori cho'qqiga olib chiqdi. O'zbek dialektologiyasining keng front bo'ylab ravnaq topishi o'zbek tilini lingvistik kartalashtirish imkoni yaratdi . Shuningdek lingvogeografik va areal tadqiqotlar olib borishga qulay sharoit yaratdi. A.Shermatovning lingvogeografiyaga, B.Jo'rayevning areal lingvistikaga doir tadqiqotlarining dunyoga kelishi o'zbek tilshunosligining katta yutug'idir.

Yuqoridagi fiklardan shunday xulosa qilish mumkin :

areal lingvistika turkey tillar tarixini o'rganish uchun ahamiyatlidir. Chunki tilda fonetik , leksik , Grammatik dialektizmlar uchraydiki bu dialektizmlar qaysi xududda qanday ma'noda ishlatiladi buni aniqlash uchun albatta lingvogeografiyaga murojat qilinadi. Lingvogeografiya esa dialektologiya materiallariga tayanadi. Lingvogeografiya bilan dialektologiya makon va zamonda turlicha munosabatda bo'lsada makon faktori lingvogeografiyada ham , dialektologiyada ham bir xil ahamiyat kasb etadi. ayniqsa territoriya faktori lingvogeografiyaning asosini tashkil etadi. Bir qancha olimlar tomonidan yaratilgan , dialektologiyaga bag'ishlangan asarlar areal lingvistikani rivoji uchun katta ahamiyat kasb etadi.

<b>13- mavzu</b>	<b>O`ZBEK TILSHUNOSLIGIDA AREAL TADQIQOTLARNI AMALGA OSHIRISHNI O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b>
----------------------	--

### 1.1.Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 5 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.O`zbek shevalarini areal o`rganish 2. O`zbek tilshunosligidagi areal tadqiqotlar 3. Areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o`ziga xos xususiyatlari

<b>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</b>	
A) <i>ta'limiy</i> : O'zbek tilshunosligida areal tadqiqotlarni amalgam oshirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish;	
B) <i>tarbiyaviy</i> : yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o'rgatish;	
V) <i>rivojlantiruvchi</i> : bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.	
<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O'quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbek shevalarini areal o'rganish haqida ma'lumot berish</li> <li>• Areal tadqiqotlar haqida ma'lumot berish</li> <li>• Areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot berish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• O'zbek shevalarini areal o'rganish haqida ma'lumot beradi</li> <li>• Areal tadqiqotlar haqida ma'lumot beradi</li> <li>• Areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi</li> </ul>
<b>Ta'lim berish usullari</b>	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat, aqliy hujum
<b>Ta'lim berish shakllari</b>	Ommaviy, jamoaviy
<b>Ta'lim berish vositalari</b>	O'quv qo'llanma, ma'ruza matni, proyektor
<b>Ta'lim berish sharoiti</b>	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og'zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. O'zbek tilshunosligida areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari mavzusidagi ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta'lim beruvchi</b>	<b>Ta'lim oluvchilar</b>
<b>Tayyorgarlik bosqichi.</b>	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma'ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma'ruzani o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini ishlab chiqish.	

<p><b>1-bosqich</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)</p>	<p>1.1.Ma’ruza mashg’ulotining mavzusini e’lon qiladi 1.2. o’quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova) 1.3.Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.</p>	<p>Tinglaydilar. Tinglaydilar. Berilgan savollarga javob beradi.</p>
<p><b>2-bosqich</b> Asosiy bosqich (55daqiqa)</p>	<p>2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo’yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. O`zbek shevalarini areal o`rganish haqida ma'lumot beradi 2.3.Areal tadqiqotlar haqida ma'lumot beradi 2.4.Areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o`ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumot beradi 2.5. O`rganilgan bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash uchun savollar beradi. 2.6.Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi. 1. Qaysi tilshunos olimlar areal tadqiqotlar olib brogan? 2. Turkiy tillardagi xaritalar haqida bilasizmi? O`zbek tilshunosligidagi yaratilgan xaritalarni bilasizmi?</p>	<p>Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o`tkazadilar.  Ma'lumotlar daftarlarga qayd qiladilar. Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b> Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo’yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova) 3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar. Vazifani yozib oladilar.</p>

### 1-ilova

**Har bir ma’ruza va amaliy mashg’ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo`yiladi. Reyting bo`yicha natijalar bahosi:**

2.6-3 ball - «a’lo»

2.1-2.5 ball - «yaxshi»

1.5-2- ball - «qoniqarli»

0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

## TAYANCH IBORALAR

Dialektal atlas – xalq shevalarini hududiy tarqalishini diakritik belgilar orqali xaritalarda ko`satish

Areal tadqiqot xalq shevalarini hududiy o`rganish

Umumturkiy leksika barcha turkiy tillarga oid leksik qatlam

## ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O`qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.
- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O`zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. T., Fan. 2006. 220 b.

## Mavzu: O`ZBEK TILSHUNOSLIGIDA AREAL TADQIQOTLARNI AMALGA OSHIRISHNI O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Reja.

1. O`zbek shevalarini areal o`rganish
2. O`zbek tilshunosligidagi areal tadqiqotlar
3. Areal tadqiqotlarni amalga oshirishning o`ziga xos xususiyatlari

Диалектология фани грекча сузидан олинган булиб, шева маъносини билдиради. У фан сифатида муайян тилдаги шева, диалект, лаҳжаларнинг тил хусусиятларини урганати, уларни таснифлайди, таркалиш чегарасини аниқлайди. Шеваларнинг ухшаш ва ноухшаш белгиларини топади. Шева унсурларини адабий тилга солиштириб, уларнинг фонетик,

лексик,морфологик ва синтактик узига хосликларини чуқур тадқиқ этади. Масалан Уйчи шеvasидаги : *Лайлакнинг кетишига бокма, келишига бок* . Куришиб турибдики ,бу мазкур ҳолат шева эгалари тилида шундай ишлатилган. Шу маънода тил фани булимлари ичида алоҳидада унинг узвий бир қисми сифатида шевашунослик соҳаси ҳам мавжудки , ҳеч қайси тил бундан мустасно эмас . Объектни урганиш нуктаи-назаридан диалектология иккига булинади : 1) тарихий диалектология; 2) тасвирий диалектология.

Тарихий диалектология маълум бир тилдаги шева унсурларининг келиб чиқиши,ривожланиши,даврларда узгариши каби масалаларни урганади . Шеваларни урганиш халқ тили учун муҳимдир. Ўзбек халқ шеваларини урганиш мобайнида , адабий тилдан чиқиб кетган унсурларни топиб, уларни қайта тиклаб тулдиришимиз мумкин. Масалан: , *мехржон, чанпи* чумма Бу эса ҳозирги ўзбек тилининг такомиллаштиришга ёрдам беради. Ўзбек шевашунослигининг олдига қўйилган мақсад ва вазифалари: 1 . Ўзбек халқ шеваларининг фонетик ва лексик хусусиятларини тадқиқ қилиш;

2.Миллий адабий тилнинг пайдо бўлиши ва унинг ривожланишида шеваларнинг тутган урнини аниқлаш;

3.Таянч шеваларнинг позицияларини белгилаш;

4.Шеваларнинг узаро муносабатини тиклаш;

5.Шеваларнинг кардош ва нокардош тиллар билан алоқасини топиш;

6.Шеваларнинг тарқалиш чегараларини топиш;

7.Шеваларни таснифлаш;

8.Шеваларнинг лирғвистик харитасини тузиш.

Ушбу курснинг бош мақсади адабий тил ва диалектлар уртасидаги фарқни аниқ курсата

билишни ташкил қилади. Шуниси қизиқки, бир пайтлар адабий тилимизда ишлатилиб ҳозирги кунда йуқолган тил бирликлари , айрим шеваларда аниқ сакланиб қолган.

Диалектология фанида шева ,диалект ,лаҳжа атамалари фаол ишлатиладики , уларнинг

маъноларини билмасдан мазкур фанни узлаштириб бўлмайди. Шева муайян тилнинг фонетик, лексик , грамматик хусусиятларига эга бўлган энг кичик қисми . Масалан: Учқургон, Косон шеваси каби

Диалект умумлингвистик атама бўлиб, шева ёки бир неча шеваларнинг йигиндиси маъносида ишлатилади . Лаҳжа бир-бирига яқин бўлган шевалар йигиндиси. Ҳозирги ўзбек адабий тилда учта лаҳжа бўлиб, уларнинг ҳар бири адабий тил ривожига муҳим аҳамиятга эга:

1.Карлук-чигил-уйғур лаҳжаси;

2.Қипчоқ лаҳжаси;

3.Ўғуз лаҳжаси.

Ер юзида 6 млрд аҳоли яшайди ,улар 2976 та тилда гаплашади. Шундан 200 хил тилда 1 млн га яқин , 70 хил тилда 5 млн дан ортиқ, 13 хил тилда 50 млн дан ортиқ аҳоли гаплашади. Шу тиллардан бири ўзбек тилидир. Туркий тиллар оиласида 30 га яқин тиллар мавжуд. Ўзбек тилида 20 млн. дан ортиқ аҳоли сузлашади . Уларнинг асосий қисми Ўзбекистонда ва Марказий Осиёда

яшайди. Ўзбекистон республикасида ташкари Афғонистон, Туркия, Саудия Арабистонда ҳам ўзбеклар яшайди. Худудий ранг-баранглик куплаб шева-диалектларни келиб чиқишига сабаб булади. Ўзбек халк шеваларини атрофлича тушуниб текшириб чиккан Поливанов шундай деган: «Т Турк тилларнинг биронтаси ҳам шевалараро ўзбек тиличалик фаркланмайди. Ўзбек тили диалектлари келиб чиқишидан ранг-барангдир. Бу эса табиий ўзбек адабий тили учун бирорта диалектни асос қилиб олиш ниҳоятда қийин даражада». Маълумки ,туркий тиллар учта катта гуруҳга булинади .

1 . Жанубий-гарбий ўғуз гуруҳи;

2 . Шимолий қипчоқ гуруҳи;

3 . Шарқий карлук гуруҳи. Кизиги шундаки ,ўзбек тилида ҳар учала гуруҳга тегишли сузлар қайд этилган. Куриниб турибдики, ўзбек тили бошқа тиллар билан айрим жихатларига кура ухшаса , бошқа жихатларига кура кескин фарк қилади. Бу масалани сезган олимлар қадим замонлардан бошлаб, Ушбу масалани жиддий ургана бошлаганлар. Шевашунослик фанининг пайдо булиши Махмуд Кошғарийга бориб такалади. Унинг «Девони луготит-турк» асарида уша даврдаги қабилалар ва уларнинг тили ҳақида суз юритар экан, узи билмаган ҳолда диалектологик маълумотларни қайд этиб кетган. Навоий, Бобур сингари мумтоз адабиётимиз вакиллари ижодида ҳам маълумотлар бор, бироқ шуни алоҳидада таъкидлаш жоизки, утмиш олимларнинг диалектологик қарашлари монографик режада олиб борилмаган. Уларда қамчиликлар учрайди.

Ўзбек халк шеваларини урганиш Урта Осиёни Россия томонидан босиб олингандан кейин бошланди. Бу ишда Поливанов, Бароккоф, Юдахин, Решетов қабил олимларнинг хизмати бор. Поливанов 1920-27 йилларда Туркистон шевалари бўйича маълумотлар йигиб «Ўзбекская диалектология и ўзбекский литературный язык» қабил асарлар ёзди . Ўзбек тили ривожига катта ҳисса қушди . Унинг ишини Юдахин давом эттирди. У асосий эътиборини ўзбек-уйғур, ўзбек-қирғиз тиллари орасидаги муносабатни урганишга қаратди. У бир неча асар ва рисоалар яратди. Ўзбек олимларидан Гози Олим Юнусов, Ф.Абдуллаев, Ш. Шоабдурахмонов, С. Иброҳимов, Х. Дониёров, Ё Гуломов, Б. Ражабов, К. Муҳаммаджонов қабиллар ўзбек тили диалектологияси фанини юқори босқичга қутарилишида хизмат қилдилар. Ўзбек халк шеваларини урганиш қизгин давом этмоқда .

Ўзбек халк шеваларини тасниф қилиш масаласи ута мураккаб масала бўлиб, у тадқиқотчидан катта амалий тажриба талаб қилади. Бу ишга ҳисса қушган олимлардан бири Заубиндир. У ўзбек шеваларини уз гуруҳича булади: 1 . Хива; 2 . Фарғона; 3 . Тошкент; 4 . Самарқанд, Бухоро. Шимолий ўзбек ва «ж» ловчи ўзбек шевалари Заубин таснифига қирмай қолган. Профессор Юдахин ўзбек халк шеваларини 5 гуруҳга булади: 1 . Тошкент; 2 . Фарғона; 3 . Қипчоқ; 4 . Хива; 5 . Шимолий ўзбек шевалари. Профессор Поливанов ўзбек халк *шевалариХива; 5 . Шимолий ўзбек* шевалари. Профессор Поливанов ўзбек халк шеваларини атрофлича текшириб , улардаги 2 хусусиятга алоҳидада диққат қилган: 1 . Метициация-қардош тилларнинг қатишуви;

2 . Гибридизация-турли тилларнинг чатишуви.

Поливанов ўзбек тилида учта катта диалект борлигини таъкидлайди: 1. Чигатой ; 2. Ўғуз; 3 . Қипчоқ. Чигатой диалектини тасниф қилар экан , унга қирган шеваларни эронлашган ва эронлашмаган ҳолатларига алоҳидада эътибор берган. Поливанов ўзбек шеваларини таснифлашда ташки омилларга қупрок эътибор берган. Поливановдан ташқари Бароккоф,Решетов каби олимлар ўзбек халқ шеваларини таснифлашда уз хиссаларинини қушганлар.

Бароккоф таснифи: У ўзбек шеваларини таснифлашда икки хил вариантни тақлиф этган. У узининг 1-вариантида шеваларнинг фонетик хусусиятларига катта эътибор берган .Шунга қура :1-«о» ловчи;

2-«а»ловчи;

2.а) «ё»ловчи;

б) «ж»ловчи.

Решетов таснифи: 1-Қарлук-чигил уйғур лаҳжаси; 1. Фарғона гуруҳи :

а)Наманганни Уйчи,Чортоқ шевалари;

б)Андижон,Шахрихон шевалари;

в)Уш,Узган шевалари;

г)Қукон,Маргилон.

2. Тошкент гуруҳи: а) Тошкент шевалари Паркент,Пискент,Қорахитой;

б) Жиззах шевалари Қашқадарё вилоятидаги Бойтерак шевалари

3. Қарши гуруҳи: а) Қарши шевалари Шахрисабз, Китоб,Яккабоғ шевалари;

б) Самарқанд,Бухоро шевалари Хужанд,Чуст,Қосон

4. Шимолий ўзбек гуруҳи : а) Ийкон,Қорабулоқ;

б) Туркистон,Чимкент,Сайрам шевалари.

Тилшунослик география билан ҳам узвий алоқадир. Чунки даврлар утиши билан маълум бир тилда сузлашувчи этник гуруҳлар турли жойларга тарқалиб утроклашадилар . Демак,тилларнинг ҳам тарқалиш уринлари мавжуд . Уларнинг тарқалиш жойларини қарталаштириш имкони бор. Шундай экан, тилшунослик билан география уртасида муносабат мавжуд. Бундай муносабат, айниқса, муайян лингвистик ходисаларнинг тарқалиш зоналарини белгилашда , лингвистик ва диалектик атласлар тузишда ёрқин намоён булади.

Тилшунослик билан географиянинг муносабати орқали лингвистик география ёки лингвогеография ва ариал лингвистика майдонга келган. Лингвогеография лингвистик ходисаларнинг тарқалиш зоналарини урганувчи тилшуносликнинг алоҳидада булими сифатида х!х асрнинг охирида диалектологиядан ушиб чиккан. Лингвогеографиянинг пайдо булиши ва ривожланиши тилдаги диалектал фарқланишларни қарталаштириш ва диалектологик атласлар яратиш билан боғлиқдир. Бундай атласлар хар-хил булиши мумкин: айрим худудни акс эттирувчи атласлар, турли системага мансуб булган тилларнинг тарқалишини акс эттирувчи атласлар...

60-йиллардан бошлаб, туркийшунослар ҳам лингвогеографияга, лингвистик атлас тузиш муаммоларига диққатини жалб этдилар.

Бу муаммога бағишланган В.М.Жирмуниский, М.Ш.Шералиев, Н.Б.Бурганов, Л.З.Заляй, Г.Б.Бакинова, Н.А.Баскаков, Л.А.Покровская, Э.В.Севертян, В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов, А.Шерматов сингари олимларнинг катор асарлари дунёга келди.

## **O'zbek tili massivni dialekt zonalashtirishi kontsepsiyasi.**

### **1. Dialektologiya**

Dialektologiya (grekch, dialektos-sheva so'zidan) tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, u biror tilning mavjud dialektlarini, ya'ni mahalliy lahja va shevalarini o'rgatadi. O'zbek dialektologiyasi fani O'zbekiston territoriyasidagi va qardosh respublikalardagi Qozog'iston, Qirgiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'istondagi) o'zbek tilining turli dialekt, lahja va shevalarni tekshiradi.

Ob'ektni o'rganish jihatidan dialektologiya ikki turlidir: 1)tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya, 2)tarixiy dialektologiya.

Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya mahalliy lahja va shevalarga xos fonetik va leksik-grammatik xususiyatlarni qayd qilish bilan chegaralanadi. Tarixiy dialektologiya esa, tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shu xususiyatlarning kelib chiqishi, rebojlanishi, turli davrlarda o'zgarishi, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevalarning tashkil topishida boshqa tillarning ishtirokini aniqlash kabilarni ham o'rganadi, lahja va shevalarni lingvo-geografik usullar bilan o'rganish ham birinchi navbatda tarixiy maqsadlarni ko'zda tutadi.

### **2. Shevalarni o'rganish**

Shevalarni o'rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda allaqachon yo'q bo'lib ketgan yoki ma'lum darajada o'zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. Bu jihatdan dialektologiya til tarixini o'rganish uchun juda ahamiyatlidir.

Shuningdek, o'zbek dialektologiyasi ham o'zbek tili tarixini o'rganish, uning ayrim noaniq masalalarini yoritish uchun asosiy manbadir.

Shevalarni o'rganish xalq tarixi, etnografiyasi uchun ham muhimdir. Masalan, shevalarni o'rganish orqali o'tmishdagi urug'-qabilalarning joylashish territoriyalarini aniqlash, toponimlar, gidronimlar va shu kabi nomlar vositasida xalq tarixining ayrim kartinalarini yaratmoq mumkin bo'ladi.

### **3. Lahja, sheva, dialekt terminlari.**

Bu terminlar dialektologiya fanining asosiy ob'ektini ifodalaydi. Sheva- biror tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismi; lahja- shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvchi shevalar yig'indisi. Dialekt termini dialektologik adabiyotlarda ko'pincha lahja ma'nosida, ba'zan sheva ma'nosida ham qo'llanadi. Keyingi vaqtlarda o'zbek dialektologiyasida dialekt termini sheva ma'nosida ham, lahja (shevalar yig'indisi) ma'nosida ham uchraydi.

Terminlarni stabillashtirish maqsadida lahja, dialekt va sheva tushunchalari quyidagi ma'no o'zgaliklari bilan qabul qilindi: lahja ruscha <наречие>, dialekt



umumlingvistik <диалект> termini ma'nosida, sheva esa ruscha <говор> ma'nosidadir.

#### **4. Dialektologiyaning asosiy vazifasi.**

Dialektologiya fanining ob'ekti mahalliy dialekt, lahja va shevalar bo'lib, maqsadi va vazifasi quyidagilardan iborat:

- 1) ayrim sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish;
- 2) milliy tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o'rnini va shu milliy tilga asos bo'lgan shevalarni aniqlash;
- 3) shevalarning o'zaro munosabatini, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo'lgan munosabatlarini belgilash;
- 4) o'xshash xususiyatlariga ko'ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash;
- 5) umumiy o'xshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma'lum territoriyada tarqalish kartalarini tuzish va shevalarni klassifikatsiya (tasnif) qilish.

#### **5. O'zbek tilining boshqa turkiy tillarga bo'lgan munosabati.**

O'zbek tili turkiy tillar klassifikatsiyasiga ko'ra turkiy tillarning uch guruhiga kiritilgan. Sababi o'zbek tili o'zining fonetik strukturasi, grammatik qurilishi va lug'at sostaviga ko'ra turli turkiy tillar bilan umumiy xususiyatlarga ham egadir. O'zbek tilining shahar shevalariga asoslangan hozirgi zamon adabiy tili esa, janubiy-sharqiy gruppaga kiradi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida miqdor va sifat jihatidan farq qiladigan 6 unli tovush bor. Boshqa turkiy tillar esa 9 va undan ortiq unliga ega bo'lishlari bilan o'zbek adabiy tilidan farqlanadi.

#### **6. O'zbek shevalarining dialektal bo'linishi.**

6.1. O'zbek xalq shevalarining klassifikatsiyasi. Hozirgi biz o'zbek shevalari va ularning o'ziga xos ayrim xususiyatlari, fonetik va morfologik xususiyatlarga ko'ra bir-birlari bilan yaqinlashadigan va ayni vaqtda bir-birlaridan farq qiladigan dialektal gruppalar haqida tasavvurga egamiz. Lekin shunga qaranasdan, o'zbek shevalarining haligacha muayyan bir tasnifi mavjud emas.

O'zbek shevalari turkolog va dialektologlar tomonidan turlicha tasnif qilindi.

6.1.1. Prof. I. I. Zarubin klassifikatsiyasida to'rt guruhga bo'linadi: Xiva, Farg'ona, Toshkent va Samarqand-Buxoro shevalari. Prof. I. I. Zarubinning bu klassifikatsiyasida o'zbek shevalari orasida katta o'rin tutgan hozirgi O'zbekistonning anchagina territoriyasiga tarqalgan qipchoq (j-lovchi) shevalari va shimoliy o'zbek shevalari hisobga olinmay qolgan.

6.1.2. Prof. K. k. Yudaxin klassifikatsiyasida ikki varianti tavsiya etildi. Prof. K. k. Yudaxin boshlang'ich (birinchi) variantida o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmni saqlash darajasiga qarab, o'zbek shevalarini to'rt guruhga ajratdi. Keyinchalik, Prof. K. k. Yudaxin o'zbek shevalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan mufassalroq tanishib, avvalri klassifikatsiyasiga tegishli aniqliklar kiritdi va o'zbek shevalarini besh guruhga bo'ldi: Toshkent, Farg'ona, Qipchoq, Xiva (Xiva-o'g'uz) va shimoliy o'zbek shevalari.

6.1.3. Prof. E. D. Polivanov klassifikatsiyasi. Prof. E. D. Polivanov bir qator o'zbek shevalarini o'rganib, o'zbek tili sheva va dialektlari orasidagi eng mayda farqlarni ham ko'rsatuvchi klassifikatsiyani berdi. U o'z klassifikatsiyasida tildagi ikki holatni ko'zda tutdi: 1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2) gibrizatsiya (turli sistemadagi tillarning chatishuvi). U shevalarda uchraydigan barcha fonetik o'zgarishlarni hisobga olib, o'zbek shevalarini bir necha guruhiga bo'ldi, Eronlashish nuqtai nazaridan, ya'ni ba'zi o'zbek shevalarining tiklanish protsessida tojik tikining ishtirokini hisobga olib shevalarni quyidagicha guruhlashtiradi: 1) eronlashmagan shevalar va 2) eronlashgan shevalar. Toshkent, Qo'qon-Marg'ilon, Andijon-Shahrixon tipidagi shevalarda eronlashish elementlarining mavjudligini qayd qilsa, Buxoro, Samarqand, Xo'jand, O'ratepa tipidagi shevalarni maksimal eronlashgan, ya'ni tojik vokalizmini o'zida to'la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi. Eronlashmagan shevalarga Farg'onaning singarmonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo'lguzar, Mankent), o'zbek-qipchiq (j-lovchi) lahjasidagi shevalarni kiritadi.

6.1.4. Prof. G'ozim Olim klassifikatsiyasi. Prof. G'ozim Olim o'zi to'plagan juda boy faktik materialga suyanganda holda 1936 yili, Prof. E. D. Polivanov klassifikatsiyasidan keyin, o'zbek shevalarini klassifikatsiya qildi. Prof. G'ozim Olim Prof. E. D. Polivanovning ma'nosiga ta'sir qilmaydigan fonetik hodisalarni, tashqi ta'sirni o'z klassifikatsiyasiga asos qilib olganini tanqid qilib, juft unilarning ma'no farqlash xususiyatiga, lahja va sheva vakillari orasida tushunilmaydigan leksik, morfologik, fonetik xususiyatlarga ko'ra klassifikatsiya qilishni ilgari surdi.

- 1) O'zbek-qipchoq lahjasi:
  - a) qirq shevasi
  - b) jaloyir-laqay shevasi
  - c) qipchoq shevasi
  - d) gurlan shevasi.
- 2) Turk-barlos lahjasi:
  - a) Sayram-Chimkent shevasi
  - b) Toshkent-Xos shevasi
  - c) Andijon shevasi
  - d) Namangan shevasi
- 3) Xiva-Urganch lahjasi :
  - a) Xiva shevasi
  - b) Qorluq shevasi

6.1.5. Prof. A. K. Borovkov klassifikatsiyasi. Prof. A. K. Borovkov o'zbek shevalarini klassifikatsiya qilishga katta hissa qo'shdi. U to'plangan faktik materiallar asosida o'zbek shevalari klassifikatsiyasining ikki xil variantini tavsiya etdi. Prof. A. K. Borovkov o'z klassifikatsiyasining birinchi variantiga o'zbek shevalarida uchraydigan fonetik belgilarni (xususiyatlarni) asos qilib oldi. Prof. A. K. Borovkov o'zining by klassifikatsiyasida o'zbek dialekt va shevalarini, ulardagi eng muhim fonetik xususiyat: o-lash va a-lashga ko'ra, ikki katta guruhga ajratdi:

- 1) o-lovchi shevalar: shaharshevalari (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Kattaqo'rg'on, Andijon, Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona, Qarshi, Jizzax shahar shevalar) va ular atrofidagi rayon shevalari.

2)a-lovchi shevalar: singarmonizmni saqlagan shevalar. Bular fonetik xususiyatga ko'ra yana ajratdi.

a)y-lovchi guruhi: Janubiy Qozog'istondagi (Chimkent, Mankent, Turkiston va sh.k.) o'zbek shevalari va Janubiy Xorazm, Surxondaryo va Samarqand oblastidagi qishloq shevalari

b)dj-lovchi guruhi: Shimoliy Xorazm, Surxondaryo va Samarqand oblastidagi qishloq shevalari.

6.2. O'zbek dialekt va shevalarini guruhlashtirishda Prof. A. K. Borovkovning bu klassifikatsiyasi haligacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Keyingi yillarda u boshqa variantni taqdim etdi. Bu variant o'zbek dialekt va shevalari orasidagi munosabatlar va tarixiy-lingvistik xususiyatlarni hisobga olgan holda tuzilib, quyidagi to'rt dialektdan ibarat:

6.2.1.O'rta o'zbek dialekti.

1) O'rta O'zbekiston shevasi. (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona tipidagi shevalar): 6 yoki 7 unli fonema bo'lib, so'zlarning birinchi yoki keyingi bo'g'inlarida ochiq [ ] fonemasi ishlatiladi. Ularning uyg'unlashishi (unlilar garmoniyasi) ko'rinmaydi. Bular singarmonizmni yo'qotgan shevalardir.

2) Shimoliy o'zbek shevasi (Chimkent, Sayram, Jambul, Marki shevalari va Janubiy Qozog'istonning ba'zi bir o'zbek shevalari): unlilar sostavida 8 fonema bo'lib, [ ] unlisi yo'q. Bu unli o'rnida asl turkiy orqa qator [ ] unlisi ishlatiladi. Unlilarning uyg'unlashishi ba'zi bir shevalarda ko'proq, ba'zi bir shevalarda esa kamroq saqlangan.

6.2.2.Shayboniy-o'zbek yoki j-lovchi dialekti.

Bu dialektga Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo oblastlaridagi va Ohangaron vodiysidagi shevalar, Shimoliy Xorazm hamda Farg'ona vodiysidagi qipchoq va qoraqalpoq shevalari kiradi. Bu shevalarda unlilar soni 8ta, birinchi bo'g'inlarda uchraydigan va o'zlashayotgan [ ] fonemasi bilan 9tadir.

6.2.3.Janubiy-Xorazm dialekti.

Bu dialekt o'z ichiga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G'azovot, Sho'raxon va shularga yondosh bo'lgan qishloq shevalarini oladi. Unlilar soni 9ta.

6.2.4.Alohida guruh shevalar (kelib chiqishi jihatidan turlicha bo'lgan ayrim shevalar).

Bu shevalar asosan quyidagilardir

1) Qorabuloq, Iqon, Mankent shevalar. Bu shevalarning asosiy xususiyatlari :uzun-qisqa unlilarga ega ekanligi; qaratqich kelishigi formasida –ing (qorabuloq) ishlatilishi.

2) <Umlautli> shevalar (Namangan oblastida).

6.3. Prof. V. V. Reshetov o'zbek shevalarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo'shni tillar (tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalarining klassifikatsiya sxemasini tuzdi.

O'zbek, qozoq, uyg'ur, turkman, qoraqalpoqlar sostaviga kirgan turk qabilalarining o'zaro munosabatlari haqidagi tarixiy-lingvistik ma'lumotlar o'zbek tilida qator dialektlar birligi borligini ko'rsatadi.

O'zbek xalqi sostavida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan (farq qiladigan) uch dialekt birligi bor: 1)qipchoq, 2)o'g'uz, 3)qarluq-chigil-uyg'ur. Bu dialekt birliklari o'z navbatida o'zbek tili sostavida uch lahjani (qipchoq, o'g'uz va qarluq-chigil-uyg'ur lahjalari) vujudga keltirdi, bular hozirgi kunda ham o'zbek tilining alohida lahjasi sifatida davom etib kelmoqda.

Demak, o'zbek tili uch turkiy komponentning birikishi natijasida vujudga kelgan:

- 1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi hozirgi qardosh uyg'ur tiliga yaqin b'olib, tojik tili bilan yaqin etno-lingvistik munosabatda bo'lgan;
- 2) qipchoq lahjasi qardosh qozoq va qoraqapoq tillari bilan yaqin;
- 3) o'g'uz lahjasi qardosh turkman tili bilan yaqin.

Prof. V. V. Reshetov asosan turk tillari tasnifi uchun ham asos bo'lgan ikki lahjani (qipchoq va o'g'uz lahjasini) oladi va uchinchi lahja qilib, o'zbek xalqining shakllanish tarixida muhim rol o'ynagan qorluq, chigil va uyg'ur qabilalarining birligini ko'rsatadi. Har bir lahjaning o'ziga xos tor dialektal xususiyatlari borligi, ularni o'rganish o'zbek dialektoloriyasining asoiy vazifalaridan ekanini va bu shevalarning paydo bo'lishi va rivojini o'rganishga yordam berishini alohida ta'kidlab o'tadi. Bu uch lahjaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

### **6.3.1 O'zbek tilining qorluq-chigil-uyg'ur lahjasi.**

Bu lahja shahar shevalarini va boshqa shahar tipidagi qishloq shevalarini o'z ichiga oladi. Bu guruh shevalar (Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona va qator aholi yashaydigan punktlar) bir dialekt kompleksini tashkil etadi. Buni shu shevalarning qator spetsifik xususiyatlari birligi ko'rsatadiki, yuqoridagilarga yana quyidagilarni qo'shish mumkin.

- 1) *sh//t* ning almashinishi
- 2) O'zak va affikslarda so'z oxiridagi *k-q//g-g'* undoshlarining saqlanishi
- 3) Turli holatda ham *q//x* undoshlarining almashinishi
- 4) *l//n* undoshlarining almashinishi
- 5) To'liq progressiv assimilyatsiya
- 6) Uyg'ur tilining asosiy fonetik xususiyatlaridan biri <umlaut> bo'lib, birinchi bo'g'inda kelgan quyi ko'tarilish  $\alpha/\partial$  unlilarining ikkinchi bo'g'inda kelgan yuqori ko'tarilish  $\text{ɤ}$  unlisi ta'sirida *e* ga o'tishidir.
- 7) Namangan shevasi va uyg'ur tilidagi tovushlarning tushishi va tor unlilarning qisqaligi kabi xususiyatlar Toshkent shevasida ham mavjud.
- 8) Toshkent, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon shevalarining hammasida turlovchi qo'shimchalardan –*нъ* affiks (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigi ma'nolarini ifoda etadi. Bu qaratqich-tushum affiksining fonetik variantlariga ko'ra shevalar ikki guruhiga ajraladi:
  - a) –*нъ* affiksi undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shib kelganga, uning birinchi tovushi to'liq progressiv assimilyatsiyaga uchrovchi shevalar (unli bilan tugagan

so'zlarga bu affiks qo'shilganda –НЪ saqlanadi.) Bunga Toshkent, Namangan va o'z fonetik xususiyatlari jihatdan bu shaharlarga yaqin qishloq shevalari kiradi.

b) Qaratqich-tushum affiksida n/d/t tovushlarining almashinishi bilan xarakterlanadigan shevalarga Andijon, Marg'ilon, Qo'qon guruh shevalari kiradi. Bu shevalar mana shu xususiyatlariga ko'ra o'zbek tilining qipchoq shevasiga yaqinlashadi.

Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasiga kiruvchi dialekt va shevalarni spetsifik xususiyatlarini saqlash-saqlamaslik nuqtai nazardan bir necha guruhga dialektga bo'lish mumkin.

### **1) Farg'ona guruhi.**

a) Namangan dialekti.

Bu dialektga Namangan shahar shevasi, Namangan oblastidagi Uychi, Chortog' kabi shevalar kiradi. Bu shevalar qardosh uyg'ur tiliga o'zining yaqinligi bilan xarakterlanadi.

b) Andijon-Shahrixon dialekti.

Bu dialekt Andijon shahar shevasini, Shahrixon shevasini va Andijon oblastidagi boshqa ba'zi shevalarni o'z ichiga oladi.

v) O'sh-O'zgan dialekti.

Bu dialekt O'sh, O'zgan, Jalolobod kabi shevalarni o'z ichiga oladi. O'sh-O'zgan dialekti qirg'iz tili elementlarining borligi bilan xarakterlanadi.

d) Marg'ilon-Qo'qon dialekti.

Bu dialekt Marg'ilon, Farg'ona shahar shevasini (eski Sim), Vodil, Qo'qon kabi shevalarni o'z ichiga oladi.

### **2) Toshkent guruhi.**

a) Toshkent dialekti.

Bu dialekt Toshkent shahar shevasini, Toshkent oblastidagi Parkent, Piskent, Qoraxitoy kabi shevalarni o'z ichiga oladi (Toshkent oblastidagi qipchoq-j-lovchi shevalardan tashqari).

b) Jizzax dialekti.

Bu dialekt Toshkent va Samarqand oblastidagi Jizzax, Xos (Xovos) kabi, Qashqadaryo vodiysidagi Po'lati, Mo'lati, Boyterak kabi shevalarni o'z ichiga oladi (ko'rsatilgan oblastlardagi qipchoq-j-lovchi shevalardan tashqari).

### **3) Qarshi guruhi.**

a) Qarshi dialekti.

Bu dialekt Qashqadaryo vodiysidagi Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' kabi shevalarni o'z ichiga oladi. (Shu oblastdagi qipchoq-j-lovchi shevalardan tashqari.)

b) Samarqand-Buxoro dialekti.

Bu dialekt Samarqand, Buxoro, Leninobod (Xo'jand), Farg'ona vodiysidagi Koson kabi shevalarni o'z ichiga oladi. Bu shevalar tojik elementlarining turli darajada borligi bilan xarakterlanadi.

### **4) Shimoliy o'zbek guruhi.**

a) Iqon-Qorabuloq dialekti.

Bu dialekt Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt kabi shevalarni o'z ichiga oladi. Bu shevalar o'g'iz va qipchoq elementlarining borligi bilan xarakterlanadi.

b) Turkiston-Chimkent dialekti.

Bu dialekt Turkiston, Chimkent, Sayram kabi shevalarni o'z ichiga oladi. Bu shevalar o'g'uz elementlarining kamayishi (ba'zan yo'qligi) va qipchoq elementlari (ayniqsa, qozoq elementlari) ning ko'payishi bilan xarakterlanadi.

Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasining Toshkent va Farg'ona guruhidagi dialektlarning ba'zilari o'zbek adabiy tilining shklanishida alohida rol o'ynagan.

### **O'zbek tilining qipchoq lahjasi.**

Bu lahjaga xos xususiyatlar prof. E. D. Polivanov va prof. G'ozi Olim klassifikatsiyasida atroflicha berilgan.

1) Fonetik xususiyatlari quyidagilar:

a) kontrast juft unilarning mavjudligi va buning natijasida singarmonizmning saqlanishi, ya'ni hozirgi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillari va boshqa qipchoq guruhiga kiradigan turk tillariga xos bo'lgan tovushlarning o'zak va affikslarda almashinishi;

b) so'z boshida kelgan o'rta ko'tarilish unilarining diftonglashuvi

v) iyt, biyt so'zlarida diftongning ishlatilishi

g) qisqa-uzun unilarning farqlanmasligi, undosh tovushlarning tushib qolishi hosobiga bo'ladigan ikkinchi darajali uzunlikning mavudligi

d) so'z boshida *y* ning *dj* ga o'tishi

e) [g'>v] : tag'>tav, ag'iz>avuz

j) unilar orasida *p, k, q* ning jaranglilashishi

i) so'z boshida *h* undoshining ortishi (paydo bo'lishi) : ayvan>hayvan, arra>harra kabi

k) so'z oxirida *k, q* ning tushib qolishi : kichik>kichi.

2) Morfologik xususiyatlari:

a) qaratqich va tushum kelishiklari affiksida *n/d/t* tovushlarining almashinishi

b) shaxs olmoshlarining jo'nalish kelishigi shakli mag'an, sag'an, ug'an

v) hozirgi zamon davom fe'lining –*джатыр* bilan yasalishi

g) hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi –*тыган* bilan yasalishi

Qipchoq lahjasi boshqa lahjalardan o'zining leksik xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

### **O'zbek tilining o'g'uz lahjasi.**

Bu lahjaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

a) qipchoq shevalaridagi kabi kontrast juft unilarning mavjudligi

b) qisqa va uzun unilarning farqlanishi, ya'ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy uzun unilar (birinchi darajali cho'ziq unilar) ning mavjudligi : a:t (hayvon), a:d (ism) ; ot (o'simlik), o:t (olov)

v) so'z boshida *t* va *k* tovushlarining jaranglilashishi

g) *k* va *g* tovushlarining maksimal yumshilishi

d) qaratqich kelishigi affiksining –*ЫНГ/-ИНГ* formasida ishlatilishi

e) jo'nalish kelishigi affiksining –*α/∂* formasida ishlatilishi

j) *bol* fe'lidagi *b* ning tushishi (*bol>ol*) kabilar.

Shuningdek, bu lahja ham boshqa lahjalardan o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari bilan farq qiladi.

### **O'zbek xalq shevalarining konsonantizmi**

Xilma-xil bo'lgan o'zbek shevalarining konsonantizm sistemasini fonologik jihatdan, ya'ni printsiptial farq qiladigan undosh fonemalarni aniqlash va ularning talaffuz qilinish xususiyatlarini belgilash uchun avvalo ma'lum guruhdagi shevalar o'zaro qanday xususiyatlari bilan bir-biriga yaqin yoki, aksincha, bir-biridan nimalar bilan farq qilishini aniqlash lozim.

7.1. Bir-biridan printsiptial farq qiladigan undosh fonemalarning miqdori va ularning sifat jihatdan xarakteristikasiga ko'ra, y-lovchi shevalar o'zbek adabiy tiliga birmuncha yaqin turadi. Ammo Toshkent tipidagi y-lovchi shevalarda uchramaydigan, biroq j-lovchi va singlarmonizmli y-lovchi shevalarda mavjud bo'lgan [h] fonemasi bundan mustasnodir. Janubiy Xorazm shevalaridagi [k,g] undoshlari ham birmuncha o'ziga xos xususiyatlarga ega.

7.2. Barcha j-lovchi shevalardagi undosh fonemalar sistemasi deyarli bir xil. Chuqur til orqa [x] tovushining sifat jihatdan xarakteristikasi va bu tovushning mavjud bo'lish-bo'lmasligi bilan j-lovchi shevalar bir-biridan farq qiladi. Konsonantizm sostavi jihatdan j-lovchi shevalar qipchoq guruhidagi turkiy tillarga birinchi navbatda, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz tillariga yaqin turadi.

7.3. J-lovchi shevalardagi [dj] affrikati o'rniga [j] fonemasini qo'llaydigan shevalar j-lovchi shevalarning alohida guruhchasini tashkil qiladi. Bu sheva vakillari genetik jihatdan qozoqlar bilan aloqador bo'lgan, shu sababli ham bu shevaning konsonantizmi qozoq tili konsonantizmiga o'xshydi.

#### Адабиётлар.

1. А.Нурмонов «Структур тилшунослик илдизлари ва йуналишлари.», «Лингвистика» йуналишидаги магистрлар учун укув кулланма. Андижон 2006 й.
2. В.В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов. Ўзбек диалектологияси. «Ўқитувчи» нашриёти. Тошкент-1978.
3. Н.А.Баскаков, А.С.Содиқов, А.А.Абдуазизов. Умумий тилшунослик. Тошкент, «Ўқитувчи»-1979 й.
4. А.Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. «Шарқ» нашриёти, Тошкент 2001.
5. Серебренников Б.А. Методы лингвогеографических исследований // Общее языкознание: методы лингвистических исследований. М., 1973.
6. Гаджиева Н.З. Проблемы тюрской ареальной лингвистики: Среднеазиатский ареал. М., 1975.
7. Бородина М.А. Развитие ареальных исследований и основные типы ареалов. Взаимодействие лингвистических ареалов: Теория, методика и источники исследования. Л., 1980.
8. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования ўзбекоязычного массива. Т., «Фан», 1991.
9. Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., 1983.

10. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание // Избранные труды. Л., 1976.

<b>14- mavzu</b>	<b>O`ZBEK TILI MILLIY QADRIYATLARI ATLASINI YARATISH TAMOYILLARI</b>
----------------------	--

### 1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg'ulot vaqti-</i> 2 soat	Magistrlar soni: 5 nafar
<i>Mashg'ulot shakli</i>	Axborotli, vizual ma'ruza
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1. Xalq og`zaki ijodi o`zbek tili tarixini o`rganishning omillaridan biri. 2. Yozma yodgorliklarni xalq tili bilan qiyosiy o`rganish 3. Xalq shevalarini hududiy o`rganish
<i>Ma'ruza mashg'ulotining maqsadi:</i> <i>A) ta'limiy:</i> O`zbek tili milliy qadriyatlari atlasini yaratish tamoyillari haqida ma'lumot berish; <i>B) tarbiyaviy:</i> yangi bilimlar berish orqali milliy qadriyatlarimizni asrashga o`rgatish; <i>V) rivojlantiruvchi:</i> bilimlarni kengaytirish bilan magistrnlarni ilm fanga qiziqishini oshirish, ma'naviy olamini boyitish.	



<b>Pedagogik vazifalar:</b>	<b>O`quv faoliyati natijalari:</b>
<ul style="list-style-type: none"> <li>• Xalq og`zaki ijodi o`zbek tili tarixini o`rganishning omillaridan biri ekanligi haqida ma`lumot berish.</li> <li>• Yozma yodgorliklar haqida ma`lumot berish</li> </ul>	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Xalq og`zaki ijodi o`zbek tili tarixini o`rganishning omillaridan biri ekanligi haqida ma`lumot beradi.</li> <li>• Yozma yodgorliklar haqida ma`lumot beradi</li> </ul>
<b>Ta`lim berish usullari</b>	Ko`rgazmali ma`ruza, suhbat, aqliy hujum
<b>Ta`lim berish shakllari</b>	Ommaviy, jamoaviy
<b>Ta`lim berish vositalari</b>	O`quv qo`llanma, ma`ruza matni, proyektor
<b>Ta`lim berish sharoiti</b>	O`TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<b>Monitoring va baholash</b>	Og`zaki nazorat: savol-javob

## 1.2. O`zbek tili milliy qadriyatlari atlasini yaratish tamoyillari mavzusidagi ma`ruza mashg`ulotining texnologik xaritasi

<b>Ish bosqichlari va vaqti</b>	<b>Faoliyat mazmuni</b>	
	<b>Ta`lim beruvchi</b>	<b>Ta`lim oluvchilar</b>
<b>Tayyorgarlik bosqichi.</b>	1. Mavzu bo`yicha o`quv mazmunini tayyorlash. 2. Ma`ruzasi uchun taqdimot slaydlarini tayyorlash. 3. O`quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. Ma`ruzani o`rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxatini ishlab chiqish.	
<b>1-bosqich</b> Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Ma`ruza mashg`ulotining mavzusini e`lon qiladi 1.2. o`quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi. (1-ilova) 1.3. Bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar. Tinglaydilar. Berilgan savollarga javob beradi.
<b>2-bosqich</b> Asosiy bosqich (55daqiqa)	2.1. Power Point dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.2. Xalq og`zaki ijodi o`zbek tili tarixini o`rganishdagi o`rni haqida ma`lumot beradi 2.3. Yozma yodgorliklarni xalq tili bilan qiyosiy o`rganish haqida ma`lumot beradi	Asosiy tushunchalar yuzasidan mulohazalar o`tkazadilar.  Ma`lumotlar daftarlarga qayd

	<p>2.4.Xalq shevalarini xududiy o`rganish haqida ma'lumot beradi</p> <p>2.5. O`rganilgan bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash uchun savollar beradi.</p> <p>2.6.Magistrlar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>1. Xalq tilini o`rganishda qanday omillardan foydalaniladi?</p> <p>2. Qanday yozma yodgorliklarni bilasiz?</p> <p>3. Xalq shevalarini o`rganishda qanday usullar qo`llanilgan?</p>	<p>qiladilar.</p> <p>Magistrlar berilgan savollarga javob beradilar.</p>
<p><b>3-bosqich</b></p> <p>Yakuniy bosqich</p> <p>(10 daqiqa)</p>	<p>3.1. Mavzu bo'yicha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. Tayanch iboralarni yozdiradi. (2-ilova)</p> <p>3.2. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlari bilan tanishtiradi.</p> <p>3.3. Keyingi mavzuga tayyorgarlik ko`rishni uyga vazifa qilib topshiradi.</p>	<p>Savollar beradilar.</p> <p>Vazifani yozib oladilar.</p>

### 1-ilova

**Har bir ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun 0,5 dan 3 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:**

- 2.6-3 ball - «a'lo»
- 2.1-2.5 ball - «yaxshi»
- 1.5-2- ball - «qoniqarli»
- 0.5-1 ball - «qoniqarsiz»

### 2-ilova

#### TAYANCH IBORALAR

O`zbek tili milliy qadriyatlari o`zbek xalqining uzoq tarixiy taraqqiyotiga ega bo`lgan turmush tarzi, urf-odatlarini, marosimlari bilan bog`liq bo`lgan shevalar.

Dialektologik atlas – o`zbek shevalarining hududiy tarqalishini xaritalar orqali ko`rsatish.

### 3-ilova

#### ADABIYOTLAR

1. A.Shermatov. Lingvistik geografiya nima? O`qituvchi, T.: 1972, 5 b.
- 2.Н.З.Гаджиева.Проблемы тюркской ареальной лингвистики. Среднеазиатский ареал. М., Наука. 1975. 302 стр.

- 3.А.Джураев. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива Т., Фан. 1991. 220 стр.
- 4.N.Murodova O'zbek tili Navoiy viloyati shevalarining lingvoareal tadqiqi. Т., Фан. 2006. 220 б.

Reja.

1. Xalq og`zaki ijodi o`zbek tili tarixini o`rganishning omillaridan biri.
2. Yozma yodgorliklarni xalq tili bilan qiyosiy o`rganish
3. Xalq shevalarini hududiy o`rganish

Мустақиллик шарофати билан мамлакатимизда ўз тилимизга бўлган янгича муносабатлар юзага келди. Истиклолимиз туфайли ўзбек тилига Давлат тили мақоми берилиши она тилига бўлган ҳурмат ва эҳтиром рамзи бўлди. Бугунги кунда ўзбек тили ўзининг чексиз бойликларга эга эканлигини намоён этмоқда. Маълумки, ўзбек адабий тили бой манба бўлган халқ тилидан озиқланади, унинг имкониятлари билан бойиб, унинг заминида тараққий этиб боради. Чунки ҳозирги ўзбек лаҳжа тарихи ёзма ёдгорликлар тилида сақланмаган ва бизгача етиб келмаган кўпгина сўз ҳамда луғавий шакллари ўзида сақлаган. Булар ўзбек тили учун жуда нодир мерос бўлиб хизмат қилади. Бундай меросни ўрганиш бугунги кун ўзбек тилшунослигининг энг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади. Умумхалқ тилини тадқиқ қилиш шу тилда сўзлашувчи этнос тарихини ўрганишга кўп жиҳатдан боғлиқ. Чунки тилдаги ўзгариш ва ривожланишлар халқнинг турмуш тарзи, урф-одатлари, ижтимоий-иқтисодий тараққиётига алоқадор бўлади. Шу боис ҳам тадқиқ этилаётган шевалар тарқалган ҳудуднинг тарихини ўрганиш заруратдир. Чунки ўлкамиз асрлар мобайнида Марказий Осиёнинг йирик маърифат ва маданият ўчоқларидан бири бўлган, унда савдо-сотиқ, маданий алоқалар ривожланган. Мамлакатимиз ҳудудида қад рослаган Самарқанд, Бухоро, Хоразм, Шош, Насаф, Балх, Кармана сингари қадимий ва кўҳна шаҳарлари бор. Албатта, бу қадимий жойларнинг тарихини, маданиятини, тилини ўрганишга бўлган эҳтиёж ҳар қачонгидан

хам муҳимроқ. Бу эса тилимизда мавжуд бўлган шеваларни худудий ўрганиш билан боғлиқ масаладир. Дарвоқе, халқ шевалари адабий тилнинг ёзма ёдгорликларига нисбатан қадимийроқ манбадир. Агар улар ҳозир ўрганилмас экан, маълум бир давр ўтиши билан йўқола боради. Шу сабабли ҳам бундай ноёб маънавий меросимизни ўрганиш ва шулар асосида ўзбек тили миллий қадриятлари атласини яратишимиз лозим. Чунки ўзбек тилшунослигида бу атлас яратилмаган. Бундай атлас Ўзбекистон худудида яратилса, у Ўзбекистонимизнинг лисоний манзарасини ёрқин акс эттириши билан бирга ўзбек халқи ҳаёти ва турмуш тарзи билан боғлиқ бўлган минглаб сўзларни адабий тилга олиб киришга манба бўла олади. Шу асосда кўп томли ўзбек шевалари изоҳли луғати, этнографик ва терминологик луғатларни яратиш учун бой манба бўлиб хизмат қилади.

Жамиятнинг маънавий-ахлоқий ва маданий ривожланиши, маънавий қадриятлар, миллий ғоя, маданий мерос, ўзбек халқи ва давлатчилик тарихини тадқиқ этиш бугунги куннинг энг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Маълумки, ўзбек халқи ҳам ўз тили, урф-одати, адабиёти, моддий ва маънавий бойликларига эга бўлган энг қадимги халқлардан биридир. У ўзининг кўп асрлик тарихий ҳаёти давомида ўз маданиятини, адабиётини ва адабий тилини яратди. Бизга маълумки, халқ тарихининг тадрижий тараққиёти унинг тилига ҳам таъсир этади. Айниқса, бу ўзгаришлар оғзаки ва ёзма адабий меросда ўз аксини топади. Оғзаки ва ёзма адабий мерос намуналари халқнинг ўзини англаш баробарида юзага келган хулоса, билимлари мажмуини ифодалаган бебаҳо маънавий бойликдир. Халқ бирор сўзни шунчаки айтмайди. Бу сўз замирида неча-неча авлодларнинг ҳаётий тажрибаси моҳияти жамланади. Шу сабабли Ўрхун – Энасой, Култегин, Билга хоқон ёзма ёдгорликлари, шунингдек, М.Кошғарийнинг “Девони луғотит турк”, Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг”, Аҳмад Югнакийнинг “Ҳиббат ул-ҳақойиқ” асарлари, халқ оғзаки ижоди намуналари шевага хос сўзларни тадқиқ қилиш баробарида ёш авлод онгига миллий маънавий

меросни сингдиришда ўрни бекиёс. Шу боис ҳам бундай ёзма манбалар билан халқ тилини қиёсий ўрганишни олдимизга мақсад қилиб қўйдик.

Биз халқимизнинг тилини ўрганиш орқали унинг тарихини, маданиятини ўрганамиз. Бу эса тилимизда мавжуд бўлган шеваларни ҳудудий ўрганиш билан боғлиқ масаладир. Дарвоқе, халқ шевалари адабий тилнинг ёзма ёдгорликларига нисбатан қадимийроқ манбадир. Агар улар ҳозир ўрганилмас экан, маълум бир давр ўтиши билан йўқола боради. Шунинг учун ҳам халқ шеваларини ўрганиш, ундан баҳраманд бўлиш бугунги куннинг асосий вазифаларидан бирига айланмоғи керак. Бундай ишларни амалга ошириш учун “Ўзбек тили миллий кадриятларининг атласи”ни яратишимиз лозим. Чунки, ўзбек тилшунослигида бу атлас яратилмаган. Бундай атлас Ўзбекистон ҳудудида яратилса, у Ўзбекистонимизнинг лисоний манзарасини ёрқин акс эттириш билан бирга ўзбек халқи ҳаёти ва турмуш тарзи билан боғлиқ бўлган минглаб сўзларни адабий тилга олиб киришга манба бўла олади. Шунингдек, шундай сўз ва ҳодисаларнинг тарқалишини умуммиллий бойлик даражасида халққа етказиш ҳақида аниқ маълумот беради ҳамда кўп томли ўзбек тилининг изоҳли луғатларини яратиш учун бой манба бўлиб хизмат қилади.

Лойиҳа асосан, Ўзбекистон Республикасининг Тошкент, Андижон, Фарғона, Наманган, Бухоро, Самарқанд, Навоий, Хоразм, Жиззах, Сирдарё, Қашқадарё, Сурхондарё, шунингдек, Қорақалпоғистон Республикасидаги айрим вилоятлардан тўпланган фактик материаллар асосида амалга оширилади.

## МАВЗУ: Ўзбек халк шеваларини карталаштириш (атласлаштириш)

### муаммолари.

#### РЕЖА

- 1.Диалектология фани хакида.
- 2.Ўзбек халк шеваларини урганилиш тарихи.
- 3.Ўзбек халк шевалари таснифи.
- 4.Ўзбек тилининг диалектологик атласи ва лингвогеография.

Диалектология фани грекча суздан олинган булиб, шева маъносини *билдиради*. У фан сифатида муайян тилдаги шева, диалект, лаҳжаларнинг тил хусусиятларини урганади, уларни таснифлайди, таркалиш чегарасини аниқлайди. Шеваларнинг ухшаш ва ноухшаш белгиларини топади. Шева унсурларини адабий тилга солиштириб, уларнинг фонетик, лексик,морфологик ва синтактик узига хосликларини чуқур тадқиқ этади. Масалан Уйчи шевасидаги : *Лайлакнинг кетишига бокма, келишига бок* . Куришиб турибдики ,бу мазкур ҳолат шева эгалари тилида шундай ишлатилган. Шу маънода тил фани булимлари ичида алоҳидада унинг узвий бир қисми сифатида шевашунослик соҳаси ҳам мавжудки , ҳеч қайси тил бундан мустасно эмас . Объектни урганиш нуктаи-назаридан диалектология иккига булинади :1) тарихий диалектология; 2) тасвирий диалектология.

Тарихий диалектология маълум бир тилдаги шева унсурларининг келиб чикиши,ривожланиши,даврларда узгариши каби масалаларни урганади . Шеваларни урганиш халқ тили учун муҳимдир. Ўзбек халқ шеваларини урганиш мобайнида , адабий тилдан чиқиб кетган унсурларни топиб, уларни қайта тиклаб тулдиришимиз мумкин. Масалан:, *мехржон, чапчи* чумма Бу эса ҳозирги ўзбек тилининг такомиллаштиришга ёрдам беради. Ўзбек шевашунослигининг олдига қўйилган мақсад ва вазифалари: 1 . Ўзбек халқ шеваларининг фонетик ва лексик хусусиятларини тадқиқ қилиш;

- 2.Миллий адабий тилнинг пайдо булиши ва унинг ривожланишида шеваларнинг тутган урнини аниқлаш;
- 3.Таянч шеваларнинг позицияларини белгилаш;
- 4.Шеваларнинг узаро муносабатини тиклаш;
- 5.Шеваларнинг кардош ва нокардош тиллар билан алоқасини топиш;
- 6.Шеваларнинг таркалиш чегараларини топиш;
- 7.Шеваларни таснифлаш;
- 8.Шеваларнинг лирғвистик харитасини тузиш.

Ушбу курснинг бош мақсади адабий тил ва диалектлар уртасидаги фарқни аниқ курсата

билишни ташкил қилади. Шуниси кизикки, бир пайтлар адабий тилимизда ишлатилиб ҳозирги кунда йуқолган тил бирликлари , айрим шеваларда аниқ сақланиб қолган.

Диалектология фанида шева ,диалект ,лаҳжа атамалари фаол ишлатиладики , уларнинг

маъноларини билмасдан мазкур фанни узлаштириб булмайди. Шева муайян тилнинг фонетик, лексик , грамматик хусусиятларига эга булган энг кичик кисми . Масалан: Учкургон, Косон шеваси каби

Диалект умумлингвистик атама булиб, шева ёки бир неча шеваларнинг йигиндиси маъносида ишлатилади . Лаҳжа бир-бирига якин булган шевалар йигиндиси. Хозирги ўзбек адабий тилда учта лаҳжа булиб, уларнинг хар бири адабий тил ривожига мухим аҳамиятга эга:

- 1.Карлук-чигил-уйгур лаҳжаси;
- 2.Қипчоқ лаҳжаси;
- 3.Ўғуз лаҳжаси.

Ер юзида 6 млрд ахоли яшайди ,улар 2976 та тилда гаплашади. Шундан 200 хил тилда 1 млн га якин , 70 хил тилда 5 млн дан ортик, 13 хил тилда 50 млн дан ортик ахоли гаплашади. Шу тиллардан бири ўзбек тилидир. Туркий тиллар оиласида 30 га якин тиллар мавжуд. Ўзбек тилида 20 млн. дан ортик ахоли сузлашади . Уларнинг асосий кисми Ўзбекистонда ва Марказий Осиёда яшайди. Ўзбекистон республикасида ташкари Афғонистон, Туркия, Саудия Арабистонда ҳам ўзбеклар яшайди. Худудий ранг-баранглик куплаб шева-диалектларни келиб чикишига сабаб булади. Ўзбек халк шеваларини атрофлича тушуниб текшириб чиккан Поливанов шундай деган: «Т Турк тилларнинг биронтаси ҳам шевалараро ўзбек тиличалик фаркланмайди. Ўзбек тили диалектлари келиб чикишидан ранг-барангдир. Бу эса табиий ўзбек адабий тили учун бирорта диалектни асос килиб олиш ниҳоятда кийин даражада». Маълумки ,туркий тиллар учта катта гуруҳга булинади .

- 1 . Жанубий-гарбий ўғуз гуруҳи;
- 2 . Шимолий қипчоқ гуруҳи;
- 3 . Шаркий карлук гуруҳи. Кизиги шундаки ,ўзбек тилида хар учала гуруҳга тегишли сузлар кайд этилган. Куриниб турибдики, ўзбек тили бошка тиллар билан айрим жихатларига кура ухшаса , бошка жихатларига кура кескин фарк килади. Бу масалани сезган олимлар кадим замонлардан бошлабок, Ушбу масалани жиддий ургана бошлаганлар. Шевашунослик фанининг пайдо булиши Махмуд Кошгарийга бориб такалади. Унинг «Девони луготит-турк» асарида уша даврдаги кабилалар ва уларнинг тили хакида суз юритар экан, узи билмаган холда диалектологик маълумотларни кайд этиб кетган. Навоий, Бобур сингари мумтоз адабиётимиз вакиллари ижодида ҳам маълумотлар бор, бирок шуни алоҳидада таъкидлаш жоизки, утмиш олимларнинг диалектологик карашлари монографик режада олиб борилмаган. Уларда камчиликлар учрайди.

Ўзбек халк шеваларини урганиш Урта Осиёни Россия томонидан босиб олингандан кейин бошланди. Бу ишда Поливанов, Бароккоф, Юдахин, Решетов каби олимларнинг хизмати бор. Поливанов 1920-27 йилларда Туркистон шевалари буйича маълумотлар йигиб «Ўзбекиская диалектология и ўзбекиский литературный язык» каби асарлар ёзди . Ўзбек тили ривожига катта хисса кушди . Унинг ишини Юдахин давом эттирди. У асосий



эътиборини ўзбек-уйгур, ўзбек-киргиз тиллари орасидаги муносабатни урганишга қаратди. У бир неча асар ва рисолалар яратди. Ўзбек олимларидан Гози Олим Юнусов, Ф.Абдуллаев, Ш. Шоабдурахмонов, С. Иброхимов, Х. Дониёров, Ё Гуломов, Б. Ражабов, К. Муҳаммаджонов кабилар ўзбек тили диалектологияси фанини юкори боскичга кутарилишида хизмат қилдилар. Ўзбек халқ шевалярини урганиш кизгин давом этмоқда .

Ўзбек халқ шевалярини тасниф қилиш масаласи ута мураккаб масала булиб, у тадқиқотчидан катта амалий тажриба талаб қилади. Бу ишга хисса қушган олимлардан бири Заубиндир. У ўзбек шевалярини уз гурухича булади: 1 . Хива; 2 . Фаргона; 3 . Тошкент; 4 . Самарканд, Бухоро. Шимолий ўзбек ва «ж» ловчи ўзбек шеваляри Заубин таснифига кирмай қолган. Профессор Юдахин ўзбек халқ шевалярини 5 гурухга булади: 1 . Тошкент; 2 . Фаргона; 3 . Қипчоқ; 4 . Хива; 5 . Шимолий ўзбек шеваляри. Профессор Поливанов ўзбек халқ *шеваляриХива; 5 . Шимолий ўзбек* шеваляри. Профессор Поливанов ўзбек халқ шевалярини атрофлича текшириб , улардаги 2 хусусиятга алоҳидада диққат қилган: 1 . Метицация-кардош тилларнинг чатишуви;

2 . Гибридизация-турли тилларнинг чатишуви.

Поливанов ўзбек тилида учта катта диалект борлигини таъқидлайди: 1. Чигатой ; 2. Ўғуз; 3 . Қипчоқ. Чигатой диалектини тасниф қилар экан , унга қирган шевалярни эронлашган ва эронлашмаган ҳолатларига алоҳидада эътибор берган. Поливанов ўзбек шевалярини таснифлашда ташки омилларга қупрок эътибор берган. Поливановдан ташқари Бароқкоф, Решетов каби олимлар ўзбек халқ шевалярини таснифлашда уз хиссаларинини қушганлар.

Бароқкоф таснифи: У ўзбек шевалярини таснифлашда икки хил вариантни тақлиф этган. У узининг 1-вариантида шеваляларнинг фонетик хусусиятларига катта эътибор берган .Шунга қура :1-«о» ловчи;

2-«а»ловчи;

2.а) «ё»ловчи;

б) «ж»ловчи.

Решетов таснифи: 1-Карлук-чигил уйгур лаҳжаси; 1. Фаргона гурухи :

а) Намангани Уйчи, Чортоқ шеваляри;

б) Андижон, Шахрихон шеваляри;

в) Уш, Узган шеваляри;

г) Кукон, Маргилон.

2. Тошкент гурухи: а) Тошкент шеваляри Паркент, Пискент, Қорахитой;

б) Жиззах шеваляри Қашқадарё вилоятидаги Бойтерак шеваляри

3. Қарши гурухи: а) Қарши шеваляри Шахрисабз, Китоб, Яққабог шеваляри;

б) Самарканд, Бухоро шеваляри Хужанд, Чуст, Қосон

4. Шимолий ўзбек гурухи : а) Ийкон, Қорабулоқ;

б) Туркистон, Чимкент, Сайрам шеваляри.

Тилшунослик география билан ҳам узвий алоқадир. Чунки даврлар утиши билан маълум бир тилда сузлашувчи этник гурухлар турли жойларга тарқалиб утроклашадилар . Демак, тилларнинг ҳам тарқалиш уринлари мавжуд . Уларнинг тарқалиш жойларини қарталаштириш имкони бор.

Шундай экан, тилшунослик билан география уртасида муносабат мавжуд. Бундай муносабат, айникса, муайян лингвистик ходисаларнинг таркалиш зоналарини белгилашда, лингвистик ва диалектик атласлар тузишда ёркин намоён булади.

Тилшунослик билан географиянинг муносабати оркали лингвистик география ёки лингвогеография ва ариал лингвистика майдонга келган. Лингвогеография лингвистик ходисаларнинг таркалиш зоналарини урганувчи тилшуносликнинг алоҳидада булими сифатида х!х асрнинг охирларида диалектологиядан ушиб чиккан. Лингвогеографиянинг пайдо булиши ва ривожланиши тилдаги диалектал фаркланишларни карталаштириш ва диалектологик атласлар яратиш билан боғлиқдир. Бундай атласлар хар-хил булиши мумкин: айрим худудни акс эттирувчи атласлар, турли системага мансуб булган тилларнинг таркалишини акс эттирувчи атласлар...

60-йиллардан бошлаб, туркийшунослар ҳам лингвогеографияга, лингвистик атлас тузиш муаммоларига диққатини жалб этдилар.

Бу муаммога бағишланган В.М.Жирмуниский, М.Ш.Шералиев, Н.Б.Бурганов, Л.З.Заяй, Г.Б.Бакинова, Н.А.Баскаков, Л.А.Покровская, Э.В.Севертян, В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов, А.Шерматов сингари олимларнинг катор асарлари дунёга келди.

## **O'zbek tili massivni dialekt zonalashtirishi kontseptsiyasi.**

### **2. Dialektologiya**

Dialektologiya (grekch, dialektos-sheva so'zidan) tilshunoslikning bir sohasi bo'lib, u biror tilning mavjud dialektlarini, ya'ni mahalliy lahja va shevalarini o'rgatadi. O'zbek dialektologiyasi fani O'zbekiston territoriyasidagi va qardosh respublikalardagi Qozog'iston, Qirgiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'istondagi) o'zbek tilining turli dialekt, lahja va shevalarni tekshiradi.

Ob'ektni o'rganish jihatidan dialektologiya ikki turlidir: 1)tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya, 2)tarixiy dialektologiya.

Tasviriy dialektologiya yoki dialektografiya mahalliy lahja va shevalarga xos fonetik va leksik-grammatik xususiyatlarni qayd qilish bilan chegaralanadi. Tarixiy dialektologiya esa, tilning dialektal xususiyatlari bilan birga, shu xususiyatlarning kelib chiqishi, rebojlanishi, turli davrlarda o'zgarishi, qardosh tillar bilan munosabati va shu shevalarning tashkil topishida boshqa tillarning ishtirokini aniqlash kabilarni ham o'rganadi, lahja va shevalarni lingvo-geografil usullar bilan o'rganish ham birinchi navbatda tarixiy maqsadlarni ko'zda tutadi.

### **2. Shevalarni o'rganish**

Shevalarni o'rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda allaqachon yo'q bo'lib ketgan yoki ma'lum darajada o'zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo'lishi mumkin. Bu jihatdan dialektologiya til tarixini o'rganish uchun juda ahamiyatlidir.

Shuningdek, o'zbek dialektologiyasi ham o'zbek tili tarixini o'rganish, uning ayrim noaniq masalalarini yoritish uchun asosiy manbadir.

Shevalarni o'rganish xalq tarixi, etnografiyasi uchun ham muhimdir. Masalan, shevalarni o'rganish orqali o'tmishdagi urug'-qabilalarning joylashish territoriyalarini aniqlash, toponimlar, gidronimlar va shu kabi nomlar vositasida xalq tarixining ayrim kartinalarini yaratmoq mumkin bo'ladi.

### **3. Lahja, sheva, dialekt terminlari.**

Bu terminlar dialektologiya fanining asosiy ob'ektini ifodalaydi. Sheva- biror tilning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo'lgan eng kichik qismi; lahja- shu xususiyatlarni o'zida birlashtiruvch shevalar yig'indisi. Dialekt termini dialektologik adabiyotlarda ko'pincha lahja ma'nosida, ba'zan sheva ma'nosida ham qo'llanadi. Keyingi vaqtlarda o'zbek dialektologiyasida dialekt termini sheva ma'nosida ham, lahja (shevalar yig'indisi) ma'nosida ham uchraydi.

Terminlarni stabillashtirish maqsadida lahja, dialekt va sheva tushunchalari quyidagi ma'no o'zgaliklari bilan qabul qilindi: lahja ruscha <наречие>, dialekt umumlingvistik <диалект> termini ma'nosida, sheva esa ruscha <говор>ma'nosidadir.

### **4. Dialektologiyaning asosiy vazifasi.**

Dialektologiya fanining ob'ekti mahalliy dialekt, lahja va shevalar bo'lib, maqsadi va vazifasi quyidagilardan iborat:

- 6) ayrim sheva va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik va leksik xususiyatlarini har tomonlama tavsif qilish;
- 7) milliy tilning paydo bo'lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o'rnini va shu milliy tilga asos bo'lgan shevalarni aniqlash;
- 8) shevalarning o'zaro munosabatini, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillarga bo'lgan munosabatlarini belgilash;
- 9) o'xshash xususiyatlariga ko'ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash;
- 10) umumiy o'xshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma'lum territoriyada tarqalish kartalarini tuzish va shevalarni klassifikatsiya (tasnif) qilish.

### **5. O'zbek tilining boshqa turkiy tillarga bo'lgan munosabati.**

O'zbek tili turkiy tillar klassifikatsiyasiga ko'ra turkiy tillarning uch guruhiga kiritilgan. Sababi o'zbek tili o'zining fonetik strukturasi, grammatik qurilishi va lug'at sostaviga ko'ra turli turkiy tillar bilan umumiy xususiyatlarga ham egadir. O'zbek tilining shahar shevalariga asoslangan hozirgi zamon adabiy tili esa, janubiy-sharqiy gruppaga kiradi. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida miqdor va sifat jihatidan farq qiladigan 6 unli tovush bor. Boshqa turkiy tillar esa 9 va undan ortiq unliga ega bo'lishlari bilan o'zbek adabiy tilidan farqlanadi.

### **6. O'zbek shevalarining dialektal bo'linishi.**

6.1.O'zbek xalq shevalarining klassifikatsiyasi. Hozirgi biz o'zbek shevalari va ularning o'ziga xos ayrim xususiyatlari, fonetik va morfologik xususiyatlarga

ko'ra bir-birlari bilan yaqinlashadigan va ayni vaqtda bir-birlaridan farq qiladigan dialektal gruppalar haqida tasavvurga egamiz. Lekin shunga qaranasdan, o'zbek shevalarining haligacha muayyan bir tasnifi mavjud emas.

O'zbek shevalari turkolog va dialektologlar tomonidan turlicha tasnif qilindi.

6.1.1.Prof. I. I. Zarubin klassifikatsiyasida to'rt guruhga bo'linadi: Xiva, Farg'ona, Toshkent va Samarqand-Buxoro shevalari. Prof. I. I. Zarubinning bu klassifikatsiyasida o'zbek shevalari orasida katta o'rin tutgan hozirgi O'zbekistonning anchagina territoriyasiga tarqalgan qipchoq (j-lovchi) shevalari va shimoliy o'zbek shevalari hisobga olinmay qolgan.

6.1.2.Prof. K. k. Yudaxin klassifikatsiyasida ikki varianti tavsiya etildi. Prof. K. k. Yudaxin boshlang'ich (birinchi) variantida o'zbek shevalarining tojik tili bilan munosabati va singarmonizmni saqlash darajasiga qarab, o'zbek shevalarini to'rt guruhga ajratdi. Keyinchalik, Prof. K. k. Yudaxin o'zbek shevalarining o'ziga xos xususiyatlari bilan mufassalroq tanishib, avvalri klassifikatsiyasiga tegishli aniqliklar kiritdi va o'zbek shevalarini besh guruhga bo'ldi: Toshkent, Farg'ona, Qipchoq, Xiva (Xiva-o'g'uz) va shimoliy o'zbek shevalari.

6.1.3.Prof. E. D. Polivanov klassifikatsiyasi. Prof. E. D. Polivanov bir qator o'zbek shevalarini o'rganib, o'zbek tili sheva va dialektlari orasidagi eng mayda farqlarni ham ko'rsatuvchi klassifikatsiyani berdi. U o'z klassifikatsiyasida tildagi ikki holatni ko'zda tutdi: 1)metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va 2)gibridizatsiya (turli sistemadagi tillarning chatishuvi). U shevalarda uchraydigan barcha fonetik o'zgarishlarni hisobga olib, o'zbek shevalarini bir necha guruhga bo'ldi, Eronlashish nuqtai nazaridan, ya'ni ba'zi o'zbek shevalarining tiklanish protsessida tojik tikining ishtirokini hisobga olib shevalarni quyidagicha guruhlashtiradi: 1)eronlashmagan shevalar va 2)eronlashgan shevalar. Toshkent, Qo'qon-Marg'ilon, Andijon-Shahrixon tipidagi shevalarda eronlashish elimentlarining mavjudligini qayd qilsa, Buxoro, Samarqand, Xo'jand, O'ratepa tipidagi shevalarni maksimal eronlashgan, ya'ni tojik vokalizmini o'zida to'la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi. Eronlashmagan shevalarga Farg'onaning singarmonizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo'lguzar, Mankent), o'zbek-qipchiq (j-lovchi) lahjasidagi shevalarni kiritadi.

6.1.4.Prof. G'ozzi Olim klassifikatsiyasi. Prof. G'ozzi Olim o'zi to'plagan juda boy faktik materialga suyangan holda 1936 yili, Prof. E. D. Polivanov klassifikatsiyasidan keyin, o'zbek shevalarini klassifikatsiya qildi. Prof. G'ozzi Olim Prof. E. D. Polivanovning ma'nosiga ta'sir qilmaydigan fonitik hodisalarni, tashqi ta'sirni o'z klassifikatsiyasiga asos qilib olganini tanqid qilib, juft unililarning ma'no farqlash xususiyatiga, lahja va sheva vakillari orasida tushunilmaydigan leksik, morfologik, fonetik xususiyatlarga ko'ra klassifikatsiya qilishni ilgari surdi.

1)O'zbek-qipchoq lahjasi: a)qirq shevasi

b)jaloyir-laqay shevasi

c)qipchoq shevasi

d)gurlan shevasi.



8ta, birinchi bo'g'inlarda uchraydigan va o'zlashayotgan [ ] fonemasi bilan 9tadir.

6.2.3. Janubiy-Xorazm dialekti.

Bu dialekt o'z ichiga Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G'azovot, Sho'rxon va shularga yondosh bo'lgan qishloq shevalarini oladi. Unlilar soni 9ta.

6.2.4. Alohida guruh shevalar (kelib chiqishi jihatidan turlicha bo'lgan ayrim shevalar).

Bu shevalar asosan quyidagilardir

- 5) Qorabuloq, Iqon, Mankent shevalar. Bu shevalarning asosiy xususiyatlari :uzun-qisqa unlilarga ega ekanligi; qaratqich kelishigi formasida –ing (qorabuloq) ishlatilishi.
- 6) <Umlautli> shevalar (Namangan oblastida).

6.3. Prof. V. V. Reshetov o'zbek shevalarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo'shni tillar (tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalarining klassifikatsiya sxemasini tuzdi.

O'zbek, qozoq, uyg'ur, turkman, qoraqalpoqlar sostaviga kirgan turk qabilalarining o'zaro munosabatlari haqidagi tarixiy-lingvistik ma'lumotlar o'zbek tilida qator dialektlar birligi borligini ko'rsatadi.

O'zbek xalqi sostavida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan (farq qiladigan) uch dialekt birligi bor: 1)qipchoq, 2)o'g'uz, 3)qarluq-chigil-uyg'ur. Bu dialekt birliklari o'z navbatida o'zbek tili sostavida uch lahjani (qipchoq, o'g'uz va qarluq-chigil-uyg'ur lahjalari) vujudga keltirdi, bular hozirgi kunda ham o'zbek tilining alohida lahjasi sifatida davom etib kelmoqda.

Demak, o'zbek tili uch turkiy komponentning birikishi natijasida vujudga kelgan:

- 4) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi hozirgi qardosh uyg'ur tiliga yaqin b'olib, tojik tili bilan yaqin etno-lingvistik munosabatda bo'lgan;
- 5) qipchoq lahjasi qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin;
- 6) o'g'uz lahjasi qardosh turkman tili bilan yaqin.

Prof. V. V. Reshetov asosan turk tillari tasnifi uchun ham asos bo'lgan ikki lahjani (qipchoq va o'g'uz lahjasini) oladi va uchinchi lahja qilib, o'zbek xalqining shakllanish tarixida muhim rol o'ynagan qarluq, chigil va uyg'ur qabilalarining birligini ko'rsatadi. Har bir lahjaning o'ziga xos tor dialektal xususiyatlari borligi, ularni o'rganish o'zbek dialektoloriyasining asoiy vazifalaridan ekanini va bu shevalarning paydo bo'lishi va rivojini o'rganishga yordam berishini alohida ta'kidlab o'tadi. Bu uch lahjaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

### **6.3.1 O'zbek tilining qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi.**

Bu lahja shahar shevalarini va boshqa shahar tipidagi qishloq shevalarini o'z ichiga oladi. Bu guruh shevalar (Toshkent, Namangan, Andijon, Farg'ona va qator aholi yashaydigan punktlar) bir dialekt kompleksini tashkil etadi. Buni shu shevalarning qator spetsifik xususiyatlari birligi ko'rsatadiki, yuqoridagilarga yana quyidagilarni qo'shish mumkin.

- 1) *sh//t* ning almashinishi
- 2) O'zak va affikslarda so'z oxiridagi *k-q//g-g* undoshlarining saqlanishi
- 3) Turli holatda ham *q//x* undoshlarining almashinishi
- 4) *l//n* undoshlarining almashinishi
- 5) To'liq progressiv assimilyatsiya
- 6) Uyg'ur tilining asosiy fonetik xususiyatlaridan biri <umlaut> bo'lib, birinchi bo'g'inda kelgan quyi ko'tarilish *α/∂* unllarining ikkinchi bo'g'inda kelgan yuqori ko'tarilish *ъ* unlisi ta'sirida *e* ga o'tishidir.
- 7) Namangan shevasi va uyg'ur tilidagi tovushlarning tushishi va tor unllarning qisqaligi kabi xususiyatlar Toshkent shevasida ham mavjud.
- 8) Toshkent, Namangan, Andijon, Marg'ilon, Qo'qon shevalarining hammasida turlovchi qo'shimchalardan –нъ affiks (fonetik variantlari bilan) ham qaratqich, ham tushum kelishigi ma'nolarini ifoda etadi. Bu qaratqich-tushum affiksining fonetik variantlariga ko'ra shevalar ikki guruhga ajraladi:
  - a) –нъ affiksi undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilib kelganga, uning birinchi tovushi to'liq progressiv assimilyatsiyaga uchrovchi shevalar (unli bilan tugagan so'zlarga bu affiks qo'shilganda –нъ saqlanadi.) Bunga Toshkent, Namangan va o'z fonetik xususiyatlari jihatdan bu shaharlarga yaqin qishloq shevalari kiradi.
  - b) Qaratqich-tushum affiksidagi *n/d/t* tovushlarining almashinishi bilan xarakterlanadigan shevalarga Andijon, Marg'ilon, Qo'qon guruh shevalari kiradi. Bu shevalar mana shu xususiyatlariga ko'ra o'zbek tilining qipchoq shevasiga yaqinlashadi.

Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasiga kiruvchi dialekt va shevalarni spetsifik xususiyatlarini saqlash-saqlamaslik nuqtai nazardan bir necha guruhga dialektga bo'lish mumkin.

### 1) Farg'ona guruhi.

a) Namangan dialekti.

Bu dialektga Namangan shahar shevasi, Namangan oblastidagi Uychi, Chortog' kabi shevalar kiradi. Bu shevalar qardosh uyg'ur tiliga o'zining yaqinligi bilan xarakterlanadi.

b) Andijon-Shahrixon dialekti.

Bu dialekt Andijon shahar shevasini, Shahrixon shevasini va Andijon oblastidagi boshqa ba'zi shevalarni o'z ichiga oladi.

v) O'sh-O'zgan dialekti.

Bu dialekt O'sh, O'zgan, Jalolobod kabi shevalarni o'z ichiga oladi. O'sh-O'zgan dialekti qirg'iz tili elementlarining borligi bilan xarakterlanadi.

d) Marg'ilon-Qo'qon dialekti.

Bu dialekt Marg'ilon, Farg'ona shahar shevasini (eski Sim), Vodil, Qo'qon kabi shevalarni o'z ichiga oladi.

### 2) Toshkent guruhi.

a) Toshkent dialekti.

Bu dialekt Toshkent shahar shevasini, Toshkent oblastidagi Parkent, Piskent, Qoraxitoy kabi shevalarni o'z ichiga oladi (Toshkent oblastidagi qipchoq-jlovchi shevalardan tashqari).

b) Jizzax dialekti.

Bu dialekt Toshkent va Samarqand oblastidagi Jizzax, Xos (Xovos) kabi, Qashqadaryo vodiysidagi Po'lati, Mo'lati, Boyterak kabi shevalarni o'z ichiga oladi (ko'rsatilgan oblastlardagi qipchoq-j-lovchi shevalardan tashqari).

7) **Qarshi guruhi.**

c) Qarshi dialekti.

Bu dialekt Qashqadaryo vodiysidagi Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' kabi shevalarni o'z ichiga oladi. (Shu oblastdagi qipchoq-j-lovchi shevalardan tashqari.)

d) Samarqand-Buxoro dialekti.

Bu dialekt Samarqand, Buxoro, Leninobod (Xo'jand), Farg'ona vodiysidagi Koson kabi shevalarni o'z ichiga oladi. Bu shevalar tojik elementlarining turli darajada borligi bilan xarakterlanadi.

8) **Shimoliy o'zbek guruhi.**

c) Iqon-Qorabuloq dialekti.

Bu dialekt Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt kabi shevalarni o'z ichiga oladi. Bu shevalar o'g'iz va qipchoq elementlarining borligi bilan xarakterlanadi.

d) Turkiston-Chimkent dialekti.

Bu dialekt Turkiston, Chimkent, Sayram kabi shevalarni o'z ichiga oladi. Bu shevalar o'g'uz elementlarining kamayishi (ba'zan yo'qligi) va qipchoq elementlari (ayniqsa, qozoq elementlari) ning ko'payishi bilan xarakterlanadi.

Qorluq-chigil-uyg'ur lahjasining Toshkent va Farg'ona guruhidagi dialektlarning ba'zilar o'zbek adabiy tilining shakllanishida alohida rol o'ynagan.

**O'zbek tilining qipchoq lahjasi.**

Bu lahjaga xos xususiyatlar prof. E. D. Polivanov va prof. G'ozzi Olim klassifikatsiyasida atroflicha berilgan.

1) Fonetik xususiyatlari quyidagilar:

a) kontrast juft unilarning mavjudligi va buning natijasida singarmonizmning saqlanishi, ya'ni hozirgi qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq tillari va boshqa qipchoq guruhiga kiradigan turk tillariga xos bo'lgan tovushlarning o'zak va affikslarda almashinishi;

b) so'z boshida kelgan o'rta ko'tarilish unilalarining diftonglashuvi

v) iyt, biyt so'zlarida diftongning ishlatilishi

g) qisqa-uzun unilarning farqlanmasligi, undosh tovushlarning tushib qolishi hosobiga bo'ladigan ikkinchi darajali uzunlikning mavudligi

d) so'z boshida y ning *dj* ga o'tishi

e) [g'>v] : tag'>tav, ag'iz>avuz

j) unililar orasida *p,k,q* ning jaranglilashishi

i) so'z boshida *h* undoshining ortishi (paydo bo'lishi) : ayvan>hayvan, arra>harra kabi

k) so'z oxirida *k,q* ning tushib qolishi : kichik>kichi.

2) Morfologik xususiyatlari:

a) qaratqich va tushum kelishiklari affiksida *n/d/t* tovushlarining almashinishi

b) shaxs olmoshlarining jo'nalish kelishigi shakli mag'an, sag'an, ug'an

v) hozirgi zamon davom fe'lining *-джатыр* bilan yasalishi

g) hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi *-тыган* bilan yasalishi



Qipchoq lahjasi boshqa lahjalardan o'zining leksik xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

### **O'zbek tilining o'g'uz lahjasi.**

Bu lahjaning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

- a) qipchoq shevalaridagi kabi kontrast juft unlilarning mavjudligi
- b) qisqa va uzun unlilarning farqlanishi, ya'ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy uzun unlilar (birinchi darajali cho'ziq unlilar) ning mavjudligi : a:t (hayvon), a:d (ism) ; ot (o'simlik), o:t (olov)
- v) so'z boshida *t* va *k* tovushlarining jaranglilashishi
- g) *k* va *g* tovushlarining maksimal yumshilishi
- d) qaratqich kelishigi affiksining –ынг/-инг formasida ishlatilishi
- e) jo'nalish kelishigi affiksining –α/∂ formasida ishlatilishi
- j) *bol* fe'lidagi *b* ning tushishi (*bol*>*ol*) kabilar.

Shuningdek, bu lahja ham boshqa lahjalardan o'ziga xos leksik-grammatik xususiyatlari bilan farq qiladi.

### **O'zbek xalq shevalarining konsonantizmi**

Xilma-xil bo'lgan o'zbek shevalarining konsonantizm sistemasini fonologik jihatdan, ya'ni printsiptial farq qiladigan undosh fonemalarni aniqlash va ularning talaffuz qilinish xususiyatlarini belgilash uchun avvalo ma'lum guruhdagi shevalar o'zaro qanday xususiyatlari bilan bir-biriga yaqin yoki, aksincha, bir-biridan nimalar bilan farq qilishini aniqlash lozim.

7.1. Bir-biridan printsiptial farq qiladigan undosh fonemalarning miqdori va ularning sifat jihatdan xarakteristikasiga ko'ra, y-lovchi shevalar o'zbek adabiy tiliga birmuncha yaqin turadi. Ammo Toshkent tipidagi y-lovchi shevalarda uchramaydigan, biroq j-lovchi va singarmonizmli y-lovchi shevalarda mavjud bo'lgan [h] fonemasi bundan mustasnodir. Janubiy Xorazm shevalaridagi [k,g] undoshlari ham birmuncha o'ziga xos xususiyatlarga ega.

7.2. Barcha j-lovchi shevalardagi undosh fonemalar sistemasi deyarli bir xil. Chuqur til orqa [x] tovushining sifat jihatdan xarakteristikasi va bu tovushning mavjud bo'lish-bo'lmasligi bilan j-lovchi shevalar bir-biridan farq qiladi. Konsonantizm sostavi jihatdan j-lovchi shevalar qipchoq guruhidagi turkiy tillarga birinchi navbatda, qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz tillariga yaqin turadi.

7.3. J-lovchi shevalardagi [dj] affrikati o'rniga [j] fonemasini qo'llaydigan shevalar j-lovchi shevalarning alohida guruhchasini tashkil qiladi. Bu sheva vakillari genetik jihatdan qozoqlar bilan aloqador bo'lgan, shu sababli ham bu shevaning konsonantizmi qozoq tili konsonantizmiga o'xshydi.

### **Адабиётлар.**

1. А.Нурмонов «Структур тилшунослик илдизлари ва йуналишлари.», «Лингвистика» йуналишидаги магистрлар учун укув кулланма. Андижон 2006 й.

2. В.В.Решетов, Ш.Шоабдурахмонов. Ўзбек диалектологияси. «Ўқитувчи» нашриёти. Тошкент-1978.

3. Н.А.Баскаков, А.С.Содиқов, А.А.Абдуазизов. Умумий тилшунослик. Тошкент, «Ўқитувчи»-1979 й.
4. А.Нурмонов, Б.Йўлдошев. Тилшунослик ва табиий фанлар. «Шарқ» нашриёти, Тошкент 2001.
5. Серебренников Б.А. Методы лингвогеографических исследований // Общее языкознание: методы лингвистических исследований. М., 1973.
6. Гаджиева Н.З. Проблемы тюрской ареальной лингвистики: Среднеазиатский ареал. М., 1975.
7. Бородина М.А. Развитие ареальных исследований и основные типы ареалов. Взаимодействие лингвистических ареалов: Теория, методика и источники исследования. Л., 1980.
8. Джураев А.Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. Т., «Фан», 1991.
9. Головин Б.Н. Введение в языкознание. М., 1983.
10. Жирмунский В.М. Общее и германское языкознание // Избранные труды. Л., 1976.